

373
T-21

Z.S. TESHABAYEVA

BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLIYATGA O'RGATISH



TOSHKENT

343
71-21

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Z.S. TESHABAYEVA

-6133-

**BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA
IJODIY FAOLIYATGA O'RGATISH**

(O'quv qo'llanma)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT – 2021

UO'K: 373.53.
KBK: 74

Z.S.Teshabayeva. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish. (O'quv qo'llanma). – T.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020, 108 bet.

ISBN 978-9943-6735-1-9

Mazkur o'quv qo'llanmada «Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish» fanining maqsadi, vazifalari, asosiy mavzulari, metodlari nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Shuningdek, o'quv qo'llanmada bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy motivatsiyasini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy hamda umuminsoniy qadriyatlarining mohiyatini bilishi, bolalarni Vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'z oilasiga bo'lgan muhabbatini shakllantirishning samarali yo'llari keltirilgan.

O'quv qo'llanmada talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda kvalimetrik kompetensiyaning o'rni va ahamiyati, ularning adabiyotga, san'atga qiziqishi va xalqimizning boy madaniy merosiga nisbatan hurmatini tarbiyalash hamda bolalarda ijodkorlikni shakllantirishda oila, maktab va mahalla bilan hamkorlik ishlarini amalga oshirishga oid ko'nikma va malakalarni hosil qilish vazifalari yoritiladi.

UO'K: 373.53.
KBK: 74

Taqrizchilar:

T.L.Xurvaliyeva – TVCHDPI maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, p.f.n;

D.T.Po'latova – Abdulla Avloniy nomidagi XTTRMXQTMO instituti Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (Phd).

ISBN 978-9943-6735-1-9

© «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2021.

KIRISH

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiy jarayonlar dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyo qarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonuni 4-moddasida har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyabiy ta'sirining birligi keltirilgan¹.

2017-yilning 16-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish hamda mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-sonli Qarori, 30-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-sonli Farmoni qabul qilindi.

Maktabgacha yosh-shaxsning dastlabki kamol topish davridir. Har bir bola shaxsining rivojlanishi, jumladan ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda uni adabiyotga, san'atga qiziqish va xalqimizning boy madaniy merosiga nisbatan hurmatni tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishda pedagog yetakchi rol o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiya'ning turli

¹ «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-595-son 16.12.2019.

metodlarini qo'llash va «Ilk qadam» davlat o'quv dasturida belgilab berilganidek, o'quv tarbiyaviy faoliyatning o'zaro uyg'unligini ta'minlash, ularni o'yin tarzida tashkil etish lozim².

«Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish» fani talabalarda pedagogik ijodkorlik hamda pedagogik kvalimetriya kompetensiya sifatlarini shakllantirishga zamin yaratadi. Chunki sahnalashtirish faoliyatida tahlil, sintez, qiyoslash va taqqoslash jarayonlari amalga oshiriladi. Bo'lajak tarbiyachilarda kvalimetrik kompetensiya'ni rivojlantirishda ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarishni rejalashtirish, o'quv jarayonini modernizatsiyalash, mazkur jarayonni metodik va texnik jihatdan ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

«Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish» fani maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila bilan hamkorlikni amalga oshirishning samarali yo'llarini ko'zda tutadi. Mazkur o'quv qo'llanma maktabgacha ta'lim yo'nalishi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar, uslubchilar, oliy ta'lim muassasalarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ilmiy-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi.

² «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi. T.: 2018.

I-BOB

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA

SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

1-§. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyati.

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar: *Ijod, teatr, spektakl, obraz, personaj, dramaturgiya, drama, sahna, sujet, prinsip, dekoratsiya, an'ana, qadriyat, empatiya, atribut, janr, folklor.*

O'zbekiston Respublikasida kechayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-ma'naviy islohotlar, fan-texnika va ishlab chiqarish keskin rivojlanib borayotganligi – jamiyat talablariga javob bera oluvchi shaxsni tarbiyalash masalasini kun tartibiga ko'ndalang qo'ymoqda. Darhaqiqat, kelajak poydevori bo'lgan, har jihatdan mas'uliyatli, ma'naviy yetuk, axloqan pok, bir so'z bilan aytganda jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'sha oladigan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimi uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning kelgusidagi butun hayotini belgilab beradi. Shu o'rinda Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning so'zlarini aytib o'tish joiz. «Biz qaysi sohani olmaylik zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisholmaymiz. Bunday kadrlarni, millatimizning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi». Shuni hisobga olgan holda o'tgan davrda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim-tizimini rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari qabul qilindi.

«Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi qarorida milliy-madaniy, tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash hamda

maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilab berildi³.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini sifatli olib borish, bolalar ijodiga rahbarlik qilish, uni to'g'ri tashkil qilish uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash ehtiyoji tug'ildi. Bu OTMda «Maktabgacha ta'lim» yo'nalishlarini ochilishiga sabab bo'ldi. «Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish» fani dasturga kiritildi.

Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish fanining asosiy maqsadi:

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodiga rahbarlik qilish uchun amaliy bilim va ko'nikmalar berish

Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish fanining vazifalari:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy faolligi uchun sharoit yaratish;
2. San'at sohasiga doir qobiliyatlarini aniqlash va shakllantirish;
3. Pedagogik jarayonda, faoliyat markazlarida teatrlashtirilgan va boshqa faoliyat turlarining doimiy aloqadorligi uchun sharoit yaratish;
4. Bolani ma'naviy tarbiyalash, atrof-olam bilan tanishtirish, emotsional olamini boyitish, ijodga e'tibor va qiziqish uyg'otish;
5. Kommunikativ munosabatlarni rivojlantirish, o'rtoqlarini eshita olish va o'zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishlash malakalarini shakllantirish;
6. Xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'lish va ularni qadrlashga o'rgatish;
7. Bolalarni teatr madaniyatiga oshno qilish.

Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi:



Teatr bola uchun katta ahamiyatga ega, bolalar u bilan uchrashuvni sabrsizlik bilan kutadi. Teatr hamma narsaga qodir, u mo'jiza yaratadi, quvontiradi, o'rgatadi, maktabgacha yoshdagi bolalarning xulqini korrektsionlaydi, ijodiy qobiliyatlarini hissiy idrokini rivojlantiradi.⁴ Bolalarning nutqi faollashib, notiqlik qobiliyati rivojlanadi, o'ziga ishonchi oshadi, omma oldida chiqish qilish ko'nikmalarini egallashida yordam beradi.

Teatr san'ati bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashadi. Teatr san'ati bilan muloqot qilib borar ekan, bolalar bir-biriga nisbatan toqatli, kelishuvchan, og'ir-bosiq bo'lib, o'zini tartibga solib oladi. Teatr maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari va kayfiyati (ruhiyati) ga kuchli ta'sir o'tkazadi, ularning fikrlash doirasini kengaytirib, nutqini boyitadi, axloqiy-ma'naviy tasavvurini shakllantiradi, intellektual qobiliyatlarini oshiradi.

Teatr bolani ma'naviy tarbiyalaydi. Teatr – sehrli olam, unda bola o'ynab, quvonadi, o'ynab atrof olamni o'rganadi, ya'ni uning ichki olami boyiydi. Bolada ijodga e'tibor, qiziqish, intilishning namoyon bo'lishi uning taassurotlarini yangilaydigan emotsional undovlarni talab qiladi. Bu borada teatrlashtirish faoliyatining juda katta ijobiy ahamiyatini

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. PQ-3261-son 09.09.2017.

⁴ D.Raimova. "Maktabgacha ta'lim muassasasida sahnalashtirish faoliyati". "Maktabgacha ta'limda o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning samaradorligi: muammolar va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Andijon davlat universiteti. Andijon – 2019. 306-bet.

alohida ta'kidlash mumkin. Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan bu kabi faoliyat bola hayotiga yangi mazmun olib kiradi. Quvonch hissini uyg'otib, barcha kuch va qobiliyatlari, jumladan nutqiy rivojlanish qobiliyatlarini faoliyatga safarbar qilishga undaydi.

Hamma bolalar ertak tomosha qilishni yaxshi ko'radi, ularga nafaqat tomosha qilish, balki artist bo'lish yoqadi. Teatr san'ati bolalarga yaqin va tushunarli, chunki uning asosida o'yin yotadi. Teatrda rol o'ynash va bolalar o'yini aynan bir xil shartlilikdan kelib chiqadi va o'zida voqelikni har bir inson ko'ra oladigan va ifodalay oladigan darajada seahrlaydi.

Bolalarda o'yinga bo'lgan ehtiyoj, shubhasiz, katta va u juda erta namoyon bo'ladi. Ikki-uch yoshidayoq kichkintoylar sakrayotgan quyoncha va ona-tovuqqa ergashayotgan jo'jachalarni tasvirlaydi. Ular jon-dili bilan kuchukcha, mushukcha, uloqchalar qiyofasiga kiradi. Bolalar imitatsiyalash va taqlidiy harakatlarni bajaradi, bu harakatlar hamisha rejali, ammo favqulodda boy va shu sababli o'zida katta emotsional quvvatni jamlaydi.

Teatrlashtirilgan o'yinlar bolalarni hamma vaqt o'ziga jalb etadi, bolalar o'yinga jonli dila bilan kirishadi: qo'g'irchoqlarning savollariga javob beradi, ularning iltimoslarini bajaradi, maslahatlar beradi, u yoki bu obrazga «kiradi». Kichkintoylar personajlar bilan birga kuladi, ular bilan birga qayg'uradi, ularni xavf-xatardan ogoh qilishga intiladi, sevgan qahramonining muvaffaqiyatsizligidan birga ko'z yosh to'kadi, hamma vaqt unga yordamga tayyor turadi.

Teatrlashtirilgan o'yinlarda qatnashib, bolalar atrof-olam, obrazlar, ranglar, tovushlar bilan tanishadi. Teatrlashtirilgan o'yinlarning bola shaxsiga katta va har tomonlama ta'siri undan kuchli pedagogik vosita sifatida, ortiqcha majburlashsiz, foydalanish imkonini beradi, chunki kichkintoy o'yin vaqtida o'zini erkin his qiladi.

MTTdahahnalashtirish faoliyatining shakllari

Sahnalashtirilgan o'yin faoliyati shakllari bir necha xil bo'lib, u o'zining barcha turlari bilan bolalarni badiiy tarbiyalash, estetik rivojlantirishga ko'maklashadi. Ularni yangi taassurotlar bilan boyitadi, avval egallagan bilimlarini mustahkamlaydi, faollashtiradi, tashabbuskorligi, nutqi, badiiy didini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligini rivojlantirish sahnalashtirilgan faoliyatning mazmunidan kelib chiqib quyidagi shakllarga bo'linadi (*1-sxemaga qarang*). Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini o'tkazish vaqti belgilanmagan, ushbu faoliyatni pedagogik faoliyatdan kelib chiqib, ya'ni integrativlik prinsipiga tayangan holda tashkil etish mumkin.

Ta'limiy faoliyatlar. Ta'limiy faoliyat bir vaqtning o'zida ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini bajarishi kerak. Uning mazmuni, shakli va metodi uch maqsadga erishishi uchun qaratilgan bo'lishi lozim: nutq va teatr-ijrochilik faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish; ijodkorlik muhitini yaratish; bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlantirish.

Shuning uchun bunday mashg'ulotlarning mazmuni nafaqat qandaydir badiiy adabiyot asari yoki ertak matni bilan tanishuv, balki imo-ishora, mimika, harakat, kostyum, mizanstsena (spektaklning ayrim paytlarida dekoratsiya va aktyorlarning joylanishi), ya'ni vizual «belgilar» bilan tanishishdir.

Ko'ngilochar o'yinlar. Ko'ngilochar o'yinlar san'atning barcha shakllarini birlashtiradi. Ularning ko'p turlari mavjud bo'lib konsertlar, qo'g'irchoq teatri tomoshasi, bolalar, tarbiyachi-xodimlar va ota-onalar hamkorligida tayyorlangan sahna teatri yoki qo'g'irchoq teatri tomoshalarini o'z ichiga oladi.⁵

Ko'ngilochar o'yinlarda ham kattalar, ham bolalar teng huquqli sherik sifatida harakat qilishadi. Umuman olganda, sahna tomoshasi yoki konsertda bola tabiiy ravishda kattalarning boy tajribasini o'zlashtiradi, xatti-harakatlarini qabul qiladi. Bundan tashqari, tarbiyachilar o'yinkulgu va bayramlarda bolalar xarakterlarining o'ziga xos xususiyatlarini, orzu va istaklarini bilib oladilar. Bola shaxsini hurmat qilish, unga g'amxo'rlik qilish, kattalar va ular o'rtasida o'zaro munosabatlarda ilqlik muhiti yaratiladi.

Bayramlar. Tashkil etilgan bayramlar bolalarga quvonch bag'ishlab, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatini berishi lozim.

Bayram tadbirlari, avvalo bolalar uchun quvonch berishini tarbiyachi yodda saqlashi kerak. Bayramlar bolalarning xotirasida uzoq vaqt

⁵ Z.Ziyautdinova. "Teatr – sahnalashtirish faoliyatining shakllari". "Maktabgacha ta'limda o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning samaradorligi: muammolar va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Andijon davlat universiteti. Andijon – 2019. 309-bet.

saqlanib qoladigan taassurotlar manbayidir. Shu sababli, bayramga tayyorgarlik jarayonida, eng avval, yaxshi tayyorlangan ssenariy, har bir bolaning bayram tadbirlaridagi ishtiroki, kayfiyati va san'at turlarining o'zaro uyg'unligiga e'tibor qaratish muhim. Bayram tadbirida bolalar o'zlarini quvnoq, xursand his qilishi va erkin bo'lishi kerak.⁶


Professional teatr studiyalarining namoyishlari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida professional teatr studiyalarining (sirk, qo'g'irchoq teatri, sahna teatri) namoyishlarini tashkil etilishi.

To'garak ishi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sahnalashtirilgan faoliyatini tashkil etishning yana bir shakli to'garak ishidir. U quyidagi masalalarni hal etishda yordam beradi: bolalarning fantaziyasi, tasavvuri, barcha turdagi xotiralari, ijodkorliklarini (badiiy nutq, musiqali o'yin, raqs, sahna) rivojlantiradi.

Agarda maxsus teatr to'garagi tashkil etilgan bo'lsa, teatr to'garagi rahbari ishtirok etishni xohlagan bolalar bilan ish olib boradi. Bunda rahbar rejissor bo'ladi bolalar esa aktyor vazifasini bajaradi. Rahbar o'z oldiga maqsad qo'yadi bolalar bilan ishlashda ssenariy, rejissorlik va sahnalashtirilgan ish bilan chegaralanmaslik, maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tadigan davri davomida bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishi lozim.

To'garak ishining asosiy mazmuni qo'g'irchoq teatri ustida ishlashni tashkil etadi, asar mazmunining tahlili, rollarni taqsimlash, sujetdagi harakatlarni o'zlashtirishga yordam beradigan etyud o'yinli mashqlar. Butun spektaklning sahnalashtirish ishi esa maxsus mashg'ulotlarda, haftada bir marotaba 30-40 daqiqa davomida kunning birinchi yoki ikkinchi yarimida o'tkaziladi. Mashg'ulotlarni tashkil qilish jarayonida shunga e'tibor qaratish joizki, agar bolada bilim ko'nikma bo'lsa-yu, qiziqish, xohish bo'lmasa faollik bo'lmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan sahnalashtirish faoliyatini rivojlantirish masalalaridan kelib chiqib, uning mazmuni aniqlanadi va tashkil etish shakllari belgilanadi.



I-sxema:

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish va o'yin faoliyatini tashkil qilish jarayonida tarbiyachi tomonidan qo'llanilishi kerak bo'lgan asosiy prinsiplarni ko'rib chiqamiz:

Sahnalashtirish faoliyati prinsiplari.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan sahnalashtirish mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachi quyidagi prinsiplarga amal qilishi lozim:

— **Mashg'ulotning mazmunliligi prinsipi.** Bunga ko'ra sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishda mavzular va metodlarning turfa xilligiga e'tibor qaratish lozim.

⁶ Антипина Е.А. «Театрализованная деятельность в детском саду». М., 2003. с.48

— **Импровизационный принцип.** Bunda sahnalashtirish o'yinlari shunday bir ijodiy faoliyat sifatida ko'riladiki, u kattalar va bolalarning o'zaro erkin muhitdagi alohida hamkorligini talab etadi, bolaning tashabbuskorligini rag'batlantiradi, biron-bir namunaga taqlid qilmaslikni talab etadi, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lishga undaydi. Mashg'ulotda barcha o'yin va mashqlar shunday tanlanishi kerakki, ularda harakatlar, nutq, mimika va pantomimik harakatlar turli ko'rinishlarda mujassam bo'lsin.

— **Интегративный принцип.** Sahnalashtirilgan faoliyat o'yinlari butun bir pedagogik jarayonda uyg'unlashtiriladi, ya'ni ijodiy faoliyat mashg'ulotlari (musiqqa, rasm chizish, nutq o'stirish, o'yinlar), kattalar va bolalarning hamkorligidagi ijodiy o'yinlar.

— **Эркинлик принципи.** Bolalarga qiziqtirgan faoliyat bilan bir-biriga xalaqit bermagan holda shug'ullanish imkonini beradi.

— **Фаоллик принципи.** Bolaning bilish faoliyatini, faolligini rag'batlaydi. O'yinlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazishning barcha bosqichlarida bolalarning maksimal darajada faol bo'lish imkonini beradi.

— **Мустақиллик принципи.** Bunda bola muhitga o'z munosabatini mustaqil belgilaydi, idrok qilish, taqlid qilish va o'z istagini mustaqil tanlash imkonini beradi.⁷

— **Бирлик принципи.** Ushbu prinsipning asosi bola va tarbiyachining o'zaro tushunish va o'zaro yordam asosida birgalikdagi faoliyatni tashkil etishdir.

— **Вариативный принцип.** Bolalarda variativ fikrlash, ya'ni masalani hal qilishning turli variantlari mavjudligini tushunish, qiyin vaziyatdan chiqish yo'lini izlash, yechimi bo'lmagan vaziyatlar yo'qligini tushunishni rivojlantirishdan iborat.

— **Болаларнинг индивидуал xususiyatlarini hisobga olish принципи.** Bolalardagi o'ziga xos qobiliyatlarini inobatga olgan holda vazifalar, topshiriqlar berish va doimiy qo'llab-quvvatlab turishdir.

2-§. Maktabgacha ta'lim tashkilotida turli yosh guruhlarida sahnalashtirish faoliyatining asosiy vazifalari

Olimlarning fikricha, bola shaxsining shakllanishida uning qobiliyati va ijodkorligi muhim o'rin tutadi. Bolaning iqtidorini va bilimini rivojlantirishda o'yin faoliyati yetakchilik qiladi. O'yin bola uchun erkin va mustaqil faoliyat sifatida tashkil etilgandagina rivojlantiruvchi va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.⁸ Teatr san'ati bolalar uchun qiziqarli bo'lib, uning negizini o'yin tashkil etadi. Sahnalashtirilgan o'yinlar bolada badiiy didni shakllantiruvchi yorqin emotsional vositalardan biridir. Sahnalashtirish faoliyati tasavvurni, bola xotirasi va bola ijodiyotining barcha turlarini (badiiy-nutqiy, musiqaviy-o'yin, raqs, sahna) rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun musiqa rahbari bilan tarbiyachi-pedagog hamkorlikda ishlashi talab etiladi. Musiqqa rahbari bolalar bilan nafaqat maxsus sahnalashtirish o'yin-mashqlarini tashkil etadi, balki sahnalashtirish faoliyati bo'yicha barcha pedagoglarga metodik yordam ko'rsatadi. Tarbiyachi ifodali o'qish, so'zlash, aktyorlik va rejissorlik mahoratidan boxabar bo'lishi kerak. Eng asosiy shartlardan biri – tarbiyachining sodir bo'layotgan barcha jarayonga munosabati, hissiyotlarning samimiyligi va tabiiyligidir. Sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishda pedagog quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

— sahnalashtirish faoliyatida bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish uchun sharoit yaratish (kattalar oldida chiqish qilganda o'zini erkin tutish, jumladan, uyatchan bolalarga bosh rollarni berish, nutqi zaif bolalarni jalb etish, har bir bolaning sahnada faol ishtirokini ta'minlash);

— mimika, pantomimika va ifoda vositalari bilan improvizatsiya qilishga undash (personajlarning xarakterini o'xshatish, o'zining emotsional holatini, kechinmalarini ko'rsatib berish);

— bolalarni teatr san'atiga qiziqtirish (qo'g'irchoq teatri turlari: stol teatri, soya teatri, barmoqli va teatrning boshqa janrlari) orqali tanishtirish;

— sahnalashtirish faoliyatini boshqa faoliyat turlari bilan bog'lash (sahnalashtirish o'yinlarini o'quv tarbiyaviy faoliyat va rivojlanish markazlarida qo'llash);

⁷ Антипина Е.А. «Театрализованная деятельность в детском саду». М., 2003. с.22

⁸ Генов Г.В. Театр для малышей. М.: Просвещение, 1968. с.72

-bolalar va kattalarning hamkorlikdagi faoliyati uchun sharoit yaratish (bolalar, ota-onalar va pedagog-tarbiyachilar ishtirokida qo'g'irchoq teatri, katta guruh bolalari teatrini kichiklar oldida tashkillashtirish va h.k.).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishda bolalarning qiziqishlari va takliflarini e'tiborga olish lozim. Ularni personaj bilan bog'liq harakatlarga o'rgatish maqsadga muvofiq. Bolalar ertak qahramonlari rolini ijro etishda unga xos harakatlar qilishlari uchun imkoniyat yaratish kerak. Bolalardan ijro etayotgan roli haqida taassurotlari so'raladi. Tarbiyachi-pedagoglar bolalarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda sahnalashtirish jarayonini tashkil etishlari lozim. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatiga qo'yiladigan asosiy talablarga rioya etishlari zarur:

- mavzularning mazmuni va turfa xilligi;
- sahnalashtirish o'yinlarini mustaqil faoliyat va rivojlanish markazlarida tashkil etish;
- o'yinlarga tayyorgarlik va ijro etishda bolalarning maksimal darajadagi faolligini ta'minlash;
- sahnalashtirish o'yinlarining barcha bosqichlarida bolalar va kattalarning o'zaro hamkorligini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyati turli yosh guruhlarida tashkil etiladi. Biroq bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda ularning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish lozim. Quyida turli yosh guruhlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish bo'yicha metodik jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Kichik guruh

Maktabgacha 3-4 yoshli bolalarda stol teatri, barmoq teatri, magnitli teatr va tosh teatrlari tashkil etiladi. Kichik guruh bolalariga sodda, qisqa mazmundagi xalq va mualliflik ertaklari, she'rlar, hikoyalar matnlari asosidagi kichik tomoshalarni sahnalashtirish mumkin. Bu yoshda bolalar tarbiyachi bilan stol, barmoq va tosh teatrlarida shakllarni berilgan mavzu bo'yicha improvizatsiya qilishda foydalanadilar.

Maktabgacha kichik guruh bolalari bilan sahnalashtirish jarayonida amalga oshiriladigan asosiy vazifalar quyidagilar:

- sahnalashtirilgan o'yinlarga nisbatan bolalarda kuchli qiziqish uyg'otish;
- to'g'ri fikrlash, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni shakllantirish;
- bolalarning so'z boyligini boyitish va ravon nutqda so'zlasha olishlariga erishish;
- bolalarda atrof-olam, narsa va hodisa haqidagi tasavvurlarini kengaytirish;
- bolalarda stol teatri, barmoq teatri va tosh teatri kabi teatrning turli yo'nalishlari haqida tushunchalarni mustahkamlash;
- bolalarda dastlabki aktyorlik mahoratini ko'rsata olish ko'nikmalarini tarbiyalash;
- bolalarni o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish va baholashga o'rgatish;
- Sijetli - rolli o'yinlar o'tkazishda bolalar tanishgan ertaklaridan foydalanish;
- Hayvonlar ovo'ziga taqlid qilish, ularni so'zli-didaktik va sijetli o'yinlarda ijro etish;
- Mustaqil faoliyat va ko'ngilochar o'yinlarda tarbiyachi taklifi bilan katta guruhdagi bolalar chiqishlari va qo'g'irchoq teatri namoyishlarini tomosha qilish.

O'rta guruh

Maktabgacha 4-5 yoshli bolalarda teatrlashtirilgan o'yinga nisbatan qiziqishlari ortadi. Bu yoshida bolalar stol teatrining turli ko'rinishlarini mukammal o'rganish bilan birga yumshoq o'yinchoqlar, yog'ochli teatr, konusli teatr, xalq o'yinchoqlari teatri kabi teatrning turli ko'rinishlarini o'rganadi. Bolalar «Tulki va tuma», «Bo'g'irsoq», «G'ozlar va turnalar» kabi ertaklar asosida qisqa tomoshalar taqdim etadi.⁹

Maktabgacha o'rta guruh bolalari bilan sahnalashtirish jarayonida amalga oshiriladigan asosiy vazifalar:

1. Bolalarda teatrlashtirilgan o'yin faoliyatiga qiziqish uyg'otish.
2. O'yinlarda ishtirok etish paytida sijet o'ylab topish, turli o'yinchoq va atributlarni qo'llashda improvizatsiyadan foydalanish.

⁹ Караманенко Т. «Кукольный театр в детском саду». М.: Учпедгиз, 1960. с.65

3. Bolalarda atrof-olam, narsa va hodisa haqidagi bilimlarini boyitib borish.

4. Bolalar so'z boyligini o'shish va faollashtirish.

5. Qo'g'irchoqlardan to'g'ri foydalanish qoidalarini mustahkamlash.

6. Mashg'ulotlarda olgan bilimlarini qo'llagan holda mustaqil badiiy ijodga qiziqishini oshirish.

7. Rasm chizish, atributlar yasash, she'r o'qish, qo'shiq aytish, raqsga tushish, qo'g'irchoqlar bilan improvizatsiyalashgan o'yinlarda ishtirok etish istaklarini shakllantirish.

8. O'yinlarda o'zaro kelishgan holda hamjihatlikda harakat qilishlariga erishish.

9. Bolalarni yangi tomoshabinga moslashish ko'nikmalarini mukammallashtirish.

10. Ko'ngilochar soatlarida pedagog-tarbiyachilar, ota-ona va bolalar oldida tomosha ko'rsata olish qobiliyatini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash.

Katta guruh

Katta guruhda sahnalashtirilgan o'yin ko'nikmalari dramatishtirish, siyalashtirilgan o'yin va rejissorlik o'yinlarining turli shakllari hisobiga o'rganiladi. Bu yoshda bolalar stol teatrining turli ko'rinishlarini, ya'ni shirmada yumshoq o'yinchoqlar boshqarish, yog'ochli teatr, konus teatr, iplar bilan harakatga keladigan qo'g'irchoqlar (marionetka), teatrning turli ko'rinishlarini mukammal o'rganish bilan birga soya teatri bilan tanishadilar.

Katta guruh tarbiyalanuvchisi o'yin sujetini mustaqil o'ylab topa oladi, sujet ketma-ketligini tasavvur qila oladi, rollarni taqsimlay oladi, o'zini biror rolda ifodali namoyish eta oladi, qahramonining o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini to'g'ri ochib beradi. Bunday yondashuv bolalarda rejissorlik tajribalarini oshiradi.

Tomosha uchun mavzu va so'zlar murakkablashtiriladi, teatrlashtirilgan o'yin jarayonida hayvonlar haqidagi turli ertaklardan foydalaniladi («Echki bolalari», «Bo'g'irsoq» va mualliflik ertaklari).

Maktabgacha katta yosh guruh bolalari bilan sahnalashtirish mashg'ulotlari jarayonida amalga oshiriladigan asosiy vazifalar:

1. Sahnalashtirilgan o'yinlarga nisbatan bolalarda kuchli qiziqish uyg'otish.

2. Bolalarda badiiy ijro etish ko'nikmalarini shakllantirishda o'yin, qo'shiq, raqs improvizatsiyalaridan foydalangan holda mukammallashtirish.

3. Atrofdagi munosabatlarga nisbatan bolalarning tushunchalarini kengaytirish.

4. Bolalarda qo'g'irchoq teatrlarining turlarini ajrata olish va aytib bera olish ko'nikmalarini mustahkamlash.

5. Bolalar nutqining intonatsion ifodaliligini mukammallashtirish. Monologik va dialogik nutq shakllarini rivojlantirish.

6. Qo'g'irchoqlar bilan to'g'ri manipulatsiya qilish, ya'ni to'g'ri yo'naltirish qoidalarini mustahkamlash.

7. Bolalarni yakka tartibda yoki guruh bilan birga turli hikoya va ertaklar to'qish va shu asosida improvizatsiyalashgan qo'g'irchoq tomoshalarini tashkil etishga yo'naltirish.

8. Bolalarda ong, tafakkur, tasavvur, diqqatni rivojlantirish.

9. Tomosha qo'g'irchoqlari bilan o'ynash istagini tarbiyalash. Mustaqil faoliyatda qo'shiq, raqs, o'yin improvizatsiyalaridan foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirish.

10. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti bayramlar, ko'ngilochar tadbirlar va mustaqil faoliyat jarayonida olgan bilim va ko'nikmalaridan foydalangan holda faol ishtirok etish ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlash.

Tayyorlov guruhi

Tayyorlov guruhida o'yin materiali yanada murakkablashadi. Bu yoshda bolalar shirmada yumshoq o'yinchoqlar boshqarish, yog'ochli teatr, konus teatr, soya teatri, simli teatr ko'rinishlarini mukammal o'rganish bilan birga marionetka (iplar bilan harakatga keltiriladigan) qo'g'irchoqlari bilan tanishadi.

Tayyorlov guruh tarbiyalanuvchisi o'yin sujetini mustaqil o'ylab topa oladi, sujet mazmuni va uni ifoda etish vositalari o'rtasidagi bog'liqlikni ilgaydi (uxlab yotgan o'rmon rasmida o'rmon qora ranglarda

berilgan, daraxtlar bir-biriga yaqin joylashgan; quvnoq raqsbop musiqa: tez, aniq va baland yangraydi), rollarni ifodali namoyish eta oladi, qahramonning o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini to'g'ri ochib beradi.¹⁰ Barcha badiiy faoliyat turlari bilan shug'ullangan holda ulardan biriga qiziqishi yuqori bo'ladi. Bu yoshda bola tomoshaning turlarini (qo'g'irchoq teatrining turlari, sahna teatri, kino, multfilm, sirk va h.k.) ajrata oladi.

Teatrlashgan tomoshalariga o'zbek xalq ertaklari, rus xalq ertaklari va mualliflik ertaklaridan keng foydalaniladi

Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalari bilan sahnalashtirish mashg'ulotlari jarayonida amalga oshiriladigan asosiy vazifalar:

1. Bolalarni badiiy faoliyat turlarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.
2. Badiiy obraz yaratishda bolalarni mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorlash.
3. Atrof-olamdagi voqelik va hodisalarga nisbatan bolalarning tushunchalarini kengaytirish.
4. Bolalar turli obrazlarni ijro etganlarida intonatsiya va jestlarni qo'llashga o'rgatish.
5. Qo'g'irchoq teatri turlarini farqlash va manipulatsiya qilish ko'nikmalarini mustahkamlash.
6. Ijodiy tashabbus va tashkilotchilik qobiliyatini qo'llab-quvvatlash.
7. Bolalarda ijobiy kayfiyatni boshqalarga ulashish, musiqa ohangini turli tana harakatlari orqali ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish.
8. Qo'g'irchoq teatri tomoshalari jarayonida bolalarning yakka va jamoa bilan musiqa asboblari yordamida improvizatsiya qilish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.
9. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti bayramlarida, ko'ngilochar tadbirlarida mashg'ulotlar va mustaqil faoliyat jarayonida olgan o'z bilim va ko'nikmalaridan foydalangan holda faol ishtirok etish ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni tarbiyalash ikki tomonlama jarayondir. Bir tomondan u bolalarga tarbiyachi va otionalarning faol ta'sirini, boshqa tomondan tarbiyalanuvchilarning xatti-harakatlari, qiziqishlari va ijodkorligida namoyon bo'ladigan faolligini nazarda tutadi. Sahnalashtirilgan o'yinlar bolalarda o'zining boshqalar

oldida ifoda eta olish, o'zining «Men»ini boshqalarga taqdim eta olish, o'rtoqlari oldida o'z harakatlaridan faxrlanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi davri sahnalashtirilgan o'yin faoliyatining turlari hisobiga boyitiladi.

§ 3. Sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish

Bolalar sahnalashtirish faoliyatida ishtirok etar ekan, obrazlar orqali atrof-olam bilan tanishadi, natijada ular o'ylashga, tahlil qilishga, xulosalar chiqarishga harakat qiladi. Bolalar sahnalashtirish faoliyati orqali personajlarning replikalarini o'zlashtiradi. Ularda so'z zaxirasi ortadi, ijro etayotgan roli bolaning boshqa qahramonlari bilan muloqotga kirishishga undaydi.

Sahnalashtirish faoliyati bolalarda nutq ravonligini shakllantiradi, intellektual va badiiy-estetik tarbiya bilan bog'liq ko'plab pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi. Shuningdek, bolalarda his-tuyg'u rivojlanadi, ular ijro etgan rollari orqali ma'naviy jihatdan shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Ertaklarni sahnalashtirish jarayonida personajlarga hamdard bo'lish va voqealarni ular bilan birga his qilishga ko'mak beradi. Sahnalashtirish faoliyati bolalarning birgalikdagi faoliyati uchun zarur sharoitlar yaratadi.

Sahnalashtirish faoliyati bolalar o'rtasida empatiya'ni yuzaga keltiradi, ya'ni odamning emotsional holatini mimika, ifodali harakatlar va nutqi bo'yicha ilg'ab olish, turli holatlarda o'zini boshqa odam o'rniga qo'yib ko'rish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bastakor D.B.Kabalevskiy san'atning bolalar uchun ahamiyati haqida shunday fikr bildiradi: «Maktabgacha yoshdagi bolalarda san'at nafaqat go'zallik hislarini, balki odob va axloq tushunchalarini ham paydo qiladi. Bolalarda o'chmas taassurot qoldiradi. Sahnalashtirish faoliyati qanchalik boy va mazmunli bo'lsa, bolalarda dunyo qarashning rivojlanishi shunchalik oson va muvaffaqiyatli kechadi».

Sahnalashtirish faoliyati bolaga muammoli vaziyatlarni bilvosita, ya'ni personaj rolini ijro etish orqali yechishga imkon beradi. Bolalarda o'zaro munosabatlardagi qiyinchilik, o'ziga ishonmaslik, jur'atsizlik kabi sifatlarni yengib o'tishga yordam beradi.

¹⁰ Кудачова Л.В., Мерзлякова С.И. «Воспитание ребенка-дошкольника: развитого, образованного, самостоятельного, инициативного, неповторимого, культурного, активно творческого». Москва.: Владос, 2004. с.103

Sahnalashtirish faoliyati bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Aynan shu sababdan maktabgacha ta'lim jarayonidagi ish mazmuni va metodlariga qo'yiladigan talablar ortadi. Sahnalashtirish faoliyati bolalarning hissiyotlarini rivojlantirishning tuganmas manbai hisoblanib, ularni ma'naviy jihatdan boy bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Sahna faoliyati quyidagi uchta maqsadni amalga oshiradi.

1. Nutq va ijro faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish;
2. Ijodkorlik muhitini yaratish;
3. Bolalarni ijtimoiy-emotsional rivojlantirish.

Sahnalashtirish faoliyati nafaqat asarning matni bilan tanishtirish, balki ifodali nutq, imo-ishora, mimika, harakat, kostyum, sahna kabi tushunchalarni shakllantiradi.

Sahnalashtirish faoliyati jarayonida tarbiyachi bolalar nimani his qilayotganini anglashi, kechinmalari nimaga qaratilganini farqlashi lozim. Shuningdek, bolalarga o'z hissiyotlarini namoyon etishlariga ko'maklashadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatida quyidagi ifoda vositalaridan foydalanish lozim: kichik guruhda sodda obrazli-ifodali ko'nikmalar, ya'ni ertak hayvonlariga xos harakatlarini ijro eta olish; o'rta guruhda badiiy obrazli ifoda vositalari, ya'ni intonatsiya, mimika va pantomimikaga o'rgatish; katta guruh bolalarida badiiy obrazli ijro mahoratlarini takomillashtirish; tayyorlov guruhida ijodiy mustaqillik, nutq va pantomimika harakatlarini rivojlantirish.

Sahnalashtirish o'yinlari davomida bolalarda quyidagi qobiliyatlarni kuzatish mumkin:

- Aktyorlik qobiliyati;
- Rejissorlik qobiliyati;
- Sahna bezash qobiliyati;
- Tomoshabinlik qobiliyati.

Aktyorlik qobiliyati – personajning emotsional holatini tushunish va unga muvofiq tarzda to'g'ri keladigan ifoda vositalari: ovoz, mimika, pantomimikani tanlay bilish, ifodali o'qish, mimikada turli hissiyotlarni ko'rsata olish sifatlarini namoyon qilishdir.¹¹

Rejissorlik qobiliyati – qahramonlarning qilmishlari sabablarini tushunish, sujet chizig'idan chiqmaslik, voqeaning sabab-oqibat jihatidan

bog'liqligini ta'minlash, ijro muhitini yaratish, bir vaqtning o'zida rol o'ynayotgan ijrochilarning bir nechtasini boshqara olish sifatlarini namoyon qilishdir.

Sahnani bezash qobiliyati – sahna asarini badiiy jihatdan ko'ra olish, sujet uchun dekoratsiya, kostyum, atributlarni to'g'ri tanlash va ijro muhitini yaratish qobiliyatidir.

Tomoshabinlik qobiliyati – personajlarni emotsional holatini tushuna olish va asar qahramonlariga nisbatan empatiya'ni yarata olish. Tomoshabinlik madaniyati, ko'rgan narsalari haqida fikr bildira olishi, o'zaro munosabatining mavjudligi, aktyorlar ijrosi haqida fikr bildira olish qobiliyatidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning dramalashtirilgan o'yinlarga nisbatan qobiliyatlarini aniqlashda kuzatish hamda suhbat metodidan foydalaniladi. Kuzatuv dramalashtirilgan o'yinlar jarayonida tarbiyachi tomonidan olib boriladi. Kuzatuv metodini qo'llash jarayonida bolalar mustaqil va erkin holda dramalashtirilgan o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishlari kerak.

Sahnalashtirish o'yinlari davomida bolalardagi qobiliyatlarni aniqlashda quyidagi etyud o'yinlarni taklif etish mumkin:

Bolaning aktyorlik qobiliyatini aniqlash uchun bolaga matnni quyidagi intonatsiyalar bilan aytib ko'rish taklif etiladi:

- a) hayron bo'lib;
- b) quvnoq kayfiyatda;
- c) savol ma'nosida;
- d) jahl chiqqan holda;
- e) muloyim, xotirjam kayfiyatda.

Rejissorlik qobiliyatini aniqlash uchun bolalarga ertak mazmuniga ssenariy tuzish, rollarni taqsimlash, ertak sahnalashtirish va repititsiya qilish topshiriladi.

Sahna bezash qobiliyatini aniqlash uchun ertakka mos dekoratsiya, kostyum va atributlarni taklif etish so'raladi.

Boladagi tomoshabinlik qobiliyatini aniqlash uchun tomosha tugagach, o'yin tarzida suhbat o'tkaziladi:

- Ertak nima haqida ekan?
- Ertak tomosha qilib nimani tushundingiz?
- Senga ko'proq qaysi qahramon yoqdi?
- Uning xarakteri qanday?

¹¹ Антипина Е.А. «Театрализованная деятельность в детском саду». М., 2003. С.112

— Qahramonlar bilan sodir bo'lgan voqea paytida sen o'zingni qanday his qilding?

— Ertakda biron voqea yoki holatni o'zgartirishni xohlarmiding? - kabi savollar orqali bolalarning fikr-mulohazalari o'rganiladi.

Sahnalashtirish o'yinlari orqali bolalardagi ijodiy qobiliyatlarni aniqlash uchun tarbiyachi tomonidan quyidagilardan foydalangan holda tashxis o'tkazilishi mumkin.

Bola qobiliyatini diagnostika qilish jadvali

Aktyorlik qobiliyati	+	-	Tomoshabinlik qobiliyati
a) Rolni faollik bilan qabul qiladi.			a) E'tibor va kuzatuv bilan tomosha qiladi.
b) Ifoda, so'z va harakatlardan o'rinli foydalanadi.			b) Empatiya'ning borligi
d) Improvizatsiyadan foydalanadi.			d) Taassurotlarni so'z, harakat va rasmlarda ifodalay oladi.
Rejissorlik qobiliyati			Sahna bezatish qobiliyati
a) Izohlab, talqin qila oladi.			a) Asar g'oyasini tushunadi.
b) Umumlashtira oladi.			b) Asar mazmunini umumlashtiradi va dekoratsiya yarata oladi.
d) Rejalashtira oladi, rollarni to'g'ri taqsimlay oladi.			d) Asar mazmunidan kelib chiqib kostyum va atributlar haqida o'ylaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodiy o'yinlar o'ynasa, o'zining va do'stlarining qobiliyati, iqtidorini ko'rsatishga harakat qilsa, demak bolada ijodiy qobiliyat mavjud. Sahnalashtirish faoliyati o'sib kelayotgan barkamol avlodni tarbiyalash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Rossiyalik pedagog N.F. Sorokinaning «Teatr-Ijod-Bola» dasturi¹² asosida «Ertaklar yaxshilikka yetaklar» mavzusidagi namunaviy dastur ishlab chiqildi.

Dasturning maqsadi: Teatr san'ati vositasida bolalardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Dasturning vazifasi:

1. Bolalarni obrazlarni his etish va yorqin ifodali vositalar orqali tasvirlashga o'rgatish.

2. Bolalarga teatr madaniyati va sahnalashtirish faoliyati haqida tizimli bilimlar berib borish.

3. Bolalarda sahnalashtirilgan o'yinlarga nisbatan qiziqish uyg'otish. Dastur quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Dasturga kirish.

2. Teatr madaniyati haqida.

3. Ritmoplastika.

4. Sahnalashtirilgan o'yinlar.

Dastur 5-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan. Dasturning asosiy tamoyili integrativlik (yaxlitlik) bo'lib, sahnalashtirish faoliyati pedagogik jarayonda uyg'unlashtiriladi. Ta'limiy faoliyatda (musiqa, rasm chizish, nutq o'stirish, o'yinlar) kattalar va bolalarning hamkorligidagi ishlari yo'lga qo'yiladi.

Dasturni amalga oshirish davomida bolalar teatr turlari va teatr madaniyati, sahna dizayni (tomosha zali, ayvon va garderob), teatr kasblari (aktyor, rejissor, grinyor, ovoz rejissori, sahna bezovchi, chiroqchi, suflor va h.k.) qo'llaydigan usul va manipulatsiyalar haqida tasavvurga ega bo'ladi. Natijada bolalar rolni namoyish etish, inssenirovka qilish, ifoda vositalarini qo'llashni o'rganadi. Tanish ertak va qo'shiqlarni mustaqil ravishda kuylaydi va ijro etadi. Qahramonlarning emotsional holatini his qilish, tushunish, boshqa personajlar bilan rolli harakatlarga kirishish ko'nikmasi shakllanadi. Bolalar tengdoshlari, kichik guruh bolalari, ota-ona va mehmonlar oldida sahnada chiqish qila oladi. Dasturni qo'llash davomida bolalarning bilimlari yilda ikki marotaba

¹² Сорокина Н.Ф. «Играем в кукольный театр: Программа «Театр-Творчество-Дети»: Пособие для воспитателей, педагогов дополнительного образования и музыкальных руководителей детских садов. Рекомендовано Министерством образования РФ. М.: АРКТИ 2002.

sentabr oyida-kirish, may oyida-yakuniy natijalarni aniqlash uchun test topshiriqlari asosida diagnostika qilinadi.

«Ertaklar – yaxshilikka yetaklar» dasturi sahna ko'rinishi namoyishi bilan yakunlanadi.

I-BOB BO'YICHA XULOSA

1. Maktabgacha ta'lim tizimi uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning kelgusidagi butun hayotini belgilab beradi.

2. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish fanining asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodiga rahbarlik qilish uchun amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

3. Sahnalashtirilgan o'yin faoliyati shakllari bir necha xil bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan sahnalashtirish faoliyati masalalaridan kelib chiqib uning mazmuni aniqlanadi va tashkil etish shakllari belgilanadi. Sahnalashtirilgan faoliyat, san'atning amaliy turi sifatida ham ta'lim, ham tarbiya uchun katta imkoniyatlarga ega va shaxsni tarbiyalash imkonini yaratadi.

4. Sahnalashtirish faoliyati tarbiyalanuvchilarning intellektual va badiiy-estetik qobiliyatlari bilan bog'liq ko'plab pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan sahnalashtirish faoliyatini to'g'ri tashkil etishda belgilangan prinsiplarga amal qilishi lozim.

5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyati turli yosh guruhlarida tashkil etiladi. Bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda ularning yosh xususiyatini hisobga olish lozim. Turli yosh guruhlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish bo'yicha metodik ko'rsatmalarga amal qilish muhim.

6. Maktabgacha yoshdagi bolalarning dramalashtirilgan o'yinlarga nisbatan qobiliyatlarini aniqlashda kuzatish va suhbat metodidan foydalaniladi. Kuzatuv dramalashtirilgan o'yinlar jarayonida tarbiyachi tomonidan olib boriladi. Bolalar mustaqil va tabiiy holda dramalashtirilgan o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishi zarur.

7. Sahnalashtirish faoliyati maxsus dastur asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Nazorat savollari:

1. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

2. Sahnalashtirish faoliyatining shakllari qanday?

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish prinsiplari qaysilar?

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatiga qo'yilgan talablar nimalardan iborat?

6. Turli yosh guruhida sahnalashtirish faoliyatining vazifalari haqida so'z yuritib.

7. Sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishda tarbiyachining vazifalari qaysilar?

8. Sahnalashtirish o'yinlari davomida bolalarda qanday qobiliyatlar rivojlantiriladi?

9. Bolalardagi qobiliyatlarni aniqlashda qanday metodlar qo'llaniladi?

10. Bolalardagi ijodiy qobiliyatlarni tashxis qilish yo'llari qaysilar?

II-BOB

SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI JARAYONIDA BOLALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

4-§. Sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishda ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar: *Ssenariy, mimika, etyud, ertak, hikoya, pyesa.*

Bugungi kunda ezgulik va hamdardlik hislariga e'tiborning kamligi bola shaxsi tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola tarbiyasida sahnalashtirish faoliyati uchun juda muhim bo'lib, u bolada ezgu hislar uyg'otadi va yaxshilik urug'larini shakllantiradi. Tarbiyachi-pedagoglarga bolaning emotsional sohasiga murojaat qilish, «hiszlarni tarbiyalash» bilan shug'ullanish imkonini beradi. Sahnalashtirilgan faoliyat, san'atning amaliy turi sifatida, ham tarbiya, ham ta'lim uchun katta imkoniyatlarga ega va shaxsni tarbiyalash imkonini yaratadi. Aynan u bolaning barcha qobiliyatlarini rivojlantiradi, ya'ni aqlan, jismonan va eng muhimi, emotsional jihatdan rivojlanadi. Pedagoglar sahnalashtirilgan faoliyatni imkon qadar erta, kichik guruhdan boshlab tashkil etishlari lozim, shunda tayyorlov guruhiga kelib kutilgan natijaga erishiladi.

Sahnalashtirilgan faoliyatda bolalarning ijodiy faolligini ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiradigan ishlar tashkiliy, amaliy va yakunlovchi bosqichni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy bosqichda:

- mavzuga oid metodik adabiyotlar o'rganiladi;
- bolalar bilan teatr haqida suhbat o'tkaziladi;
- «Ijodkor bola o'zida qaysi fazilatlarini rivojlantiradi?» mavzusida ota-onalar bilan so'rov o'tkaziladi;
- bolalarni teatrlashtirilgan faoliyatga jalb qilish bo'yicha rejalar tahlil qilinadi;
- «Sahnalashtirilgan faoliyat nutq ifodaliligi vositasi» mavzusida ota-onalar bilan hamkorlikda maslahatlar olib boriladi;

— bolalar va ota-onalarning xalq ertaklari bo'yicha ishlangan rasmlar «Ertak huzurida mehmonda» mavzusida ko'rgazma tashkil etiladi.

Amaliy bosqichda quyidagilar amalga oshiriladi:

— xalq ertaklari aks ettirilgan audioyozuvlarni tinglash, videomaterialarni tomosha qilish;

— «sehrli tovushlar» o'yini;

— mustaqil ijodiy o'yinlar;

— ertak namoyish qilish uchun qo'g'irchoq teatri jihozlarini tayyorlash;

— «Sholg'om», «Bo'g'irsoq» ertaklarini kichik va o'rta yosh guruhida ota-onalar va bolalar hamkorligida namoyish qilish.

Ishning yakunlovchi bosqichi:

- bolalar ijodiy qobiliyatini aniqlash;
- ota-onalar yordamida rivojlantiruvchi muhitni boyitish;
- ma'ruza shaklida qilingan ish natijalari haqida hisobot qilish.

5-§. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyati jarayoni natijasida bolalarda (badiiy nutq, musiqali o'yin, raqs) tasavvur va xayol shakllanadi va rivojlanadi.

Sahnalashtirish va ijodiy faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish va tashkil etish vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda tashkilot musiqi rahbari (rejissor) va tarbiyachi hamkorligining to'g'ri tashkil etilishi muhimdir. Musiqi rahbari nafaqat bayram tadbirlari yoki sahnalashtirish mashg'ulotlarini tashkil etadi, balki tarbiyachi-pedagoglarga bu borada uslubiy yordam beradi va tuzatishlar kiritib boradi.

Musiqi rahbari (rejissor) tarbiyachilarga sahnalashtirish faoliyatidagi an'anaviylikdan ko'ra yangi qiziqarliroq yondashuvlarni ko'rsatishi va tadbirlarga faol sahna o'yinlarini qo'shishi kerak bo'ladi. Rejissyor o'zi ifodali o'qishni, hikoya qilishni, eshitishni bilishi, turli obrazga kirishishga tayyor turishi va aktyorlik mahoratini mukammal egallagan bo'lishi kerak.

MTTda sahnalashtirish hududini loyihalashtirish.

Kichik guruh bolalari uchun eng sodda ularga mos keladigan stolda qo'g'irchoqlar teatri burchagini jihozlash maqsadga muvofiq. O'rta guruh bolalariga teatr pardasini jihozlash mumkin. Bolalarda qo'g'irchoqni boshqarishga o'rgatishdan oldin, ularga asosi yog'och qoshiqdan iborat o'yinchoqlar o'ynatishga imkon yaratiladi.

Katta guruhda bolalar iplar yordamida harakatga keladigan qo'g'irchoqlar bilan tanishadi.

Tayyorlov guruhda esa bolalar tayoqqa va polga o'rnatiladigan qo'g'irchoqlar bilan tanishadi.

Sahnalashtirish mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilishda uslubiy tavsiyalar:

1. Bolalarning taklif va savollarini diqqat bilan eshitish;
2. Bolalarning savollari tugagan yoki ko'rsatib berishni so'ramayotgan bo'lsa keyingi bosqichga o'tish;
3. Ertak qahramonlari bilan tanishtirib borish bilan birga bolalarga qo'g'irchoqni ushlab ko'rishlariga imkon berish;
4. Bolalardan ertakdagi qaysi qahramon obrazi yoqqani so'raladi;
5. Bolalarda ertakka nisbatan qiziqish va quvonch hissini uyg'otish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan sahnalashtirish jarayonida amal qilinadigan qoidalar.

Sahnalashtirish faoliyatiga tayyorgarlik jarayonida bir necha qoidalariga amal qilish tavsiya etiladi.

1. Bolalarga ortiqcha vazifa yuklamaslik;
2. O'z fikrini bolalarga o'tkazishga harakat qilmaslik;
3. Bolalarning boshqa bolalar faoliyatiga xalaqit qilishlariga yo'l qo'ymaslik;
4. Rollarni faqat qobiliyatli bolalar o'rtasida taqsimlamay, barcha bolalarga o'zlarini turli rollarda sinab ko'rishlariga imkon berish.

Sahnalashtirish faoliyati jarayoniga yetarli darajada faol bo'lmagan bolalarni ham jalb etish ulardagi uyatchanlik va tortinchoqlikni yengib o'tishlariga yordam beradi.

Sahnalashtirish uchun tanlanayotgan asar (ertak, hikoya, she'r) bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi va ularning hayotiy tajribasini boyitishi, yangi bilimlarga qiziqish uyg'otishi va ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berishi lozim.

Sahnalashtirish faoliyatini to'g'ri tashkil etishda vaqt davomiyligiga amal qilish muhim rol o'ynaydi.

Mashg'ulot davomiyligi:

- Kichik guruh 15-20 daqiqa
- O'rta guruh 20-25 daqiqa
- Katta guruh 25-30 daqiqa
- Tayyorlov guruh 25-30 daqiqa

Yakka tartibdagi mashg'ulot yoki umumiy guruh tayyorgarligi haftada bir marta 40 daqiqa davom etadi.

Sahnalashtirilgan o'yinlarda qatnashuvchi bolalar soni 12 yoki 16 nafardan oshmasligi kerak.

Sahnalashtirilgan o'yinlar haftada ikki marta ertalab va kechki paytda tashkil etiladi. Mashg'ulot keng, yorug', havo yaxshi aylanib turadigan xonada, yumshoq gilam, musiqa asboblari va audiotexnikalar bilan jihozlangan sharoitda olib boriladi. Bolalar yengil, qulay sport kiyimida va yumshoq oyoq kiyimida bo'lishlari lozim. Birinchi sahnalashtirish o'yinlarini bolalarni jalb etgan holda tarbiyachining o'zi o'tkazadi. Keyinchalik mashg'ulotlarda uncha katta bo'lmagan mashq va o'yinlar qo'llaniladi, ularda pedagog sheriklik qiladi va bolaga o'yinni tashkillashtirishda tashabbus ko'rsatishni taklif etadi. Faqatgina katta guruhlarda pedagog ba'zida o'yin ishtirokchisi bo'lishi va bolalarni sujet tanlashda va uni o'ynashda mustaqil bo'lishga undashi mumkin.

N.F.Sorokinaning tavsiyasiga ko'ra mashg'ulotlarni har kuni o'tkazgan ma'qul, kichik guruhdan boshlab haftasiga 2 marta 3 tadan mashq (2 ta ertalab, 1 ta kechqurun), haftaning qolgan kunlari esa — ertalab 1 va kechki payt bir marotaba 15 daqiqadan o'tkazgan ma'qul.

II-BOB BO'YICHA XULOSA

1. Bolalarni teatr san'ati vositalari bilan axloqiy-estetik tarbiyalash, ularni axborot qabul qilish, tushunish va harakatlarni izohlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi ifodali til bilan tanishishga ko'maklashadi.

2. Sahnalashtirilgan faoliyat bilan shug'ullanish bolalarga nafaqat ertaklar vositasida atrof-olamni o'rganish va bilish, balki u bilan uyg'unlikda yashash, turli faoliyat shakllaridan zavq olish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan teatrlashtirilgan faoliyatni amalga oshirish uchun predmet- miakonni tashkil qilish katta ahamiyatga ega.

3. Sahnalashtirilgan faoliyatda bolalarning ijodiy faolligini oshirish bo'yicha ishlarning zarur shakllari belgilangan bo'lib, ular uchta: tashkiliy, amaliy va yakunlovchi bosqichni o'z ichiga oladi.

4. MTTda sahnalashtirish va ijodiy faoliyat mashg'ulotlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va tashkil etish vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda tashkilot musiqa rahbari (rejissor) va tarbiyachi hamkorligi to'g'ri tashkil etilishi muhimdir. MTT musiqa rahbari nafaqat bayram tadbirlari yoki sahnalashtirish mashg'ulotlarini tashkil etadi, balki tarbiyachi-pedagoglarga bu borada uslubiy yordam beradi.

5. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini o'tkazish vaqti belgilanmagan, ushbu faoliyatni pedagogik jarayon mazmunidan kelib chiqib tashkil etiladi. Boshqa mashg'ulotlarga chegaralangan tartibda qo'shilishi (musiqa, tasviriy sa'nat va h.k.) mumkin, shuningdek haftalik mashg'ulotlar jadvalining ona tili va atrofdagi olam bilan tanishish mashg'ulotlarida maxsus rejalashtirish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Sahnalashtirilgan faoliyatda bolalarning ijodiy faolligini oshirish bo'yicha ishlar nechta bosqichda amalga oshiriladi?

2. Sahnalashtirilgan faoliyatda bolalarning ijodiy faolligini oshirish bo'yicha tashkiliy bosqichda amalga oshiriladigan ishlar nimalardan iborat?

3. Teatrlashtirilgan faoliyatda bolalarning ijodiy faolligini oshirish bo'yicha ishning yakunlovchi bosqichida amalga oshiriladigan ishlar qaysilar?

4. MTTda sahnalashtirish faoliyati mashg'ulotlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va tashkil etish vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda tashkilotning qaysi xodimlari hamkorligi muhim hisoblanadi?

5. MTT turli yosh guruhida sahnalashtirish hududini loyihalashtirishda nimalarga e'tibor qaratiladi?

6. Sahnalashtirish mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilishga oid qanday uslubiy tavsiyalar mavjud?

7. MTTda turli yosh guruhlarida sahnalashtirish mashg'ulotlarining davomiyligi qancha?

8. Yakka tartibdagi yoki umumiy guruh tayyorgarlik mashg'ulotlari haftada necha marta tashkil etiladi?

III-BOB

SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI JARAYONIDA BOLALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING METODLARI.

6-§. Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi, tarixiy ildizlari va tarbiyaviy ahamiyati

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar: *chodir jamol, chodir xayol, fonus xayol, niqob, korfarmon, arusak, lubat.*

Teatr pedagogikasi o'zining rivojlanib borishi davomida ma'lum tarbiyaviy ta'sir vositalariga ega bo'lgan. Miloddan avvalgi VI – milodiy IV-V asrlarda Qadimgi Yunoniston (Gretsiya), Qadimgi Rim va Yaqin Sharqda yuzaga kelgan antik teatr Yevropa teatr san'atining tug'ilishiga olib kelgan. Uning ijodiy ko'rinishlari (qo'shiq aytish, o'yin raqs), musiqa, she'riyatdan iborat bo'lgan.

Qadimgi Yunonistonda madaniy meros bilan tanishtirish, qonunlarga nisbatan hurmatni tarbiyalash maqsadida bolalar teatrga jalb etilgan (bolalar xori).

Ba'zi teatr tizimlari esa notiqlik, raqs va qo'shiq aytishga asoslanib, ularda o'yin tamoyili birinchi o'ringa chiqarilgan.

Teatr niqobi o'yin namoyishlarining ifodali vositasi hisoblangan. Niqob insonning emotsional holati, hissiyotlari, kayfiyati va olamga bo'lgan munosabatini ifodalashga ko'maklashgan. Fransuz filosofi Rene Jan-Mari-Jozef Genon o'z tadqiqotlarida niqobning chuqur imkoniyatlarini yoritib bergan: «Karnavalda har bir qatnashchi ongsiz ravishda bo'lsa-da, o'zining mayliga ko'proq mos keladigan niqobni tanlaydi. Indivdning yuzini yashirishga mo'ljallangan niqob aslida u yashirishga majbur bo'lgan ichki dunyosini yaqqol namoyon etadi». Teatrga jalb etilgan bolalarda axloq, yaxshilik va o'rab turgan olamga insonparvarlik bilan yondashish xislatlari tarbiyalangan. Teatrlashtirilgan harakatlarda niqobdan foydalangan holda, bola emotsional bosim, xayolparishonlik, uyatchanlikni yashirishi mumkin edi. Bu esa unga uzoq vaqt yashirin bo'lgan, namoyish etilishi «ta'qiqlangan»

hissiyotlari va kayfiyati bilan tutashib, ularning axloqiy mazmunini tushunish imkonini bergan.

Antik davr pedagogikasida teatr san'atining rolini tahlil etish natijasida olingan xulosaga ko'ra, asosiy maqsad – adabiyot, musiqa va teatr vositalari orqali bolalarni estetik tarbiyalashdir. Aristotel taklif etgan boshlang'ich ta'lim tizimida tasviriy san'at, musiqa, gimnastika, teatr darslari o'rin olgan. Aflotunning epos, musiqa va sahna san'atining tarbiyaviy ahamiyati haqidagi ta'limoti ham teatr pedagogikasi shakllanishida katta o'rin egallaydi.

Xristianlik shakllanishi davrida san'at haqidagi quyidagi tasavvur ustunlik qilgan: «San'at diniy haqiqatlarni bilish va o'zlashtirishda yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi». Teatr va musiqa san'atining bola hissiyotlariga axloqiy ta'siri sabab unda emotsional ko'ngilchanlik shakllangan.

Xudoga sig'inish, uni ilohiylashtirish, «odamlashtirish», ritual harakatlarning o'tkazilishi ifodalilik vositasiga ehtiyoj tug'dirdi. Natijada qo'g'irchoqlar teatrga ifodalilik vositasi sifatida kirib keldi.

Qo'g'irchoq teatri – teatr tomoshalarining turi bo'lib, o'rta asrlar davrida keng tarqalgan. Bunda qahramonning xarakteri, hissiyotlarini aks ettiradigan qo'g'irchoq, uning kostyumi, ko'rinishi, «jonlanishi»; dekoratsiyalar asosiy ifoda vositasi hisoblangan.

Sayoq aktyorlar, masxarabozlar, akrobatlar xalq pedagogik g'oyalarning tarqalishiga katta hissa qo'shgan. Ular badiiy taassurotlar va xalqona qarashlarni ifoda etuvchi bo'lib xizmat qilgan.

Uyg'onish davrida teatrning ijodkor insonni tarbiyalashdagi roliga yanada katta e'tibor qaratildi. Notiqlik san'ati, ijro mahorati, namoyish etilayotgan pyesalarning xilma-xil janrlarda ekani tomoshabinlarni lol qoldirgan. Teatrda to'laqonli ishtirokchi bo'lgan bolalar teatr uchun kostyum, dekoratsiyalar, o'tkazilish joyi va sahna san'atining boshqa vositalarini tayyorlashda faol qatnashganlar.

Ma'rifat asri (XVII—XVIII asrlar)da ayniqsa, Rossiyada uy teatrlari keng tarqaladi. Qishloq va hovli-joylardagi uy teatrlarida dehqonlarning bolalari o'ziga xos aktyor sifatida ishtirok etardi. Taxmin qilish mumkinki, jamiyatning oliy qatlamlariga mansub tomoshabinlar auditoriyasi o'zi estetik zavq olgan holda bolalar qalbini tushunmagan bo'lishlari mumkin, ularning sahnadagi nutqiga bola

tushunchasiga xos bo'lmagan murakkab jumlar, qiyin monologlar qo'shilgani ham haqiqatdan yiroq emas.

Lekin oila tarbiyasini o'rganishda uy teatrining ahamiyatini hisobga olmay bo'lmaydi. Taniqli rus ma'rifatchisi va pedagogi, uy teatri asoschisi A.T.Bolotovning fikricha, «spektaklga tayyorgarlik davrida oila a'zolari tomonidan ko'rsatiladigan madad bola tarbiyasida alohida ijobiy rol o'ynashi mumkin».

XVI—XVII asrlarda uy teatrlari qatori maktab teatrlari ham ommalashib bordi. XVIII asrda Rossiya maktablarini qurshab olgan pessimizm, yomon kayfiyat va o'z joniga qasd qilish kabi holatlardan saqlash maqsadida o'qituvchilar diniy mavzudagi teatr tomoshalarini qo'llab-quvvatlagan.

Shu bilan bir qatorda XIX—XX asrlarda pedagogika sohasida teatrga axloqiy va badiiy-estetik tarbiya'ning asosiy elementi sifatida qarash shakllanadi. N.A.Berdyayev, V.M.Solovyov kabi ijodning psixologik asoslarini tadqiq etgan, ijodkor shaxsning shakllanishi muammolarini o'rgangan mutafakkirlarning falsafiy asarlari teatr pedagogikasining shakllanishiga turtki bo'ldi.

Rus shoiri, adabiyotshunos, teatr pedagogi Nikolay Nikolayevich Baxtin bolalarda «dramatik instinkt» mavjudligini e'tirof etdi. Bu esa teatr san'atining muhimligini yana bir bor eslatdi. Baxtin bolalardagi ushbu «instinkt»ni rivojlantirib borishni tavsiya etdi. U oilada ulg'ayayotgan bolalarga qo'g'irchoq teatri, komik teatr, soya teatrining mos kelishini va ularda ertak, tarixiy, etnografik va maishiy mazmundagi pyesalarni qo'yish mumkinligini ta'kidlab o'tgan. Uning fikricha, teatrdan o'ynash 12 yoshgacha bo'lgan bolaning bo'sh vaqtini foydali o'tishiga xizmat qiladi.

Kattalarning to'g'ri boshqaruvi ostida bolaning dramatik o'yinga bo'lgan qiziqishi uning rivojlanishi uchun ulkan naf keltirishi mumkin. Rus teatr pedagogikasida, XX asr 20-yillariga to'g'ri keluvchi bola mustaqilligi muammosi «pedagogik romantizm davri»da ko'p muhokama qilingan. Bu davrda maktab-kommunal amalda bo'lib, ta'lim berishning yangi uslublari, jumladan A.S.Makarenko, V.N.Soroki, Rosinskiy, S.T.Shatskiylarning kollektiv tarbiya uslublari qo'llanilar edi.

Zamonaviy bola tashabbuskorligining ildizi rus inqiloboldi va chet el islohotchilik pedagogikasiga, 1920-yillarning pedagoglari yaratgan nazariy asosga borib taqaladi. 1920-yillar maktab dasturiy hujjatida quyidagicha yozilgan edi: «Agar umuman o'yin, jumladan dramatik o'yin bola hayotida shunchalik katta o'rin egallasa, boshqa ko'rinishda ifodalanish bola tabiatining asosiy xislatlaridan bo'lsa, u holda shunisi aniqki, maktab va tarbiya bu xislatni na chetlab o'ta oladi, na bu xislatga tegishli biron narsani hayotdan va dasturdan o'chira oladi. Aksincha, bolaning dramatik instinktidan pedagogik maqsadda foydalanish, maktabda bolalarning dramatik ijodiga lozim darajada o'rin ajratish psixologiyaga asoslangan pedagogikaning vazifasidir».

1930-1940-yillarda nashriyotda teatr muammosini muhokama etish anchayin susaydi. Bu – qatag'on yillari va Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq.

Zamonaviy bosqichda bolalar bilan teatrlashtirilgan faoliyatga bo'lgan qiziqish ortgan. Voqelikka bo'lgan faol ijodiy munosabat, insonga va insonparvarlikka yo'naltirilgan pedagogik dasturlar va texnologiyalar hozirda ilg'or g'oyalar deb hisoblanmoqda. Rossiyalik pedagog-psixolog, teatr pedagogi Vyachislav Mixaylovich Bukatov, Rossiyalik pedagog A.P.Yershova va boshqalar san'at yordamidagi estetik tarbiyaga didni, hissiyotni rivojlantiruvchi, tabiat, borliq va o'z-o'ziga munosabatni shakllantiruvchi jarayondek baho berib, uning qimmatligini alohida ta'kidlaydilar.

Hozirda bolalarning teatr san'atida ishtirok etishi tajribasi quyidagi mustaqil yo'nalishlarda keltirilgan:

- professional san'at;
- bolalar teatr pedagogikasi bo'yicha yig'ilgan nazariy va empirik bilimlarni «bolalar teatr pedagogikasi» degan maxsus fanga aylantirish va OTMlar dasturiga kiritish ehtiyoji tug'ilmoqda;
- oilaviy teatr (teatrlashtirilgan bayramlar, gurunglar, badiiy sahnalar va b.);
- teatr o'quv fani sifatida (teatr va teatrlashtirish elementlarini fanlarning tarkibiy qismi sifatida o'quv rejalariga qo'shish, negaki bu teatr san'ati g'oyalarini amalga oshirish va bolalarning ijodi, ijtimoiy layoqatini rivojlantirish maqsadida aktyorlik treningini qo'llash imkonini beradi);

-teatr pedagogikasi (pedagoglarni professional tayyorlash va qayta tayyorlash talab etiladi, bu esa doimiy bir xil dars ko'rinishini o'zgartirishga yordam beradi).

Zamonaviy pedagogikada adaptatsion va kommunikativ vazifalarni hal etish uchun teatrdan ko'p foydalanilmog'da. Bolalar teatr jamoasi esa bola shaxsini rivojlantiruvchi muhit sifatida, ta'lim, tarbiya va psixologik korreksiya vositasi sifatida ko'rilmog'da.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatri vositasidan samarali foydalanish – bolalarning iqtidori, obyektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan yanada ahamiyatlidir.

Ma'lumki, mamlakatimizda teatrning deyarli hamma turlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Jajji kichkintoylarning sevimli teatri, bu qo'g'irchoq teatridir.

Dunyo qo'g'irchoq teatrlarining bolalarning axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirishdagi tarbiyaviy xususiyati turli usullar va vositalar yordamida amalga oshiriladi. Shu jihatdan olib qaralganda, qo'g'irchoq teatri estetik tuyg'ularni, bolalarning qiziquvchanligi va tasavvurini rivojlantirish uchun juda qulay vosita hisoblanadi.

Har bir qo'g'irchoq teatri o'ziga xos va mos milliy xarakterga ega. Dunyo sivilizatsiyasi tarixida barkamol insonni tarbiyalash vositasi sifatida quyidagi qo'g'irchoq teatlari tashkil etilgan:

O'zbek tilida «o'yin» so'ziday ma'nosi ko'p so'z bo'lmasa kerak. Artistning mahorati, harakati, texnikasi bilan sahnaviy tomosha shaklida yuzaga keladigan masxarabozlik, raqs, dorbozlik, ayiq ilon o'ynatish, yog'och oyoq tomoshalari kabi xalq teatrining barcha ko'rinishlari bir so'z bilan «o'yin» deb, mazkur san'atlarning namoyondalari esa "o'yinchi" deb yuritilgan

Zamonaviy bola tashabbuskorligining ildizi rus inqiloboldi va chet el islohotchilik pedagogikasiga, 1920-yillarning pedagoglari yaratgan nazariy asosga borib taqaladi. 1920-yillar maktab dasturiy hujjatida quyidagicha yozilgan edi: «Agar umuman o'yin, jumladan dramatik o'yin bola hayotida shunchalik katta o'rin egallasa, boshqa ko'rinishda ifodalanish bola tabiatining asosiy xislatlaridan bo'lsa, u holda shunisi aniqki, maktab va tarbiya bu xislatni na chetlab o'ta oladi, na bu xislatga tegishli biron narsani hayotdan va dasturdan o'chira oladi. Aksincha, bolaning dramatik instinktidan pedagogik maqsadda foydalanish, maktabda bolalarning dramatik ijodiga lozim darajada o'rin ajratish psixologiyaga asoslangan pedagogikaning vazifasidir».

1930-1940-yillarda nashriyotda teatr muammosini muhokama etish anchayin susaydi. Bu – qatag'on yillari va Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq.

Zamonaviy bosqichda bolalar bilan teatrlashtirilgan faoliyatga bo'lgan qiziqish ortgan. Voqelikka bo'lgan faol ijodiy munosabat, insonga va insonparvarlikka yo'naltirilgan pedagogik dasturlar va texnologiyalar hozirda ilg'or g'oyalar deb hisoblanmoqda. Rossiyalik pedagog-psixolog, teatr pedagogi Vyachislav Mixaylovich Bukatov, Rossiyalik pedagog A.P.Yershova va boshqalar san'at yordamidagi estetik tarbiyaga didni, hissiyotni rivojlantiruvchi, tabiat, borliq va o'z-o'ziga munosabatni shakllantiruvchi jarayondek baho berib, uning qimmatligini alohida ta'kidlaydilar.

Hozirda bolalarning teatr san'atida ishtirok etishi tajribasi quyidagi mustaqil yo'nalishlarda keltirilgan:

- professional san'at;
- bolalar teatr pedagogikasi bo'yicha yig'ilgan nazariy va empirik bilimlarni «bolalar teatr pedagogikasi» degan maxsus fanga aylantirish va OTMlar dasturiga kiritish ehtiyoji tug'ilmoqda;
- oilaviy teatr (teatrlashtirilgan bayramlar, gurunglar, badiiy sahnalar va b.);
- teatr o'quv fani sifatida (teatr va teatrlashtirish elementlarini fanlarning tarkibiy qismi sifatida o'quv rejalariga qo'shish, negaki bu teatr san'ati g'oyalarini amalga oshirish va bolalarning ijodi, ijtimoiy layoqatini rivojlantirish maqsadida aktyorlik treningini qo'llash imkonini beradi);

- teatr pedagogikasi (pedagoglarni professional tayyorlash va qayta tayyorlash talab etiladi, bu esa doimiy bir xil dars ko'rinishini o'zgartirishga yordam beradi).

Zamonaviy pedagogikada adaptatsion va kommunikativ vazifalarni hal etish uchun teatrdan ko'p foydalanilmoqda. Bolalar teatr jamoasi esa bola shaxsini rivojlantiruvchi muhit sifatida, ta'lim, tarbiya va psixologik korreksiya vositasi sifatida ko'rilmogda.


Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatri vositasidan samarali foydalanish – bolalarning iqtidori, obyektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan yanada ahamiyatlidir.

Ma'lumki, mamlakatimizda teatrning deyarli hamma turlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Jajji kichkintoylarning sevimli teatri, bu qo'g'irchoq teatridir.

Dunyo qo'g'irchoq teatrlarining bolalarning axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirishdagi tarbiyaviy xususiyati turli usullar va vositalar yordamida amalga oshiriladi. Shu jihatdan olib qaralganda, qo'g'irchoq teatri estetik tuyg'ularni, bolalarning qiziquvchanligi va tasavvurini rivojlantirish uchun juda qulay vosita hisoblanadi.

Har bir qo'g'irchoq teatri o'ziga xos va mos milliy xarakterga ega. Dunyo sivilizatsiyasi tarixida barkamol insonni tarbiyalash vositasi sifatida quyidagi qo'g'irchoq teatrlari tashkil etilgan:

O'zbek tilida «o'yin» so'ziday ma'nosi ko'p so'z bo'lmasa kerak. Artistning mahorati, harakati, texnikasi bilan sahnaviy tomosha shaklida yuzaga keladigan masxarabozlik, raqs, dorbozlik, ayiq ilon o'ynatish, yog'och oyoq tomoshalari kabi xalq teatrining barcha ko'rinishlari bir so'z bilan «o'yin» deb, mazkur san'atlarning namoyondalari esa «o'yinchi» deb yuritilgan



Shuningdek, professional qo'g'irchoq teatri ham «qo'g'irchoq o'yin» deb, qo'g'irchoqboz «o'yinchi» deb atalgan. Bunda «o'yin» so'zi iste'dod bilan amalga oshirilgan tomosha, san'at, ijrochilik ma'nosini beradi.

Qo'g'irchoq o'yin bilan masxarabozlik o'rtasida ko'pgina umumiylik bor. Masxarabozlar o'z tomoshalarida niqob ishlatganlarida go'yo qo'g'irchoqqa aylanadilar, chunki goh qotib, goh jonlanib turuvchi sahnaviy qo'g'irchoqlar vositalarini ishga solishga majbur bo'lishgan.

Shu o'rinda mashhur rus qo'g'irchoqbozi Y.V.Speranskiyning quyidagi so'zlarini eslab o'tish joizdir: «Oddiygina karnaval niqobini kiygan odam, yarim qo'g'irchoq deganday gap. Agar buning ustiga u aktyor bo'lsa, qo'g'irchoqbozga aylanadi, chunki u jonsiz niqobni jonlantirishga harakat qilar ekan «qo'g'irchoq» usuli bilan yaxshiroq o'ynaydi».

Masxarabozlar niqobsiz o'ynagan paytlarida ham qo'g'irchoq teatriga yaqin turganlar. Kelib chiqishi, mehnat va turmush sharoiti, ustashgird munosabatlari, jamiyatda tutgan o'rni, vazifa muddaolari bilan ham masxarabozlar va qo'g'irchoqbozlar qondosh, hamkor-u hamdast bo'lishgan. Shu sababdan osongina masxaraboz qo'g'irchoqbozga karfarmonlik qilib, qo'g'irchoqboz masxarabozlarning tomoshalariga aralashib ketaverganlar.

Ammo, bu bilan biz masxarabozlar teatri bilan qo'g'irchoqbozlar teatrlari bir san'at demoqchi emasmiz. Ular o'rtasida zikr qilingan yaqinlik bilan bir qatorda jiddiy spetsifik ayirmalar borligini unutmaslik kerak.

Qo'g'irchoq teatri xususiyatini belgilovchi asosiy farq shundan iboratki, agar boshqa qahramonlar qiyofasida aktyorlarning o'zlari ko'rinsa, bunda ijrochilar tomoshabinlarga pinhona qolgani holda qo'g'irchoq-qahramonlar namoyon bo'ladi. Bu olamda qo'g'irchoqbozday kamtarin, insofli, odamshavanda artist bo'lmasa kerak.

Zotan u o'z qaddi-qomati, aktyorlik mahoratini bevosita namoyish etishdan mahrum. Butun qobiliyati, bilimi, hatto hissini latofatli qo'g'irchoqqa bag'ishlaydi. Ana olijanoblik!

Lekin shu narsani ham qayd qilib o'tish lozimki, qo'g'irchoqboz bir tomondan o'zligini to'la ko'rsatolmay jabrlansa, ikkinchi tomondan dramatik aktyorga nisbatan bir qancha afzallik va imtiyozlarga egadir. Chunonchi, qo'g'irchoq teatri uchun bo'y, qaddi-qomad, yosh, jismoniy kamchilikning ahamiyati bo'lmagani sababli bunda qobiliyati to'g'ri kelsa, yoshi o'tgan aktrisa qizcha rolini zavq bilan o'ynayveradi. Oriq

ijrochi semiz qo'g'irchoq personajni, pakana-alp qomatni, qiz-cholni, bola-kampirni bimalol olib chiqaveradi.

Qo'g'irchoq teatrining sharti shu: xohlagan rolingni o'ynayver, iste'doding, mahorating, ijodiy harorating va shavqing bo'lsa bas. Ikkitagina qo'g'irchoqboz muvaffaqiyat bilan ko'p personajli katta bir spektaklni namoyish qilishi mumkin.

Darhaqiqat, qo'g'irchoq teatri ajoyib va g'aroyib, ta'sirli san'at. Uning jozibadorligi, tomoshaviyligi va qandaydir sodda go'zalligi «mo'jizali» tabiatga ega bo'lishidadir. Ha, qo'g'irchoqbozlik-mo'jizali san'at turi. Jonsiz zabonsiz oddiy qo'g'irchoqlar vositasida inson hayoti, boshqalarga munosabati, axloqi, badiiy haqqoniy va jozibali qilib namoyish etilishi mo'jiza emasmi, axir! Qo'g'irchoqboz – mo'jizakor. U qo'g'irchoqlarni harakatga keltirib, ularga hayot bag'ishlab, odamlarga qanchadan-qancha ma'naviy oziq va kuch in'om etadi. Boshqa paytda oddiy bolalar o'yinchog'idan kam farq qiladigan qo'g'irchoq qo'g'irchoqboz qo'liga tushgach, jonlanadi, aql paydo qiladi, rosmansi jismaniy hayot bilan yashay boshlaydi: kuladi, yig'laydi, iztirob chekadi, urishadi, o'ynaydi, kuylaydi. Mana shu mitti artistlar hayot va inson jumboqlari ustida bosh qotiradilar. Sevgi va sadoqat, do'stlik va muruvvat, rostgo'ylik va halollik haqida hikoya qiladi. Ko'z oldingizda ana shu zayl mo'jiza sodir bo'ladi.

U sizni sehirleydi siz rostakam odamlar harakat qilayotganday tomoshaga berilib ketasiz, voqeaga ishonasiz, hayratlanasiz, lol bo'lasiz. Ammo bu –g'ayritabiiy bir kuch hosil qilgan karomat emas, qo'g'irchoqboz mahorati, iste'dod mahsuli, san'at sehidridir.

Qo'g'irchoqbozlar el-yurtga ozor bergan, g'am kulfat keltirgan zamon zo'raonlarini tanqid qilish hamda turmushdagi ayrim qoloqliklar, egriliklar ustidan kulish bilan xalq uchun zarur bo'lgan katta ijtimoiy va estetik vazifani bajarib kelganlar.

Ammo ularning muddaosi qanchalik ulug' va sof bo'lmasin ulamolar qo'g'irchoq teatrini «shayton o'yin», qo'g'irchoqbozni «Alloh ishiga qo'l urgan shakkok va diyonatsiz», degan uydirma gaplarni tarqatib kelgan. O'tmishda olimlarimizning qo'g'irchoq teatriga yetarli e'tibor bermaganliklarining boisi ham shundadir. Qo'g'irchoqchilar san'ati ilk bor O'rta Osiyo xalqlari tarixi va etnografiyasi bilan qizg'in shug'ullangan rus olimlarining diqqatini o'ziga tortdi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr birinchi yarmida rus etnograflari

N.P.Ostroumov va N.S.Likoshin ma'lumotlari qimmatli bo'lib, ular o'zbek qo'g'irchoq teatrining «Chodir jamol» va «Chodir xayol» degan ikki turdan iborat ekani haqida yozadilar.¹³

Ammo rus etnograf olimlari N.P.Ostroumov va N.S.Likoshinlar ham qo'g'irchoq teatri bilan mashg'ul bo'lmaganlar.

O'zbek qo'g'irchoq teatri bilan maxsus shug'ullangan kishi bu rus havaskor etnografi Pyotr Aleksandrovich Komarovdir. Shu sababdan, biz uni shu san'atning birinchi tadqiqotchisi deb atasak bo'ladi. Ammo 1906-1909-yillarda qo'g'irchoq teatrini o'rganish va sahnaviy qo'g'irchoqlar Kolleksiyasini to'plash ishida fidoyilik ko'rsatgan bu ajoyib insonning xizmatlari ko'p vaqt tegishli baho olmasdan keldi. P.A.Komarov xizmatlarini aniqlash maqsadida uning Leningraddagi (Sankt-Peterburg) etnografiya muzeyida saqlanayotgan qo'g'irchoqlar kolleksiyalari, shuningdek, rus imperator muzeyi etnografiya bo'limining bosh xizmatchisi Konstantin Aleksandrovich Inostransev bilan olib borgan yozishmalari batafsil o'rganib chiqildi.

Ma'lum bo'lishicha Komarov Toshkentda tug'ilgan. Chimkent uyezdining shimoli-sharqiy uchastkasida sug'orish ishlari mudiri vazifasida ishlagan.

Bo'sh vaqtlarida o'zbek xalq san'atini o'rganishga kirishgan va bu qiziqish uni O'rta Osiyo xalqlari etnografiyasining yirik vakili Abubakr Axmedjanovich Divayev bilan yaqinlashuv va do'stlashuvga olib keldi.

Divayev Komarovning Leningrad etnografiya muzeyi bosh xizmatchisi K.A.Inostransev bilan ilmiy aloqasini yo'lga qo'yishiga yordam beradi. K.A.Inostransev muzey xazinachisi sifatida R.A.Komarovga sahnaviy qo'g'irchoqlar kolleksiyasini yig'ishni topshiradi. Komarovning Inostransevga yozgan xatlarida quyidagilarni o'qish mumkin:

«Qo'g'irchoq teatri hozirgi shaharlik tuzemlar hayotidan butunlay ketdi, uning nochor qoldiqlarini chet va xilvat joylardan qidirishga to'g'ri keladi. Uni o'rganishga o'n besh yilcha burun kirishmoq lozim edi. Menga notanish qo'g'irchoqbozlarning shubha, ishochsizligini bartaraf etish uchun tanish tuzemlarni taklif qilish va ularga ikki so'mdan besh so'mgacha haq to'lab turishga to'g'ri keladi. Men shu choqqacha bevosita ma'muriyat yordamiga murojaat qilmadim, aralashuv bilan butun ishning pachavasini chiqarish mumkin.

¹³ M. Qodirov, S.Qodirova. «Qo'g'irchoq teatri tarixi». «Talqin» Toshkent-2006. 35-bet

Bir so'z bilan material yig'ish tajribasi menga shu qadar ko'p turli-tuman to'siqlar bilan hisoblashish lozimligini ko'rsatdiki, Toshkentda tug'ilib o'sgan bo'lsam ham ularni uchrataman deb o'ylamagandim. Necha bor hafsalam pir bo'lib qo'lim ishga bormay qoldi» Ammo qiyinchiliklar Komarov irodasini bukmadi. Qunt va chidam bilan o'z ishini davom ettirdi va oldiga qo'yilgan vazifani sharaf bilan bajardi. Komarov o'zbek sahnaviy qo'g'irchoqlarining to'rt kolleksiyasini yig'ib, muzeyga jo'natishga muyassar bo'ldi:

1. Chimkent kichik qo'g'irchoq teatri. Chimkentda katta masjid mahallasida yashovchi qo'g'irchoqboz Saidazimxo'ja Islomxo'jayevdan sotib olgan. Kolleksiya 18 ta qo'g'irchoqdan iborat.

2. Sayram kichik qo'g'irchoq teatri. Sayramda yashovchi Tursunmuhammad Matkarimovdan sotib olingan. Kolleksiya 6 ta qo'g'irchoqdan iborat.

3. Toshkent kichik qo'g'irchoq teatri. Toshkentda Sebzor dahasining Xo'japaroshkon mahallasida yashovchi qo'g'irchoqboz Orifjon Otajanovdan sotib olingan. Kolleksiya 10 ta qo'g'irchoqdan tashkil topgan.

4. Toshkent katta qo'g'irchoq teatri. Bu kolleksiya ham Orifjon Otajanovdan sotib olingan bo'lib, 47 ta qo'g'irchoqdan iborat bo'lgan. Xullas, P.A.Komarov 37 ta qo'l qo'g'irchoq "Chodir jamol" va 47 ta "Chodir xayol" teatri qo'g'irchoqlarini sotib olgan, ya'ni 1906-1907-yillarda Toshkent shahri va Chimkent uyezdida harakatda bo'lgan qariyb barcha qo'g'irchoqlarni qo'lga kiritgan. Shu o'rinda P.A.Komarovning o'zbek qo'g'irchoq teatri qiyofasini avlodlarga saqlash yo'lida jon kuydirgani, fidokorlik qilganini alohida takidlash lozim.

Qo'g'irchoq teatri jahondagi ko'p xalqlarda qadim zamonlardan buyon qadrdon. Qo'g'irchoq teatrining muhim tarixiy xususiyatlaridan biri shuki, u Osiyo va Yevropada to XX asrgacha asosan an'anaviy shakllarda yashab kelgan. Turli mamlakatlar qo'g'irchoq teatrlari orasida juda ko'p umumiylik, o'xshashlik va yaqinlik ham shundan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Barcha tadqiqotchilar va amaliyotchilarni G'arbiy Yevropa, slavyanlar va Osiyo xalqlari qo'g'irchoq teatri qahramonlarining o'xshashligi qiziqtirib keladi. Agar italyanlarning Pulchinello, ruslarning Petrushka, turklarning Karago'z, forslarning Pahlavon Kachal va o'zbeklarning Polvon Kachalini yonma-yon qo'ysangiz, ular tashqi qiyofa jihatidan ham, xulq-atvor jihatidan ham

o'xshashliklaridan hayratga tushasiz. Qirra burun, katta og'iz, boshida uchiga qo'ngiroq osilgan qalpoq harakat va holatlardagi yaqqol shartlilik barchasi uchun xos.

Polvon Kachalning tashqi ko'rinishi, yuz ifodasi uning hamisha xushchaqchaq va sho'xligidan darak beradi.

Ular barcha xalqlarda o'zlarining ajabtovur sarguzashtlari, tadbirkorligi, quvnoqligi va o'tkir hazillari bilan shuhrat qozongan.

Mazkur qahramon Yevropaga Osiyodan o'tgan degan qarashlar mavjud. Darhaqiqat qo'g'irchoq tomoshasi Osiyoning mumtoz mamlakatlarida paydo bo'lib keyinchalik Eron va Italiya orqali Yevropaga tarqalgan. O'rta Osiyo jumladan O'zbekiston ham ko'prik vazifasini o'ynagan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Chunonchi o'zbeklarning Polvon Kachal komediyasi bilan ruslarning Petrushka tomoshalari o'rtasidagi bir qadar yaqinlik va umumiyliklar shunga ishora qiladi

O'zbek qo'g'irchoq teatrining vujudga kelishini olib qaraganimizda, bunda ikki manba muhim va hal qiluvchi rol bajarganini ko'ramiz. Birinchi manba O'zbekiston hududida yashagan qadimgi animistik e'tiqodga tayanuvchi xalqlarning marhumni eslash marosimi deb hisoblanadi. Mazkur marosimga ko'ra o'lgan kishining eng yaqin odami uning niqobini yasab kiyadi va marhum harakatlari, nutqi va muomalalarini tiklashga urinadi. Niqob bazan boshga kiyilmasdan qo'lga ushlanganicha harakatlantirilgan. Bunday paytda ijrochi ham marhum ham o'z rolini bajargan va o'ziga xos dialog hosil qilgan. Ushbu marosim o'zbek qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishiga zamin tayyorlagan.¹⁴

Qo'g'irchoqbozlarning risolasi ham fikrimizni quvvatlaganday:

"Qo'g'irchoq devlar va parilar podshosi Hazrati Sulaymon payg'ambarimizning vaqtida bo'lgandir. Ul kishining Hudhud degan qush elchilari bor edi, bir kun ul xabar berdi: «Men bir katta shaharni ko'rdim, lashkarlari ko'p, podshosining bir qizi bor ko'p xushro'y, ani olib kelsangiz ko'p ulug' ish bo'lur edi» dedi.

Anda hazrat Sulaymon ul podsho bilan urishib, lashkarlarini ham o'zini ham o'ldirib tugatdilar, qizini olib keldilar. Ul qizning oti Guna edi. Bir kun shayton kelib aytdi:

«Ey Guna otangni Sulaymon o'ldirdi, endi otangni suratini qildirib olgin, otangni ko'rgandek bo'lasan. Anda ul qiz Hazrati Sulaymonga

¹⁴ M. Qodirov, S. Qodirova. "Qo'g'irchoq teatri tarixi". "Talqin". Toshkent-2006. 61-bet.

«Otamni suratini qildirib bering» deb yalindi. Ul kishi suratchi top, qildirib beray dedilar. Anda Shayton darrov suratchi talqinida kelib, otasi, lashkarlari va sarkardalarining suratini qilib berdi, qachonki ul qiz otasini ko'rgusi kelsa, shayton kelib ul suratlarni ip bilan yurgizib o'ynatib berar erdi. Anda ul qiz otasini ko'rgandek bo'lar edi».

Risola qo'g'irchoq tomoshasining paydo bo'lishini Sulaymon davriga bog'laydi, ijodkori shayton deb ta'riflaydi. Bu albatta afsonadan boshqa gap emas. Risola islom aqidalarini va talablariga mos holda yozilgan sababli qo'g'irchoq o'ynatishining kelib chiqishi diniy ruhda talqin qilingan. Keltirilgan parchada bizni qiziqtirgan narsa shuki, qo'g'irchoq marhumni eslash uchun o'ylab topilgan degan fikrni o'ziga xos tarzda e'tirof etadi.

Zamonlar o'tishi bilan marhum qiyofasini gavdalantirish marosimi o'zining dastlabki vazifasi va mazmunidan uzoqlashdi. Niqoblar xalq orasidan yetishib chiqqan iste'dodli kishilar masxarabozlar qo'liga tushib, marosim oddiy tomoshaga aylandi.

V-VII asrlarda O'rta Osiyo xalqlari sahna san'ati jumladan qo'g'irchoq teatrida juda katta yutuqlarga erishgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etgan Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Toshkent kabi shaharlardan chiqqan san'atkorlar Buyuk ipak yo'lidagi karvonlarga qo'shilib ikki yo'nalishda sharq va g'arb yo'nalishida faoliyat ko'rsatgan. VII-VIII asrlarda O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo etilishi san'atning tushkunlikka yuz tutishiga olib keldi.

Har qanday tasvir (sur'at, haykal, qo'g'irchoq) ta'qiqlandi, tasviriy san'at va haykaltaroshlarning noyob asarlari bilan to'lib toshgan qasrlar, koshonalar yer bilan yakson qilindi. Natijada rassomchilik qo'lyozma kitoblar orasiga kirib ketadi, haykaltaroshlik o'yinchoq va tumorga aylanadi, niqobdorlar teatridagi qo'g'irchoqlar kichrayib masxaraboz qo'g'irchoqboz qo'liga o'tadi. Biroq buni xalqning aql zakovati, iste'dodi yengib chiqadi: san'at o'lmaydi u yangi tarixiy-ijtimoiy sharoitlarga moslashgan holda yashashni davom ettiradi. Boshqa san'atlar kabi qo'g'irchoq teatri ham yashash uchun kurashdi. Chunki ulamolar qo'g'irchoq o'yini «Shayton o'yini» deb, iloji boricha uni yo'q qilishni istaganlar. Ammo qo'g'irchoqbozlar ustalik qiladilar, kasbni qonunlashtiruvchi risola yozdirib olib, tomosha ko'rsatish huquqiga ega bo'ladilar.

IX-XII asrlarda qo'g'irchoq teatri nisbatan mo'tadil rivojlanib, san'atning boshqa turlari qatoridan mustahkam o'rin egallaydi.

Ammo XIII asrda mo'g'ullar istilosi, boshqa sohalarda bo'lgani kabi, qo'g'irchoq teatri taraqqiyotiga ham kuchli zarba bo'lib tushdi. Bu paytda teatr g'oyaviy badiiy tushkunlikka uchragan. Lekin XIV asr boshidan keskin jonlanish yuz bergan. Undagi mifologik sujetlar va afsonaviy qahramonlar o'rmini hayotiy voqealar va konkret shaxslar qiyofasi egallay borgan. Shu tarzda qo'g'irchoq teatri fosh etuvchi satirik qiyofaga kira boshlagan. Bu davrda «Chodir jamol» va «Fonus xayol» deb ataluvchi, qo'g'irchoq yasash va uni o'ynatishda, shuningdek tomosha mazmuniga ko'ra bir-biridan keskin farq qiluvchi tur keng taniladi. Ammo keyingi asrlarda ijtimoiy hayot taqozosi ostida qo'g'irchoq teatri va uning turlarida keskin o'zgarishlar yuz beradi. Hayotiy voqelik asosida yaratilgan asarlar ya'ni «Chodir jamol» va «Chodir xayol» qo'g'irchoq teatrlari mofologik va epik repertuarlarni «Fonus xayol» teatrlarini siqib chiqara boshlaydi. Tomosha texnikasining og'irligi va ko'proq saroy muhiti bilan bog'langanligi tufayli «Fonus xayol» iste'moldan chiqqa boshlaydi.

XVIII asrda qo'g'irchoq teatrida biroz jonlanish yuz bergan. Ayniqsa, XIX asr boshidan uning satirik turi o'tkirlashib, voqelikni aks ettirish borasida jiddiy muvaffaqiyat qozongan va ijtimoiy hayotda tobora salmoqliroq o'rin egallay boshlagan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o'zbek qo'g'irchoq teatri ikki turdan iborat bo'lgan. 1906-yilda bu to'g'rida P.A.Komarov shunday yozgan edi: «Avvalo shuni bilish kerakki, bu yerdagi tuzem artistlari qo'g'irchoq teatrlarini ikkiga ajratishadi biri «Chodir jamol» ikkinchisi «Chodir xayol». «Chodir jamol», ya'ni qo'l qo'g'irchoq tomoshalari kunduzi ko'cha-ko'yda bo'lib, har qanday kishi ko'rishi mumkin; chunki har kim ham haq to'layvermaydi, qo'g'irchoqboz kim nima bersa shunga ko'nib ketaveradi. Bu yerda «Jamol» so'zi bir tomondan tomoshaning kunduzi yorug'likda ko'rsatilishiga, ikkinchidan tomoshada xayol afsona emas, balki kundalik hayotdan olingan real, tanish voqealar tasvirlanganiga ishora qiladi.

«Chodir» so'zi esa, ham sahna ham teatr ma'nosini beradi. Demak, «Chodir jamol» bu kishilarning kundalik hayotidan olingan voqealarni qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar yordamida kunduzi aks ettiruvchi o'ziga xos teatrdir. «Chodir jamol» sahnasi ko'pincha qizil yoki

sariq rangli matodan xaltasimon qilib tikilgan bo'lib, chodir deb atalgan. O'yinchi uning ichiga kirib quyi tomonini beliga bog'lab oladi, yuqori tomoni esa oshiq-moshiqli bolorchop, ostona, ikkita yon cho'p va tirgovuchlar yordamida sahna tusini olgan. Qo'g'irchoqboz o'zi ko'rinmasdan o'tirgan yoki tik turgan holda chodir ichida tikilgan cho'ntakda taxlanib yotgan qo'g'irchoqlarni navbati bilan chiqarib o'ynatadi.


Komarovning «Chodir jamol» teatri kolleksiyasida hammasi bo'lib, 18 ta personaj bo'lgan. Kolleksiyadagi qo'g'irchoq personajlar: Polvon Kachal, Bichaxon oyim (Puchiixon oyim) va boshqalar.




«Chodir jamol» teatr guruhi. Samarqand 1932-yil.

«Chodir xayol» tamomila boshqacha ko'rsatiladi. Bu teatr biror binoda joylashib, tegishli matodan chodir sahna yasaladi. Tomoshalar faqat kech-qurun bo'lgan. «Chodir xayol» teatri «Chodir jamol» teatriga nisbatan ancha murakkab va mukammal. Parda ortida qo'g'irchoqlar iplar yordamida harakatga keltirilgan.

Mazkur teatr tomoshalari binolarning ichida, onda-sonda ochiq joylarda ko'rsatilgan. Chodir xayol qo'g'irchoqlari xususiyatlari bilan tanishishda biz faqat P.A.Komarov kolleksiyasiga tayanamiz. Chunki qo'g'irchoqbozlar sovet davrida «Chodir xayol» bilan shug'ullanmay qo'yg'alar.



«Chodir jamol» teatr guruhi. Samarqand 1928-yil.



«Chodir xayol» teatr guruhi. Marg'ilon 1936-yil.

Yozma dramaturgiya asosida bino ichida ish ko'ruvchi yangi uslubdagi o'zbek qo'g'irchoq teatri zamonaviy teatr turlarining boshqa turlariga qaraganda kechroq tashkil topdi. 1928-yilda Semyon Yeten rahbarligida rus yosh tomoshabinlar teatri tashkil topadi. Ko'p o'tmay

shu truppa tarkibida o'zbek qo'g'irchoq teatri jamoasi yuzaga keladi. Unda xalq qo'g'irchoqbozi Po'latjon Doniyorov hamda bir nechta shu san'at ishqibozlari birgalikda ish boshlaydilar. Ammo 1930-yillarga borib moddiy sharoitning og'irligi, maxsus binoning yo'qligi sababli mazkur qo'g'irchoq teatri truppalari tarqalib ketadi.

Nihoyat, 1939-yil 19-martda Respublika qo'g'irchoq teatri tashkil topadi. Teatrqa rejissor va badiiy rahbar qilib Yo'ldosh A'zamov tayinlanadi. Teatr zimmasiga viloyatlarda ish olib borayotgan qo'g'irchoq teatrlariga ijodiy yordam ko'rsatish vazifasi yuklanadi. Yangi teatrning dastlabki yillari ikkinchi jahon urushi yillarining ogir va suronli davriga to'g'ri keladi.

Yetishmovchilik ko'p edi. biroq teatr jamoasi uyushib kamchiliklarni bartaraf etib, faqat bolalarga emas kattalarga ham kayfiyat ulashib, ularda g'alabaga ishonch ruhini kuchaytirish yo'lida g'ayrat ko'rsatdi. Teatr urush yillarida qirqqa yaqin spektakl hamda konsert namoyish etdi.

60-70-yillarda ham respublika qo'g'irchoq teatrida bu san'atga xos xususiyatlarni to'la egallash, bolalar bilan qanoatlanmay katta yoshdagi tomoshabinlarga ham xizmat qilish, spektakllarning har tomonlama to'laqonli bo'lishiga intilish bo'yicha uzluksiz ish olib borilgan.



7-§. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning metodlari

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar: *Epizod, grim, premyera, repititsiya, komponent, audio, etyud.*

Ta'lim jarayonida pedagog bola shaxsi va uning ma'naviy ehtiyojlarini, har tomonlama qondirishga yo'naltiradi. Bolalarni teatr san'ati vositalari bilan axloqiy-estetik tarbiyalash ularni axborot qabul qilish, tushunish va harakatlarni izohlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi ifodali til bilan tanishishiga ko'maklashadi. Sahnalashtirish faoliyatining o'ziga xosligi – o'yin (erkinlik, beixtiyorlik) va badiiy (tayyorlangan, ongli ravishda his etib ko'rilgan) komponentlarni birlashtirishidir.

Sahnalashtirilgan faoliyat bolalar nutqini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib, bolaga ona tilidagi ifoda vositalarini o'zlashtirishga yordam beradi, mustaqil fikrlashga bo'lgan intilishni paydo qiladi, artikulyatsiya apparatini rivojlantiradi, dialogik va emotsional boy nutq shakllanadi.

Asar mazmunini tushunib olish, mantiq va voqealar ketma-ketligini tizib chiqish yanada takomillashib, nutqiy muloqot elementlari rivojlanishiga yordam beradi (mimika, jest, pantomimika, intonatsiya, ovozning modulatsiyasi) va ijtimoiy xulq-atvor shakllanishiga imkon beradi.

Sahnalashtirilgan faoliyatda ijodiy faollik orqali bolalar nutqini rivojlantirishda tarbiyachi dasturiy metodik majmualar tizimini ishlab chiqishi, nutqni rivojlantirishga oid innovatsion va rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo'llashi va ota-onalarni birgalikdagi teatrlashtirilgan faoliyatga jalb etish lozim.¹⁵

Sahnalashtirilgan faoliyatda bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachi quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanadi:

- individual imkoniyatlarga asoslangan o'qitish texnologiyasi;
- o'yin texnologiyalari;
- integrativ (uyg'unlashgan) ta'lim texnologiyasi;
- oila bilan hamkorlik texnologiyasi;
- muammoli vaziyatlarga yechim topishga o'rgatish texnologiyasi.

Ijodiy izlanishni tashkil etishda tarbiyachiga bolalar bilan quyidagi o'yinlarni tashkil etish taklif etiladi:

- audio yozuvlarni tinglash;
- xo'r yoki individual kuylash;

¹⁵ <https://moluch.ru/conf/ped/archive/22/2098/>

- telefonda so'zlashuv;
- chizish va applikasiyalarning noan'anaviy usullari;
- ertaklardan rasmlar tayyorlash;
- relaksatsiya;
- musiqaterapiya.

Sahnalashtirilgan ijodiy faollikda bolalar nutqini rivojlantirish uchun tarbiyachi quyidagi mashqlardan foydalanishi mumkin:

- artikulyatsiya mashqlari;
- tez aytishlar;
- plastik etyudlar;
- mimikali etyudlar;
- topishmoqlar;
- tasavvurdagi mashqlar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan sahnalashtirilgan o'yinlar bolalar nutqi shakllanishida muhim pedagogik vosita hisoblanib, bu jarayonni to'g'ri tashkil etish tarbiyachidan ko'plab bilim va mehnatni talab qiladi. Quyida turli yosh guruhlarida ertak sahnalashtirish jarayonida tarbiyachi ahamiyat beradigan jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Bolalar bilan ertak sahnalashtirishning asosiy bosqichlari:

1. Sahna asarini tanlash va uni bolalar bilan muhokama qilish.
2. Pyesani epizodlarga bo'lish va ularni bolalar tomonidan so'zlab berilishi.
3. Etyud ko'rinishidagi alohida epizodlar bilan ishlash.
4. Sahna sharoitida nutqning ifodaliligi va o'zini tabiiy tutish ustida ishlash.
5. Alohida ko'rinish (dekoratsiya) va musiqa jo'rligida repititsiya qilish.
6. Spektaklning ilk taqdimoti (premyerasi).

1-bosqich. Sahna asarini tanlash va uni bolalar bilan muhokama qilish. Badiiy asarni tanlashda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

1. Ertak yoki hikoyada qatnashuvchilarning soni ko'p bo'lishi;
2. Asarning nafaqat mazmuni, balki unda harakatlarning ham turfa xil bo'lishiga e'tibor qaratish.
3. Asar mazmuni qiziqarli va emotsional bo'lishi;
4. Asar bolalarning yoshiga mos bo'lishi;¹⁶

Asar o'zbek xalq ertagimi, rus xalq ertagimi yoki mualliflik ertagimi, tarbiyachi qadimda xalqlarning hayoti, turmush tarzi, kiyinish madaniyati, urf-odat va an'analari, bir-birlari bilan qanday munosabatda bo'lishgani haqida ma'lumot beradi.

Grim ham boshlang'ich bosqich ishini taqozo etadi.

• Bolalar tasavvuri va fantaziyasini rivojlantirish uchun ertak qahramonlarining voqeagacha bo'lgan hayoti qanday bo'lgani so'raladi. Tarbiyachi ertakning nafaqat mazmuni, balki ifodalilikning alohida vositalarini tushuntiruvchi va ko'rsatib beruvchi suhbat o'tkazadi.

• Shunga e'tibor berish kerakki, ertakni qabul qilish qanchalik to'liq va emotsional bo'lsa, sahna faoliyatining darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shu sababdan asarni o'qish jarayonida intonatsiya, leksik va sintaksis ifoda vositalari majmuasidan keng foydalanish talab etiladi.

2-bosqich. Ertakni qism (epizod)larga bo'lish va ularni bolalar tomonidan so'zlab berilishi.

• Bolalar har bir epizodni gapirib berishadi va bir-birlarini to'ldirgan holda shu epizodga nom qo'yishadi.

3-bosqich. Etyud ko'rinishidagi alohida (epizod) qismlar bilan ishlash.

Bu bosqichda kichik-kichik qismlarni sahnalashtirish va matnni improvizatsiyalashgan holda o'qish ishlari amalga oshiriladi.

Obrazlarni jonlantirishni avvalo tarbiyachining o'zi bolalarni jalb qilgan holda ko'rsatib beradi. So'ngra obrazni jonlantirish guruhdagi faol bolalar bilan amalga oshiriladi va bora-bora bu jarayonga guruhdagi hamma bolalar ixtiyoriy jalb qilinishi kerak. Tayyorgarlik (repititsiya) jarayonida, yangi fikr tug'ilsa uni kengaytirib mukammallashtiriladi. Bunday yangi fikrlar odatda tomoshabinlar yoki repititsiyaga qatnashmayotgan bolalardan chiqadi.

4-bosqich. Sahna sharoitida nutqning ifodaliligi va o'zini tabiiy tutish ustida ishlash.

Bolalarda so'z boyligining kamligi erkin dialog olib borishlarida qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Lekin tarbiyachining doimiy qo'llab-quvvatlashi bolani o'ziga ishonchini orttiradi va tabiiyki, nutqi boy va ifodali bo'lib boradi. ¹⁷Tayyorgarlik jarayonida matnning parchasi turli ijrochilar bilan bir necha marta qaytariladi. Bu bolalarga ertakdagi hamma

¹⁶ F.R.Qodirova, SH.Q.Toshpo'latova, N.M.Qayumova, M.N.A'zamova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur". Toshkent – 2019. 332-bet.

¹⁷ Чурилова Э.Г. «Методика и организация театрализованной деятельности дошкольников и младших школьников». М.: Владос. 2001. С.78

qahramonlar so'zlarini yodlab olishlariga imkon beradi. Bir roldagi har xil ijrochilarni kuzatgan bolalar kim bu rolni tabiiy va to'g'ri ijro etayotganini aniqlash va baholashga o'rganadi.

Pedagog qatnashchilarning nutqi va aktyorlik qobiliyatlarini kuzatgan holda bir rolni ijro etishga 2, 3 bolani aniqlash va ularni almashtirib turishi mumkin. Imkoniyat va guruhning tayyorgarligidan kelib chiqib ertakning umumiy tayyorgarliklari soni 1 dan 3 tagacha bo'lishi mumkin.

5-bosqich. Alohida ko'rinish, dekoratsiya va musiqa jo'rligida butun ertakni repititsiya qilish.

Bu bosqichda dekoratsiya va obrazni ochib beruvchi kostyumlardan foydalaniladi. Yorqin musiqa jo'rligida bolalarga ana shu holatga oid harakatlarni topish va bajarishga yordam beriladi, bola mustaqil shu obrazga muvofiq yangi qiziq harakatlarni aniqlaydi.

• Bir vaqtning o'zida rasm mashg'ulotlarida bolalar aynan shu ertak uchun kerakli dekoratsiya, kostyum, eskizlarini chizishda qatnashadi va kerakli rasm, ranglarni o'z ijodiy qobiliyati hamda tasavvuridan kelib chiqib tanlaydi va chizadilar.

6-bosqich. Ertakning ilk taqdimoti (premyerasi)

Premyera har doim hayajon, va bayramona kayfiyatda o'tadi. Bolalar sahna san'atining odatda jamoa san'ati ekanini amalda tushuna boshlaydilar. Ertak namoyishining muvaffaqiyati har bir ishtirokchining e'tibori va mas'uliyatiga qanchalik bog'liq ekanini anglaydilar.

Yoshga xos xususiyatlari sabab bola doim o'zini o'ylaydi. U o'zini boshqalardan ustun deb biladi. O'zining shaxsiy emotsional tajribasi va xotirasiga asoslangan holda o'z hayotida ertak qahramoniga o'xshash hissiyotlarni boshdan kechirganini eslaydi. Bolalar bir narsani o'ynayverishi ularni zeriktiradi degan gap noto'g'ri.

Agar asarda oldindan hammasi qat'iy dasturlashtirib qo'yilgan yosh ijrochilar rejissor irodasini, talabini bajarayotgan bo'lsagina bolalarda zerikish bo'lishi mumkin.

Agar bolalar sahnada nima qilish kerakligini tushunishsa-yu, lekin har safar boshqacharoq qilishga intilishsa, shuning o'zi ham ijodiy improvizatsiyaning bir ko'rinishidir.





III-BOB BO'YICHA XULOSA

1. Sahnalashtirilgan faoliyatda ijodiy faollik orqali bolalar nutqini rivojlantirishda tarbiyachining vazifalari rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash usullari yoritiladi.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan spektakl ustida ishlashning asosiy bosqichlari mashg'ulotlarini tashkil qilish usullari bayon qilib berilgan.

3. Teatr pedagogikasining rivojlanib borishi davomida tarbiyaviy ta'sir vositalari haqida so'z boradi.

4. Dunyo sivilizatsiyasida tashkil etilgan qo'g'irchoq teatrlari va o'zbek qo'g'irchoq teatri bilan maxsus shug'ullangan havaskor etnograf Pyotr Aleksandrovich Komarovning sahnaviy qo'g'irchoqlar kolleksiyasi haqida bayon qilinadi.

5. Respublika qo'g'irchoq teatrining tashkil etilishi tarihi haqida so'z yuritiladi.

Nazorat savollar:

1. Pedagogikada teatr san'atining tutgan o'rni haqida so'z yuriting
2. Antik davrdagi teatr pedagogikasining xususiyatlari haqida so'z yuriting.

3. Qo'g'irchoq o'yin bilan xalq professional teatri (masxarabozlik) o'rtasidagi umumiylik haqida so'z yuriting.

4. Qo'g'irchoq teatri bilan sahna teatrining asosiy farqlari haqida so'z yuriting.

5. P.A.Komarov o'zbek sahnaviy qo'g'irchoqlarining nechta kolleksiyasini muzeyga jo'natishga muvassar bo'ldi?

6. P.A.Komarov kolleksiyasidagi sahnaviy qo'g'irchoqlarining soni nechta bo'lgan?

7. «Chodir jamol» va «Chodir xayol» qo'g'irchoq teatrlari haqida so'z yuriting

8. Respublika qo'g'irchoq teatri qachon tashkil topgan?

9. Sahnalashtirilgan faoliyat orqali bolalar nutqini rivojlantirishning ahamiyati haqida so'z yuriting.

10. Sahnalashtirilgan faoliyatda bolalar nutqini rivojlantirishda tarbiyachi qanday vazifalarni amalga oshiradi?

11. Ertak sahnalashtirishning bosqichlarini sanab bering.
12. Etyud ko'rinishidagi alohida qismlar bilan ishlash bosqichida qanday ishlar amalga oshiriladi?
13. Sahnalashtirilgan ertak taqdimotida nimalarga ahamiyat beriladi?
14. Sahnalashtirilgan faoliyat orqali bolalar nutqini rivojlantirishning ahamiyati haqida so'z yuriting.
15. Teatrlashtirilgan faoliyatda bolalar ijodiy faolligini rivojlantirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni sanab o'ting.
16. Teatrlashtirilgan faoliyatda bolalar ijodiy faolligini rivojlantirishda qo'llaniladigan ijodiy usullarni sanab o'ting.

IV-BOB

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA QO'G'IRCHOQ TEATRI PERSONAJLARINI YASASH ORQALI BADIY IJODIY QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH VA QO'G'IRCHOQ YASASH USULLARI

8-§. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri qahramonlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish mazmuni

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar: *Kommunikativ, estetik, marionetka, koordinatsiya, jihoz, tabiiy, shirma, applikatsiya, massa, stimul.*

Axloqiy-estetik sifatlar bolalarda go'zallik haqidagi bilimlar, hayot voqeligi, buyumlar, ularning rang-barangligi, turlarini, o'zini tuta bilishni, muloqotga kirishuvchanlik, yaxshi-yomonni farqlash, o'z-o'ziga baho berish kabilarni tarbiyalash masalasini o'z ichiga oladi. Inson hayoti o'z-o'zini anglashdan boshlab, jismoniy, aqliy va ijtimoiy kamolotga erishuv jarayoni bilan davom etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida, axloqiy tarbiya berishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- ✓ turli yosh guruhlari bolalari uchun sodda elementlar axloqiy tushunchalar haqida ma'lumot berish;
 - ✓ Bolalarga har bir o'rgatiladigan u yoki bu fazilatlar rasmlar, multfilm tasmlar, axborot kommunikativ texnologiya vositalari asosida va jonli harakatlari orqali tushuntirish;
 - ✓ bolaga doimiy ravishda «nima yaxshi», «nima yomon» ma'nosini tushuntirib, o'z fikrini sodda bayon etishga ko'maklashish.
- Maktabgacha yoshdagi bolalarni teatr tomoshalariga oshno qilish, ularning qo'g'irchoq o'yinlarini tashkil qilishda quyidagilar maqsad qilib olinadi:
- ✓ bolalar uchun ijodkorlik, faollikni ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratish;
 - ✓ teatr ko'rish odobiga o'rgatish;

✓ teatr tomoshalari jarayonida bolalarning nutqi va jismoniy rivojlanishidagi uzviylikni ta'minlash;

✓ xalq yaratgan boy merosimizga bo'lgan muhabbat hissini uyg'otish;

✓ qo'g'irchoq teatrini ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil qilish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

Har bir qo'g'irchoq teatri bolaning ruhiyatiga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:

✓ qo'g'irchoq teatri uchun tanlangan ertak bolaning yosh va bilim saviyasiga mos bo'lsa, bolada butun vujudi bilan uni ko'rish va unga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi;

✓ kuzatishlarimizdan ma'lumki, ayrim bolalarda ertak qahramoniga nisbatan ruhiy tetiklik yoki qo'rqish, nafrat, ko'ziga yosh olish yoki kulib yuborish kabi emotsional holatlar namoyon bo'ladi;

✓ qo'g'irchoq teatri yakunida o'tkazilgan suhbatda bolalar u yerda ko'rganlari haqida qiziqish va xursandchilik bilan so'zlab berishi doimo ko'rishga xohish bildiradilar.

Qo'g'irchoq teatrining 6 ta turi mavjud:

1. Stol qo'g'irchoq teatri.
2. Barmoqli qo'g'irchoq teatri.
3. Qo'l qo'g'irchoq teatri.
4. Niqoblar teatri.
5. Marionetka qo'g'irchoq teatri.
6. Soyali qo'g'irchoq teatri.

Stol qo'g'irchoq teatri 5 xil bo'ladi.

1. Qog'ozdan yasaladi.
2. Kartondan yasaladi.
3. Taxtadan yasaladi.
4. Plastmassadan yasaladi.
5. Tosh shaklli stol teatri

Bu teatr stol ustida ko'rsatilib. Bu teatr turi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun qulaydir.

*Barmoqli qo'g'irchoq teatri*da qo'g'irchoqlar barmoqlarga kiygizilib shirmada teatr ko'rsatiladi.

*Qo'l qo'g'irchoq teatri*da qo'g'irchoqlar, ya'ni ertak qahramonlari qo'lga kiygizilgan bo'ladi. Qahramonlar shirma orqasida ko'rsatiladi.¹⁸

*Niqoblar teatri*da aktyor yuziga ertak qahramonining tasviri tushirilgan niqob kiyadi va sahnada ertak namoyish etiladi.

*Marionetka qo'g'irchoq teatri*da qo'g'irchoqlarning qo'l va oyoqlari leska, ingichka sim yoki arqon bilan bog'langan holda harakatlantiriladi va tomosha o'tkaziladi.

Soyali qo'g'irchoq teatri 3xil bo'ladi:

1. Shaklli soya teatri.
2. Qo'l va barmoq soya teatri.
3. Jonli soya teatri.

Teatr bolalarga xursandchilik va quvonch baxsh etish bilan birga katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hajmi katta ertaklarni qo'yish mumkin emas. Kichik ertak asosida o'yinchoqlar yordamida sahna qo'yish mumkin. Bu kichik ko'rinishlarning har biri ham bolalarda katta taassurot uyg'otadi va bayram tadbirlariga ko'tarinki ruh baxsh etadi. Har qanday badiiy asar qo'g'irchoq teatri orqali ko'rsatilsa, bolalar uchun yanada tushunarli bo'ladi.

9-§. Qo'g'irchoq teatridagi o'yin turlari. Teatr qo'g'irchoqlarini yasash. Qo'g'irchoq o'ynatish qoidalari.

Sahna faoliyatini tashkillashtirish uchun sanoatda ishlab chiqariladigan qo'g'irchoq va o'yinchoqlardan foydalanish mumkin. Lekin bolalar o'zlari yasagan o'yinchoqlarning tarbiyaviy qadri eng yuqori ekanini ta'kidlash lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatr jihozlarini tayyorlash va tomoshalar ko'rsatish quyidagi bosqichlar asosida amalga oshirish tavsiya etiladi:

Birinchi bosqich.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'g'irchoq teatrini namoyish etishda quyidagilar amalga oshiriladi:

✓ manba tanlash (ertak tanlash). Tanlangan ertak bolaning yoshiga mos kelishi;

¹⁸ Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. D.Azimova. "Ustaxonada amaliy mashg'ulot". "Cho'lpon", T. 2010y. 91-bet

- ✓ musiqa tanlash;
- ✓ qo'g'irchoq teatrini ko'rsatish rejasini tuzish.

Ikkinchi bosqich:

- ✓ ko'zlagan maqsadga erishishda ertak mazmuniga ko'ra qahramonlarni tanlash va so'zlarini yod oldirish;
- ✓ qo'g'irchoqlarni yasash va kiyintirish;
- ✓ tarbiyachi bilan hamkorlikda she'rlarni yod olish.

Uchinchi bosqich:

- ✓ tarbiyachi va bolalar bilan hamkorlikda teatr turiga ko'ra ertakni sahnalashtirish;
- ✓ qo'g'irchoq teatri namoyishi, bolalarni qiziqishlari va ularga yoqqan qahramonlar haqidagi fikrlarini aniqlash.

O'yinchoqni o'z qo'llari bilan yasash bolalarda tasviriy ko'nikmalarni, qo'l mehnati, ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Stol teatri uchun o'yinchoqlarni qog'ozdan, kartondan, qog'oz qutidan, sim, tabiiy mato va boshqa narsalardan tayyorlash mumkin.

Yapaloq o'yinchoqlar. Bunda personajlar yupqa kartonga chizilib, qirqib olinadi, rasm kartonga qo'yib, ikkinchi qismi qirqiladi. Ikkala qismining o'rtasiga ingichka tayoqcha yoki qog'ozli naycha tiqilib (yelim surtilgan), qismlar yelimlanadi. Shakllar teshikli plastmassa probkalarga o'rnatiladi. Shakllardan stol teatri sahnalashtirishda foydalaniladi.



Konus yoki silindrdan yasalgan o'yinchoqlar. Sirkul yoki trafaret yordamida turli diametrli doiralari qirqib olinadi, ularni ikkiga bukkanadi, buklangan chiziq bo'ylab qirqiladi, yarimdoiralardan esa yelimlab konus yasaladi, unga ertak qahramonlarining rasmlari yopishtiriladi. Bezatish uchun applikatsiyadan, qog'oz, mato, tor (krujava), tasma, iplar, tugmalar, mayda munchoqlardan foydalangan ma'qul, ular buyumga tikib yoki yopishtirib qo'yiladi. Qog'oz, yupqa matolarni yopishtirish yoki ulardan nimadir yelimlab yasash uchun kraxmal kleydan foydalanish qulay. Karton, tugmalar, businalar, tasma esa (PVA) yelimda yaxshi yopishadi.¹⁹



Magnitli teatr. Bolalar tomonidan qog'ozli konuslar, silindrlar, porolondan yasalgan o'yinchoqlarni magnitli teatrga ham moslashtirish mumkin. Konus va silindrlarning tag qismlariga metall bo'laklari mahkamlanadi. Metall bo'laklarini g'altak teshiklariga joylashtirish ham mumkin. Keyin taglik (podstavka) yasaladi. Taglik ostida magnit harakatlanishi uchun yupqa fanerga mato bo'lagi yopishtiriladi. Taglik yonma-yon qo'yilgan ikkita stolning chetlariga o'rnatiladi.

Barmoq teatri. Personajlar barmoqlar uchun teshiklar hosil qilingan qog'oz yoki matodan yasaliib, barmoqlarga kiyiladi. Shaklchalar yoki faqat boshchalar chiziladi, kartonli halqachalarga yopishtiriladi va barmoqlarga kiyiladi. Matolar choki "igna oldinga" uslubi bilan ustki tarafidan tikiladi, yoki detallarni orqa (astar) tarafidan tikilib, yuz tarafiga ag'dariladi. Qahramonlarni tugma, junli ip, tasma, tor krujavadan foydalanib bezatish mumkin.



Qo'g'irchoq-raqqoslar. Ular karton yoki plastikdan tayyorlanadi. Gavda, qo'l va oyoqchalar alohida qirqib olinadi. Keyin ular iplarda gavdaga tikib chiqiladi, shaklchani ortida esa – mahkam sim bog'lanadi.

Bunday qo'g'irchoqlar uchun maxsus sahna kerak bo'ladi. Sahnaning ort devorchasida yupqa gorizontallir qirish bor. Devor kartondan qilinib, stolga knopkalar bilan qotiriladi. Yonbosh taraflarda – keng pardalar, ularning ortida shaklchalar qo'yiladi, tirqishga sim o'tkazilib, uning yordamida qo'g'irchoq sahna chiqariladi va raqsli harakatlar boshqariladi.

Qo'g'irchoq-marionetkalar. Marionetka teatri qahramonlari ham turli materiallardan yasaladi. Detailarni yumshoq o'yinchoq tayyorlash qoidasi bo'yicha andozaga qarab tikish mumkin. Andoza matoga qo'yiladi, bo'r bilan chizib chiqiladi, bichiladi, qiyin bo'lmagan detallar tikiladi. Bunday qo'g'irchoqlar bir-biriga ko'ndalang qilib chalishtirilgan ikki iplar yordamida harakatga keltiriladi.



Qo'l qo'g'irchoqlari. Ularning harakat uslubi shundaki, ular qo'lga kiyiladi. Ko'rsatkich barmog'iga – qo'g'irchoqning boshchasi kiyiladi, bosh va o'rta barmoqlar qo'llar vazifasini bajaradi. Ular uchun detallar (karmoncha, fartukcha, belbog'cha) bilan bezatilgan ko'ylaklar tikiladi.

Boshchalarni matodan tayyorlash mumkin. Bosh uchun aylana qirg'ib olinadi, uning perimetri bo'ylab ipga yig'iladi, asta tortiladi, paxtaga to'ldiriladi va oxirigacha tortib qo'yiladi. Kichik sharcha ko'rinishidagi buruncha ham xuddi boshnikidek yasaladi; sochlar iplardan, turli matolardan tayyorlanadi.

Katta qo'g'irchoqlar (bola balandligiga qarab) yapaloq yoki hajmli bo'ladi (ularni porolondan qilgan ma'qul). Bola bo'ynining orqasidan qo'g'irchoqning boshiga mahkamlangan tasmalar bog'lanadi, bel orqasidan (fartuk kabi) bog'langan tasmalar esa qo'g'irchoqning belbog'iga qotiriladi. Bola qo'g'irchoqning qo'llari va oyoqlariga tikilgan rezinkalarni kiyib, o'zining bilaklari va to'piqlariga mahkamlaydi.


Tayoqqa o'rnatiladigan katta qo'g'irchoqlar. Bosh asosiy tayoqqa qotiriladi, qo'llar esa alohida tayoqchalar (yoki qalin simlar) yordamida

harakatlantiriladi. Boshlari pap'e-mashedan, matodan qilinadi. Ko'ylaklar tasma, lenta, aplikatsiya bilan bezaladi. Ular ko'ylakka yopishtiriladi yoki tikib qo'yiladi.

Soyali teatr. Ijrochining qo'li – personajning gavdasi, o'rta va bosh barmoqlar – oyoqlari tasvirlanadi.

«Jonli» soyalarni o'z qo'llaringiz yordamida yaratishingiz mumkin. Bunda harakatlar ifodali va aniq bo'lishi kerak, ijrochilar bir-birini yopib qolmasligi lozim.


Lampa ekran markazining ro'parasidan joylashadi. Ekrandan lampagacha masofa ekran enining uzunligiga teng, bc masofasi x ga teng bo'lishi kerak. C nuqtadan to'g'ri planka (taxta) yordamida tepaga perpendikulyar tortishi, plakaning balandligi AB masofadan kam bo'lmasligi kerak. Uchburchak chizgich yordamida plankani c nuqtaga vertikal qo'yamiz, unda ab ga teng masofa qoldiramiz.



Ekran markazi ro'parasidagi nuqta a1– lampa.

Ekran istalgan yarimshaffof material (mato, chizma, rasmdan nusxa olishda ishlatiladigan shaffof qog'oz yoki gazlama)dan tayyorlanishi mumkin. Faneradan, kartondan qilingan ramkaga oddiy parda kabi tortiladi, uning orqasidan nur manbai o'rnatiladi.


Проекцион фонари (филмоскопный 12-вольтовый, автомобильный фары 6-вольтовый) да қўлланиладиган чироқлар (100 Ватт) ёрдамда сояларни катта экранда (2x1,5 м) кўрамиз. Лампани фанера ёки тунукадан қилинган қутига joylashtiriladi, қутининг ичи қора бо'yoqqa бо'yaladi.²⁰



«Jonli» qo'g'irchoqlar («tanta-moreskalar»). «Jonli» qo'g'irchoqlarning boshlari haqiqiy, jonli bo'ladi, gavdasi, qo'l, oyoqlari esa – qo'g'irchoq. 60-90 smli ikkita yog'och ramkalar tayyorlanadi. Bitta ramka (sahnaning orqa devorchasi)ga qora mato tortiladi, paxta yoki yumaloqlangan qog'oz bilan to'ldirish mumkin bo'lgan kostyum tikib qo'yiladi. Kostyum ustidan (yoqa yonidan) ijrochi boshi uchun tor teshik teshiladi.



Yumshoq yog'ochdan ikki juft oyoqchalar va ikki juft qo'lchalar qirqib olinadi. Qo'lchalar yenglarga kirgiziladi. Har bir qo'lning ichki tomoniga bigiz tiqing, tiqqanda qora matoni ham teshib o'ting. Bigizni aylantiring – qo'g'irchoq qo'lini ko'taradi, oyoqlarning yuqori qismlarida ham shunday qiling – ular harakatga keladi. Ikkinchi ramkaga ikki yoqqa suriladigan parda mahkamlang.



Ijrochining oyoqlari ko'rinmasligi uchun sahna qo'yiladigan stol polgacha mato bilan yopiladi.

Niqoblar teatri. Ijrochi boshining o'lchamlariga mos qilib niqob-shaklcha yoki niqob-kapyushon tayyorlanadi. Ularga mos detallar tikib qo'yiladi.





Dekoratsiyalar. Bolalar mustaqil tarzda yog'ochdan o'rindiqlar, qog'oz qutilardan isitkich yoki kattaligi va shakli har xil bo'lgan

²⁰ Генев Г.В. Теневой театр для самых маленьких. М.: Учпедгиз, 1961. С.95

qutilardan qasr uchun bloklar tayyorlashlari mumkin. Qog'ozni o'rab yelimlab chiqishlari, qutilarning old tarafini esa applikasi bilan bezashlari mumkin: kichik hashamatli boloxona uchun yapaloq tomlar qilishlari, ularni qutilarga joylashtirish mumkin.



Stol teatri postanovkalarida dekoratsiyalarni tez-tez almashtirib turish kerak bo'ladi. Buning uchun ertakga mos dekoratsiyalarni karton bo'laklariga yelimlash, o'ziga xos kitob shaklida muqovalash kerak bo'ladi. Kitobni parda orqasiga tikka qo'yiladi va karton betlarini varoqlab dekoratsiyalarni bir onda o'zgartirish mumkin.



Sahnaning bunday konstruksiyasida dekoratsiyalar ko'p tabaqali parda (shirma) ko'rinishida bo'lishi yoki kartonli aylanada joylashishi mumkin.

Bu aylana ingichka mix yoki nina to'g'nag'ich (bulavka)da aylana-di, dekoratsiyalarni o'zgartiradi va ularni harakatlanayotgan holda ko'rsatadi.

Dekoratsiyalarni tez almashtirish uchun ular kanselyariya nakolkasiga o'xshash vertushkaga qotiriladi, bu qalin sim bo'lib, u aylana derevyashkaga – asosga qoqilgan bo'ladi. Vertushka orqasida shaffof mato tortib qo'yiladigan ramkadan iborat parda (shirma) joylashadi. Bunday shaffof to'rli dekoratsiya orqali ijrochilar butun sahnani ko'rishlari va shaklchalarni ishonch bilan boshqarishlari mumkin.



Shuningdek, spektakl uchun *musiqi va ovoz* jo'rliigi kerak.

Bolalar bilan teatr uchun qo'g'irchoqlarni yasash jarayonida, avvalambor, turli yosh guruhlariga tavsiya etiladigan xalq ertaklarida, asarlarda uchraydigan personajlarni yasash kerak. Qo'g'irchoqlarni bolalarning o'zlari yasashi va ularni o'ynashi – bolalarni sahnalashtirish faoliyatiga qiziqtiruvchi stimuldir, bu bilan bolalarning mustaqil ijodiy faoliyati yanada qiziqarli bo'ladi. Qo'g'irchoqlar bilan o'ynar ekan, bolalar o'zlarining ertaklarini yaratadilar, fantaziya va ijod qiladilar. Ular uchun bu muloqot, o'zini ifoda etish, bilish va ijod maktabidir.

Qo'g'irchoqlarni boshqarishda qo'l harakati

Qo'g'irchoq teatri aktyori uchun eng zarur bo'lgan yo'nalish bu uning qo'l harakatchanligidir. Haqiqatdan ham inson xatti-harakatining eng faol ijrochisi bo'lgan qo'l qo'g'irchoq teatrida o'zining mo'jizakorligi, sehrgarlik kuchini yanada yaqqol namoyon qiladi.

Dramaturg asaridagi qiyofalar musavvir va qo'g'irchoq ustasining ijodiy ko'magida dunyoga kelgan qahramonlar qo'g'irchoq teatri aktyori qo'li bilan jonlanib, mantiqli, maqsadli xatti-harakatga moyil qilinadi. Bu o'z o'rnida qo'g'irchoq teatri aktyoridan qo'llarining naqadar harakatchan, chiniqqan, chidamli bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun qo'g'irchoqlarni katta mahorat bilan boshqarib, turli mantiqli xatti-harakatlar sodir qilish bilan birga, qo'l yalang'och holda, qo'lqopli holatda yoki dumaloqcha kiygan holatda turli harakatlarni amalga oshirib, turfa obrazlar yaratadi va boy imkoniyatlarini namoyon etadi. Demak, qo'g'irchoq teatri aktyorning qo'l harakatchanligi cheksiz imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak.

Sahnada bajarilayotgan harakat uch xil holatda bo'ladi:

1. Jismoniy harakat – bajariladigan ishning tashqi holati (kiyinish, gul taqdim qilish, osma qo'yish va boshqalar). Bu harakat asosan psixik harakatni amalga oshirish uchun moslama sifatida xizmat qiladi.

2. Psixik harakat. Inson ongiga, ruhiga, holatiga ta'sir qilib, uni o'zgartirishga olib keladi (tushuntirish, maqtash, rad etish, kulish va h.k.).

3. So'zli harakat. So'z – bu fikr bayoni. So'z sahnada aniq maqsadga erishish vositasi. So'z inson ruhiyatiga, ya'ni intellektiga, tasavvuriga va his-tuyg'ulariga har tomonlama ta'sir qilish kuchiga ega.

Jismoniy, psixik va so'zli xatti-harakatlarning barchasi sahnada bir maqsadga erishish uchun yo'naltiriladi.

Qo'g'irchoq teatrida qo'g'irchoqboz jonsiz o'yinchoqqa jon baxsh etadi. Qo'g'irchoqboz soatlab oyna oldida mashq qilib, obrazni jonlashtirishga harakat qiladi. Shuning uchun qo'g'irchoqboz jismoniy sog'lom, qo'l va barmoqlari abjir, epchil bo'lishi kerak.

Chunki qo'g'irchoqbozning har bir qo'l harakati qahramon fikrini ifodalab berishi kerak. Qo'g'irchoqboz har xil holatda, tizzalab o'tirgan holatda, yotgan holda to'siq ortida rol ijro etishi mumkin.

Ishtirokchilarning bo'yiga moslab to'siq yaratish maqsadga muvofiq. To'siq qanday balandlikda bo'lishidan qat'i nazar, uning ustki qismiga birlashtirilgan taxta (reyka) qo'g'irchoq uchun taxminiy yuradigan maydon hisoblanadi. Aktyor sahnada qanday yursa, qo'g'irchoq ham shartli maydonda xuddi shunday yurishi kerak, ya'ni reykaning pastga tushib ham, chiqib ham ketmasligi kerak. To'siqdan qo'g'irchoqni uchdan ikki qismi tomoshabinga aniq ko'rinishi shart. Sahnada ichkarisiga uzoqlashgani sari qo'g'irchoqni balandroq ko'tarish kerak, chunki to'siqdan uzoqlashganda qo'g'irchoq tomoshabinga kichrayib ko'rinadi.

Qo'g'irchoq teatri dekoratsiyalari ixcham bo'lishi kerak. To'siqda jihozlar qancha kam bo'lsa shuncha yaxshi, chunki qo'g'irchoqlar harakati va ijrochilari uchun erkinlik va qulaylik yaratiladi.

Qo'g'irchoq spektaklini musiqasiz tasavvur qilish qiyin, musiqa parda ochilganda, yopilganda, ko'rinish o'rtasida, sahna o'zgarishidagi bo'shliqlarni to'ldirib turadi, spektaklni mukammallashtiradi.

Qo'g'irchoq o'ynatishning o'ziga xos tomonlari

Qo'g'irchoq o'ynatishga o'rgatishni qoshiqchalar teatrdan boshlagan ma'qul. Yog'och qoshiqdan tayyorlangan qo'g'irchoqni boshqarish oson.

Bola qoshiqni dastagidan ushlab uni tepaga ko'taradi. Bolaning qo'li qoshiqchaga kiygizilgan yubkacha ostiga berkitilgan.

Parda (shirma) bilan ishlar ekan, bola qo'g'irchoqning to'g'ri «yurayotganini» va keragidan ortiq balandlab ketmayotganini his etishi kerak. Personajning yurishlarini (oson, lapanglab, shoshib-pishib va boshqa), obrazini bera olishga o'rgatish kerak. Qo'g'irchoq qanday asta-sekinlik bilan kirgan bo'lsa shunday ketishi kerak. Qo'g'irchoqlar «gaplashayotganda», ayni paytda «gapirayotgan» qo'g'irchoq astalik bilan harakatlanadi. Boshqasi esa bu paytda diqqat bilan «eshitadi», vaqtincha barcha harakatlarni to'xtatadi. Bu usul tomoshabinlarga qaysi qo'g'irchoq nutq so'zlayotganini aniqlashga yordam beradi. Suhbat paytida qo'g'irchoqlar qarama-qarshi turib bir-birlariga «qarashlari» lozim. Bolaning nutqi qo'g'irchoq harakatlariga mos tushishi muhim, etyudlar qo'g'irchoqni «jonlantirishga», qo'g'irchoq boshqarish asoslarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Qo'g'irchoq boshqarishning umumiy qoidalari (E.A.Antipova tavsiyasiga ko'ra):

1. Qo'g'irchoqni shirma (parda)ga nisbatan ma'lum darajada ushlab talab etiladi. Pardaning chetiga taqab qo'yilgan qo'g'irchoq o'z balandligining $\frac{3}{4}$ qismichalik ko'tarilib turishi lozim.

2. Qo'g'irchoq harakatlarni amalga oshirayotgan paytda uning qo'llari gavdasiga taqalib turishi kerak.

3. Qo'g'irchoqni to'g'ri (tikka) ushlab kerak. Uning egilishi qo'l panjasining egilishi bilan amalga oshiriladi. Qo'g'irchoqning beli qo'lning bilagiga to'g'ri keladi.

4. Qo'g'irchoqni ikkinchi planga chiqarishda uni balandroq ko'tarish kerak.

5. Qo'g'irchoqni o'tqazish uchun avvalo bilakni bukib qo'g'irchoqni egish kerak, keyin u o'tiradigan joyiga bilakni suyash kerak. O'tirgan qo'g'irchoq turishi uchun u avval oldinga egiladi, gavdasini to'g'irlaydi va bir vaqtning o'zida gavdasi to'g'rilanguncha biroz ko'tariladi. Agar qo'g'irchoqning oyoqlari bo'lmasa, uni shirma chetiga o'tqizishda, tasavvurdagi tizzalar o'rniga pastdan bo'sh qo'llarni qo'yiladi. Qo'llar qo'g'irchoq kiyimi bilan berkitiladi.

6. Qo'g'irchoqlarning harakati va so'zlari ma'lum bir diqqat obyektiga qaratilgan bo'lishi lozim.

7. Gapirayotgan qo'g'irchoq bosh yoki qo'l harakatlari yordamida, eng muhim so'zlarga o'tirganlarning e'tiborini qaratishi kerak.

8. Bitta qo'g'irchoq gapirayotganda qolganlari qimirlamasligi lozim: aks holda so'zlar kimga tegishli ekani tushunarsiz bo'lib qoladi.

9. Aktyorning xarakteri qo'g'irchoqqa berilishi kerak.

IV-BOB BO'YICHA XULOSA

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish mazmuni yoritiladi.

2. Qo'g'irchoq teatri turlari haqida ma'lumot keltiriladi.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatri jihozlarini tayyorlash va tomoshalar ko'rsatish bosqichlari haqida ma'lumot keltiriladi.

4. Qo'g'irchoq o'ynatishning o'ziga xos tomonlari bayon qilinadi.

5. Qo'g'irchoq boshqarishning umumiy qoidalar haqida so'z yuritiladi.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrlarini tayyorlash va tomoshalar ko'rsatish nechta bosqichda amalga oshiriladi?

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish haqida so'z yuriting.

3. Qo'g'irchoq teatrlarining qanday turlari bor?

4. Qo'g'irchoqlar turlari haqida so'z yuriting.

5. Qo'g'irchoqlarni boshqarishda qo'l harakati qanday amalga oshiriladi?

6. Sahnada bajarilayotgan harakat necha xil holatda bo'ladi?

7. Qo'g'irchoq boshqarishning umumiy qoidalar haqida so'z yuriting.

Teatr mavzusiga krossvord va chaynvordlar

O'nta «R»

1. Cheklangan joyda bir necha aktyor ijro etadigan tomosha?

2. Tomosha uchun asarni kim yozadi?


3. Spektakl sahnalashtirishga kim boshchilik qiladi?

4. Spektaklda musiqa ijro etuvchi muzikantlar guruhi?

5. Orkestrga boshchilik qiluvchi odam?

6. Spektaklga musiqa bastalovchi odam?

Javoblar: 1. Teatr 2. Dramaturg 3. Rejissor 4. Orkestr 5. Dirijyor
6. Bastakor



«K» harfiga so'zlar


1. Ekandagi voqealar haqida so'zlovchi san'at turi?

2. Barglari yo'q- shitirlaydi, ko'ylak emas- tikilgan, odam emas- hikoya qiladi.

3. Musiqa, vokal va raqs tomoshalarining sahnada ijro etilishi

4. Hajviy asar.


Javoblar: 1. Kino. 2. Kitob. 3. Konsert 4. Komediya



«A» harfiga soʻzlar

1. Spektakl haqida eʼlon.
2. Ijrochi sifatida sahnaga chiquvchi odam.
3. Spektakl harakatlari oʻrtasidagi tanaffus.
4. Ijodiy mehnat mahsuli.


Javoblar: 1. Afisha. 2. Artist. 3. Antrakt. 4. Asar.



Teatrda oid kasblar

1. Teatr postanovkasi uchun pyesalarni kim yozadi?
2. Artistning pardozi bilan shugullanuvchi teatr ishchisi?
3. Spektaklga kim musiqa bastalaydi?
4. Spektakl sahnalashtirishning bosh rahbari?
5. Tomosha vaqtida aktyorlarga soʻzlarni aytib beruvchi teatr ishchisi?
6. Teatrda birga ishlaydigan sahnadosh?

Javoblar: 1. Dramaturg. 2. Grimyor. 3. Bastakor. 4. Rejissor. 5. Suflyor. 6. Aktyor.



V-BOB BOLALARNI IJODIY FAOLIYATGA OʻRGATISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

10-§. Ijodiy faoliyatga oʻrgatishning maqsad va vazifalari

Bolalar ijodiyoti va uning oʻziga xos tomonlarini tushunish pedagoglardan koʻpgina bilimlarga ega boʻlishni talab etadi. Pedagog sanʼatda bu faoliyat qanday xarakterga ega, rassom badiiy obrazni yaratishi uchun qanday vositalardan foydalanayapti, uning ijodiy faoliyatining bosqichlari qanday degan savollarga javob bera olishi kerak. Bolalar atrof-olam bilan tanisha borish jarayonida ularni oʻz faoliyatlari, yaʼni oʻyinlari, chizgan rasmlari, loy ishlari, hikoyalari aks ettiradi. Bolalar tasviriy faoliyatda atrof-olamdan olgan taassurotlarini, tasavvurlaridagi timsollarni turli-tuman materiallardan va aniq shakllar yordamida tasvirlashga harakat qiladi. Bolalar ijodiyotida ijodiy faoliyatning boshlangʻich bosqichida oʻziga xos xarakter xususiyatlari mavjud.

Ijodiy faoliyatga oʻrgatish fanining vazifasi maktabgacha taʼlim tashkilotida bolalarni qoʻl mehnatiga, badiiy mehnatga qiziqishlarini uygʻotish, mehnat orqali hosil boʻlgan koʻnikma va malakalarini shakllantirish; maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga nisbatan muhabbatni tarbiyalash va kasbga yoʻnaltirish; bolalarda ijodiy koʻrgazmalar, oʻyinlar uchun atributlar yasashga xohishlarini uygʻotish; qogʻoz, karton kabi materiallarning xususiyatlari bilan tanishtirish; mehnat qilish madaniyati malaka va koʻnikmalarini tarbiyalash; buyumlarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish, tayyorlash texnologiyasini oʻrgatish, mahsulotni tejash, buyumlari qoralamasining eskizini va suratini chizishga ish joylarini tartibli saqlashga oʻrgatish; bolalarni buyumlar yasash jarayonida oddiy asboblardan foydalanishga oʻrgatish hamda badiiy didlarini shakllantirishga, vaqtni tejay olishga, maqsadga muvofiq ishlashga odatlantirishdir.²¹

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashgʻulotlarning oʻrni beqiyos ekanini eʼtirof etgan

²¹Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. D.Azimova. "Ustaxonada amaliy mashgʻulot". "Choʻlpon", T. 2010y. 4-bet.

holda bunday mashg'ulotlar ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirilishiga ham tamal toshini qo'yishi shubhasizdir.

Bolalar rasm, appalikatsiya, loy ishi, qirqib-yelimlash mashg'ulotlari davomida nafaqat biror ish bilan ma'lum muddat band bo'ladilar, balki yuqorida aytib o'tganlarimizga qo'shimcha ravishda ularda quyidagilar rivojlanadi va shakllanadi:

- tasviriy san'at sohasiga doir qobiliyatlari aniqlanadi va shakllantiriladi;

- qalam, mo'yqalamni ushlab, loy, plastilin bilan ishlash, qaychida ayrim narsalarni qirqib yelimlash orqali mayda qo'l mushaklari rivojlanadi;

- bola yozuv texnikasini egallashga tayyorlanadi;

- bola tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali diqqatini bir joyga taqsimlay olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, o'tira olishni o'rganadi;

- tabiatni, atrof-olamni kuzatish, uni asrab-avaylash, ardoqlash, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadi;

- jamoa bo'lib mehnat qilish, ishini rejalashtira olish, o'rtoqlarini eshita olish va o'zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishlash malakalari shakllanadi;

- xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'ladi va ularni o'z ishlarida ifodalashga o'rganadi.

11-§. Qog'ozdan buklash yo'li bilan o'yinchoq yasash (Origami usuli).

«Origami» odatda to'rtburchakli qog'ozlarni buklash yo'li bilan turli buyum va o'yinchoqlarni yasash usulidir. Origami usuli IX-XII asrlarda Yaponiyada paydo bo'lgan bo'lib, «origami» so'zi ikki ibora «ori»-buklangan, «gami»- qog'oz degan ma'noni anglatadi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, origami alohida amaliy san'at turi sifatida Yevropa mamlakatlariga tarqaldi va rivoj topa boshladi. Bugungi kunda origami usuli butun dunyoda keng ommalashgan bo'lib, qog'oz buklamlaridan turli buyum o'yinchoqlar yasash bolalarning, ijodiy qobiliyatlarini shakllanishi, tasavvur doirasini kengayishida muhim ahamiyatga ega.


Qog'oz yaxshi taxlanish va buklanishi bilan alohida xususiyati bo'lib, buklangan joy yaxshilab silliqlangan bo'lsa, qog'oz oldingi holiga qiyinlik bilan qaytadi. Bunda buklanishdan hosil bo'lgan chiziqlar saqlanib qoladi.

Qog'oz bilan ishlash turlaridan biri qog'ozni taxlashdir. Qog'ozni yelimsiz buklab ma'lum narsalar yasash mumkin. Qog'ozdan biror narsa yasash uchun qog'ozni talabga muvofiq tarzda teng ikkiga, bir necha qismga va murakkabroq to'g'ri sinq chiziqlar bo'yicha buklash kerak bo'ladi.

Kvadrat shaklidagi qog'ozdan kuchukcha o'yinchoq'ini yasash:

Maqsad — bolalarning chizma asosida qirqish va yasash malakalarini o'stirish, chizmalarni o'qiy olishga o'rgatish. Bolalarning rangli qog'ozdan kvadrat tayyorlash usuli bilan tanish bo'lganlikari sabab, diagonali bo'ylab buklab chiqarilganda buklash

chiziqlari o'zaro kesishib, «o» markazini hosil qiladi. So'ng ikkita buklov tomoni buklanadi. So'ngra yuqorida buklangan ikkala tomoni yana teng ikkiga buklanadi. Bunda kuchukning qulog'i hosil bo'ladi. So'ng ochiq pastki qismi buklanadi. Unda esa kuchukning tili hosil bo'ladi. Bu ishlarning hammasini bosqichma-bosqich yopishtirib chiqish kerak bo'ladi.



12-§. Applikatsiya haqida umumiy tushuncha

Olimlarning fikricha, insonlar eng kuchli rang sezishda 1300 xil rangni ajrata oladilar. Rang sezishni o'stirish orqali bolalarda estetik qobiliyat tarbiyalanadi. Qirqish texnologiyasini egallagan holda bolalar qog'ozdan, quritilgan o'simlikdan, somondan predmetli, mazmunli, dekorativ, applikatsiya ishlarini bajaradilar.

Applikatsiya xalq amaliy san'atida keng o'rin tutadi. Applikatsiya so'zining ma'nosi - qirqib olib yopishtirish demakdir. Bu usulda qog'oz, mato, charm, somon, quritilgan o'simliklar, urug'lar, tashlandiq narsalar, simlar, iplardan foydalanib har xil asarlar yaratish mumkin.

Applikatsiya – badiiy asarlar yaratishning eng sodda va oson usulidir, bunda tasvimga asosi saqlanadi. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadida ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanma, o'yinchoq, bayroq, sovg'a, devoriy gazeta, kostyumlarni tayyorlashgina emas, balki kartina, pano, naqshlarni va shu kabilarni yaratishda ham keng foydalanish mumkin. Applikatsiya bundan 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlarning paydo ijod mahsuli bo'lib, bu usulda ular kiyimbosh, turar joylarni bezatishgan. Applikatsiya ishida turli xalqlar turli materiallardan foydalanganlar. Masalan, yoqutlar applikatsiya ishida po'stloqdan foydalanishgan, bo'yalgan po'stloqdan qilingan applikatsiyalar bilan ular o'tovlarini bezashgan. Xanti-mansi, evenk va boshqa shimol xalqlari applikatsiyada teri, sukno, mo'yna ishlatishgan.²² Qozoq, qalmoq, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro'zg'or predmetlarini bezashda foydalanishgan. Gazlamadan applikatsiya materiali sifatida ancha keyinroq foydalanila boshlandi. Gazlama parchalarini fon xizmatini o'tovchi materialga tikib naqsh yaratilgan. Gazlamadan yasalgan applikatsiya bilan kiyimbosh, uy-ro'zg'or predmetlari bezatilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkaziladigan applikatsiya mashg'ulotlari bolalarning sezish qobiliyatlarining rivojlanishiga ta'sir etib, ularni estetik jihatdan tarbiyalaydi. Ijodiy faolligini, shuningdek, mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga va ularda xarakterning irodaviy xususiyatlarini vujudga kelishiga ta'sir etadi. Applikatsiya mashg'uloti jarayonida bola ranglar bilan tanishadi, shakl va predmetni tuzilishini bilishga o'rganadi. Ritm va simmetriya haqida tushunchalari kengayib borib, qog'oz varag'ida mo'ljall olishga o'rganadi. Bolalar applikatsiya faoliyatida rang va uning uyg'unlashuvi bilan juda ko'p marta mashq qiladilar, shuning uchun ular ko'plab rang va uning uyg'unlashuvini tezda esda saqlab qoladi va bir-biridan ajrata oladi.

Rangni sezish-estetik sezishning eng ommabop shakli hisoblanadi. Buning uchun uni rivojlantirish natijasida biz bolalarning estetik tarbiyasiga ta'sir ko'rsatamiz. Ular bu orqali shaklning go'zalligi, ritm va simmetriya'ni bilishga, sezishga o'rganadi. Bolalar ritm va simmetriya'ning qoidasini bilib olishi natijasida shaklning tartibli joylashishidan quvonadi tartib-qoidaning buzulishi bolani asabiylashtirib yuboradi.

²² R.Mavlonova, M.Satbayeva. "O'quv ustaxonasida amaliy mashg'ulot". T. Ilm-ziyo. 2011y. 50-bet

Applikatsiya mashg'ulotlarida bolalar ko'pincha geometrik shakllar bilan munosabatda bo'ladi natijada ular tevarak-atrofdagi predmetlarda geometrik shakllarni abstrakt ko'rinishini ko'ra olishga o'rganadi. Murakkab shakllarni tuzilishini yaxshiroq tushunishiga, ularni to'g'ri tahlil va sintez qilishga o'rganadi. Bolalar geometrik shakllar bilan tanishishi jarayonida hali o'ziga tanish bo'lmagan figuralarning nomini bilib oladilar. Masalan, bolalar shaklning burchaklarini sanab, uchburchak yoki to'rtburchak, keyinchalik mustaqil beshburchak kabi shakllar nomini bilib boradilar. Applikatsiya mashg'ulotlari tugaydi bolalarda masofani, fazoni va qog'oz betini to'g'ri mo'ljallay olish kabi ko'nikmalari rivojlanadi. Bolalar turli shakllarni qog'ozga yopishtirishda mantiqiy va ritmik holida joylashtirishga o'rganishlari, asosan o'rtasida, o'ngda, chapda, yuqorida, pastda, orqada, qarama-qarshi tomonda, atrofida kabi so'zlar bilan tanishib oladilar. Bolalarni qog'oz betida mo'ljall olishga o'rgatish, bolalarni maktabda muvaffaqiyatli o'qishning asosiy shartlaridan biridir.

Bolalar applikatsiya mashg'ulotlarida juda ko'p qimmatli mehnat malakalari va ko'nikmalarini egallaydilar. Ular ozoda, batartib yopishtirishga, qaychi bilan ishlashga o'z ish joylarini toza saqlashga o'rganadilar. Bularning barchasi bolalarning maktabdagi qo'l mehnati darsiga tayyorlaydi. Bolalar yengil va mayda qog'oz shakllari bilan ishlashi natijasida, ular o'z harakatlarini tezligini sekinlatishga o'rganadilar. Mashg'ulot jarayonida ular oz bo'lsada qiyinchilikni yengadi, bu esa bolalar xarakterida irodaviy xususiyati. chidam, sabr kabilarni tarbiyalaydi. Applikatsiya o'rgatish bolalar qabul qilish jarayonini o'stirishga asoslanadi. Shakl, hajm, rang, predmetni o'zaro munosabatlari haqidagi taassurotlarni boyitish bolalarni mashg'ulot vaqtida fikrlash va tasavvurni ishlatishga yordam beradi. Applikatsiya mashg'ulotlarida olgan malakalarini bolalar boshqa faoliyatda ham qo'llasi mumkin. Ammo har bir yosh guruhlarida applikatsiya mashg'ulotlari qo'llaniladigan ta'limiy usullari o'ziga xos xususiyatga egadir. Applikatsiya mashg'ulotlarini to'laqonli o'tkazish uchun material va jihozlarni oldindan tayyorlab qo'yish muhimdir.

Applikatsiya ishini bajarishda ishlatiladigan kerakli asbob uskunalar.

Asboblarni ishlatilishga mos bo'lishi bilan birga estetik talabga javob berishi kerak. Applikatsiya uchun kerakli ashyolar: qaychi, yelim, yelim

uchun mo'yqalam, oddiy qalam, qirqim uchun quticha, lattacha, salfetka qog'ozi (yelim artish uchun).

Qaychi – uchi to'g'ri, katta va kichik qaychilar. Katta qaychi 14-20 sm, to'g'ri, uchi uchli (aylanaviy katta tasvirlarni qirqish uchun).

Kichik qaychi: 8-10 sm mayda detallarni qirqish uchun qaychi o'tkir bo'lishi kerak. Stakanga qaychi uchi pastga qaragan holda qo'yilishi, do'stiga uzatganda ham uchini ushlagan holda uzatish kerak, qaychi ko'ndalangida qo'lni silkitish, o'qtalish mumkin emas. Undan ko'rsatish sifatida foydalanish mumkin emas.

Yelim uchun mo'yqalam. 2-3 ta turli kattalikdagi mo'yqalam bo'lish kerak. Mo'yqalam applikasiya'ning katta-kichikligiga bog'liq. Katta hajmdagi applikasiyaga uchi enli mo'yqalam, mayda detallarga esa, kichik mo'yqalamdan foydalanish maqsadga muvofiq. Ish tugagandan so'ng, mo'yqalamni yaxshilab yuvib, artib, quritib, mo'yini yuqoriga qilib qo'yish kerak (mo'yini tuzilishini saqlash uchun).

Mo'yqalam qo'ygich-yelim ishlatishda yelimning ortiqchasi surkalib stolni iflos qilmasligi uchun ishlatiladi.

Qalam. Tasvir konturini chizish uchun oddiy, M va TM (yumshoq, yarim yumshoq) qalam ishlatiladi. Ular yaxshi ochilgan bo'lishi kerak, kontur chizishda ruchka va kimyoviy qalamni ishlatish mumkin emas.

Yelim uchun idish. Yelim kichik idishchalarga solinadi. Buning uchun plastmassa idishlar, sopol taqsimchalar tanlanadi. Idishlarni ishlatib bo'lingandan so'ng tezda yuvib qo'yish kerak.

Kichik guruh tarbiyalanuvchilarini applikasiya qilishga o'rgatish. Maktabgacha ta'lim tashkilotida applikasiya mashg'ulotlari kichik guruhdan boshlab olib boriladi. Bu guruhda barcha mashg'ulotlarda bolalar tarbiyachi tomonidan qirqib berilgan tayyor shakllarni qog'ozga to'g'ri, turli xil joylashishda terib chiqib, yopishtirishga organadi. Bu guruhda asosiy vazifa bolalarga mo'yqalamni to'g'ri ushlash, yelimlash usullari va barmoqlar bilan harakat koordinatsiyasini o'rgatish hisoblanadi. Kattalar uchun oddiy hisoblangan, harakatlar ketma-ket bajariladi, ya'ni mo'yqalamni to'g'ri ushlab, unda ozgina yelim olish, shaklni teskari qo'yib, yelimni butun shaklga tekis qilib surish, surayotganda chap qo'lining barmog'i bilan shaklni tutib turish, so'ng mo'yqalamga ehtiyotkorlik bilan qo'yib, shaklni sekin rangli tomoniga o'girib, qog'oz varag'ining kerak joyiga qo'yish va salfetka yordamida sekin bosish, chekkalaridan chiqib ketgan ortiqcha yelimni sekingina artib

olish kerak. Bu yoshdagi bolalarga ana shu harakatlarni egallab olish, albatta oson emas. Eng sodda kvadrat va doira shakllardan ishni boshlash lozim. Yil davomida bolalar shu shakllarning nomini to'g'ri aytishni egallab olishlari lozim. Lekin butun yil davomida o'tkaziladigan applikasiya mashg'ulotlarida faqat u shakllar bilan kifoyalaniq qolib bo'lmaydi. Bu guruh bolalari dastlab bir keyin ikki-uch qismdan tuzilgan predmetlarni (qo'ziqorin, bayroqcha, qorbobo, uy) yopishtirishga o'rganadi. Shuningdek, yil oxiriga borib bolalar 6-7 xil rang: qizil, ko'k, sariq, yashil, jigarrangni to'g'ri aytib berishlari lozim. Bu guruh bolalariga qaychi berilmaydi, chunki bolalarning qo'li harakatlanmaydi u hali yetarli rivojlanmaganligi sababli bolalar qo'lidagi qaychi xavf tug'dirishi mumkin.

Kichik guruhda bolalarni applikasiya qilishga o'rgatishida ish uchun beriladigan materiallar va mashg'ulotni tashkil etish katta ahamiyatga ega. Materialning rangi bolalarni diqqatini tortib ularni chalg'itadi. Shuning uchun dastlabki mashg'ulotlarda material, tushuntirilib bo'lgandan so'ng tarqatilib, bolalar materialni topshiriqqa mos ravishda kesmaga terib chiqadilar. Tarbiyachi dastlab elementlar qo'yib chiqilganini tekshiradi, shundan keyingina bolalarga yelim ishlatish uchun beriladi. Bu guruhda tarbiyachi bolalar bilan namuna uchun berilgan ko'rsatish jarayonida uning shaklini, rangini aniq atash va barmog'i bilan ko'rsatib, shu shaklning xususiyatlari haqida to'liq ma'lumot beradi. Tarbiyachi tomonidan ishni bajarilishini ko'rsatib berilishi, bolalarni turli malaka va o'quvini vujudga kelishida muhimdir. Shuningdek, tarbiyachi ish tartibini ham boshidan ko'rsatib boradi, qanday shaklni oldi, qanday qilib u yelim surtdi va boshqalar. Tarbiyachi o'zining har bir harakatini so'z bilan birgalikda olib boradi.

Kichik maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar esa tayyor shakllarni va ularning rangini bir-biriga moslab, tanlab yopishtiradilar. Shunday qilib, olib borilgan tekshirish ishlari shuni ko'rsatadiki, yaxshi uyushtirilgan applikasiya mashg'ulotlari, bolalarni boshqa dekorativ, predmetli va syujetli mashg'ulotlariga ijobiy ta'sir etadi. Bolalarda sensor madaniyat oshadi, qo'l bilan tahlil qobiliyati o'sadi va badiiy didlari shakllanadi.

O'rta guruh tarbiyalanuvchilarini applikasiya qilishga o'rgatish.

Bola hayotining 5-yiliga kelib ham psixologik, ham jismoniy tomondan o'sadi. Bu esa bolaning applikasiya bo'yicha bajaradigan

ishning sifat jihatidan o'zgarishiga olib keladi. Bolalar tuzilish jihatdan ancha murakkab bo'lgan predmetlarni tasvirlashga o'rganadi.

O'rta guruh bolalari kichik guruhga nisbatan ancha ko'proq malaka va ko'nikmalarini ancha egallagan bo'ladilar. Bu guruh bolalari 2-3 qismli emas, balki 4-5 qismdan iborat predmetlarni tuzishga o'rganadi. Bu guruhga dastlab qaychi bilan ishlash: uni to'g'ri ushlash, uni richagini yopish va ochish, to'g'ri qirqim olish usullari o'rgatiladi. Buning uchun bolalar oldin andoza, keyin esa enli yoki keng qog'oz lentalar qirqishga o'rganadilar.²³ Bu guruhda bolalar yelimlash malakasini egallashi davom ettiriladi. Bola hayotining 5 yilida doira, kvadratdan tashqari uchburchak, oval, uzun to'g'ri to'rtburchakni biladi. Trapetsiya shaklini esa kichik guruhda bo'lgani kabi obrazli tasvirda o'rganadi. Masalan: tom, qayiqcha. Kichik guruh bolalari qo'shimcha ravishda havo rang, pushti, kulrangni farqlash va to'g'ri aytishga o'rganadilar. Ular qog'oz varag'ida tez va osonlik bilan mo'ljallashga erishadi. Ular orqada, ketma-ket, teng masofada va boshqa fazoviy tushunchalarni egallaydi. Bolalar to'g'ri kesmalar qirqishdan tashqari aylana shakllar qirqishga o'rganadi. Ular kvadrat va to'g'ri to'rtburchakning burchaklarini aylana shaklda qirqib qo'ziqorin, minorcha, qorbobo kabi predmetlarni hosil qilishga o'rganadi.

Yopishtiriladigan detallar soni ham ko'payadi, masalan: uychni tasvirlashda faqat devori emas, balki eshik va derazalarni ham tasvirlaydi. Shakl va rang bilan ishlash ham rivojlanadi: to'rtburchak, kvadrat, doira, uchburchak, pushtirang, kulrang, havorang va boshqalar. Bu guruhda qog'oz varag'ida to'g'ri mo'ljallashga o'rganadilar va quyidagi tushunchalar bilan tanishib boradilar: orasida, chekkada, bir xil masofada va boshqalar. O'rta guruhda tarbiyachi o'zining asosiy diqqatini bolalarni qaychi bilan ishlashiga qaratadi va yil davomida bolalarni qirqishning turli usullari bilan tanishtiradi. Har bir applikatsiya mashg'ulotining mavzu va mazmuni turlicha bo'lishi lozim. Masalan: dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalarga «do'kon» uchun chipta, cheklar qirqishni taklif etadi yoki qirqilgan kesmalardan uycha, daraxt, panjara, narvon kabi predmetlarning oddiy ko'rinishini tasvirlashi mumkin. Bu esa bolalarni mashg'ulotga qiziqishini oshiradi. Bir-ikkita mashg'ulotni o'tkazgach, keyingi mashg'ulotlarni bolalarni ijodiy faolligini o'stirish uchun tavsiya etish mumkin. Bolalar o'zlari qirqib olgan rangli

kesmachalardan turli xil predmetlarning ko'rinishini tasvirlaydilar. Masalan: yulduzlar, bayroqchalar, gullar. Keyingi applikatsiya mashg'ulotlarida bolalarni to'rtburchak, kvadratni diagonal bo'yicha, trapetsiya va uchburchak hosil qilishga o'rgatiladi. Sharf, sochiqni kvadrat va uchburchaklar bilan bezaydilar, shuningdek, kvadrat-gilam, doira-likopcha kabi bezaladi. Tayyor siluetlar ham berish mumkin. Bolalar oval va doira shaklini hosil qilib qirqishga ancha qiynaladi. Ular doiraviy shakldagi predmetlardan: meva-sabzavotlar, piramida va boshqalarni qirqib yopishtiradilar. O'quv yilining davomida bolalarga mazmunli applikatsiya ishlarini ham taklif etish mumkin. Masalan: Bo'g'irsoq yo'ldan dumalab ketayapti, o'tloqdagi jo'jalar, qo'ziqorinlar.

Bu guruhda bolalarni jamoa bo'lib ishlashga o'rgatamiz. Masalan: katta gilam, sabzavot va mevalardan tashkil topgan savat, osmonda samolyotni tasvirlashi mumkin. Bundan tashqari, bolalar o'z xohishlari bo'yicha xilma-xil applikatsiya ishlarini bajaradilar, «Onam uchun sovg'a» yoki tayyor siluetni naqshlar bilan bezatish mumkin. Tarbiyachi o'rta guruh bolalarining o'zlariga tasvirlanayotgan predmet haqida gapirib berish, uning sifat belgisini aniq aytib berish, tasviriy yo'llarini mustaqil bilishga o'rgatib boradi. Bolalar predmetning tasvirini tuzish orqali, o'sha predmet shaklini qirqishga, uning tuzilishini to'g'ri tasvirlashga, qismlarning katta-kichikligini to'g'ri tanlashga o'rganib boradilar. Mashg'ulotda eng muhim metodlardan biri yopishtirishni ko'rsatish va tushuntirish hisoblanadi. Yopishtirish jarayonini hamma bolalarga ko'rinadigan qilib, namoyish etish lozim. Buning uchun doskadan foydalanish mumkin. Shuningdek, yopishtirish jarayonida ketma-ketlikni bolalar yaxshilab o'zlashtirib olishlari lozim. Bolalar ishini ko'rib chiqish va tahlil qilish davomida ularning ishini maqtash lozim. Keyingi mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalar ishining ozoda bajarilgan, rang to'g'ri tanlangan va qog'ozda bexato joylashtirilganini hisobga olib, tahlil qiladi va bolalarni ham shunga o'rgatib boradi.

Katta guruh tarbiyalanuvchilarini applikatsiya qilishga o'rgatish.

Katta guruhlarda mashg'ulotning ma'lum bir qismi kichik guruhlar ikki va undan ortiq bolalarga bo'linib tashkil etilishi kerak. Bolalar birgalikda oldida turgan vazifani muhokama qiladi, ish tartibini rejalashtirishadi, bir-birlariga yordam ko'rsatadi. Applikatsiya mashg'uloti shartsiz ravishda bolalarda ijodiy qobiliyatlarining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

²³ Кузнецова Л. Изготовление детьми игрушек для кукольных театров. // Дшшкольное воспитание, 1990. №1. С.15

Bola hayotining 6-yiliga kelib bolalarda qo'l mushaklari rivojlangan bo'lib, qaychi bilan bajaradigan harakatlari ancha aniq va ishonchli bo'ladi, bu esa o'z-o'zidan applikatsiyaga o'rgatishning ancha murakkab vazifalarini bajarish imkonini beradi. Applikasiya mashg'ulotlari davomida predmet to'g'risida xilma-xil ma'lumotlar berib boriladi. Bolalar turli shakllarni atashga, kvadrat, to'rtburchakni bir-biridan farq qilishga, ularning asosiy belgilarini farqlashga o'rgatib boriladi. Shuningdek, bolalar oval, doira, uchburchakni to'g'ri ajratishga o'rgatiladi. Shunday qilib, bolalar faqat shakllar bilan emas, balki ranglar bilan tanishib boradi. Masalan: och, to'q, yorqin ranglar va boshqalar. Bular orqali bolalar rangni ajratish, uni tanlay bilishga o'rganib boradilar. Applikasiya yasash jarayonida figuralarni bir-biri bilan taqqoslashga o'rganadi, baland-past, keng-tor, ya'ni qalin-ingichka kabi tushunchalarni egallab, tushunib boradilar. Shuningdek, qog'oz varag'ini mo'ljallay bilish bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar, tepada, pastda, o'rtasida, ketma-ket tushunchalarni egallashga harakat qiladi. Bu ishda bolalarni qaychi bilan qirqish usullariga o'rgatib borish davom ettiriladi. O'rgatib borish davomida o'rta guruhda egallagan qirqish usullarini takrorlab, mustahkamlaydi yangi qirqish usullarini o'rganadi. Bular quyidagilar: qog'ozni 2 buklab bir xil shakllar qirqish, simmetrik shakllarini ham bir necha marta buklab (garmoshka qilib taxlab) qirqishga o'rganadilar. Masalan: gullar, barglar va hokazo. Bu guruhda tarbiyachi bolalarning diqqatini doimo ishning sifatiga qaratib boradi. Chunki qirqish va yopishtirishning sifati butun bir ishning yoki applikasiya'ning sifatiga ta'sir etadi. O'quv yilining boshida bolalar bilan doiraviy shakllarni qirqish ustida ishlanadi, chunki bolalar bu usulni o'rta guruhda yetarli darajada egallamagan bo'ladi. Bolalar predmetlarni qismlarga bo'lib, qirqib yopishtirishni o'rgangach, ularning qirqishning ratsional usuli, ya'ni garmoshka usulida qog'ozni buklab qirqishga o'rganadi. Ammo yilning boshida dumaloq shaklidagi predmetlarni qirqishni mustahkamlash uchun tarbiyachi quyidagi mavzularda ishlar berishi mumkin: barglar, sabzavotlar, mevalar, qo'ziqorinlar va hokazo. O'quv yili davomida bolalar samolyot, raketa, mashina, trolleybus kabi predmetli applikasiya ishlarini bajaradilar. va hokazo. Qog'ozni garmoshka usulida buklab qirqishga turli xil predmetlarni taklif qilish mumkin. Masalan: bargli shoxcha, gullar, archa o'yinchoqlari. Shuningdek, dekorativ applikasiya bo'yicha ham shar, sochiq, kvadrat, gilam, doira, tarelka va shuningdek,

tayyor siluettlarni: soyabon, choynak, fartuk kabilarni bezatishni taklif etish mumkin. Bolalarni simmetrik figuralarni qirqishga o'rgatishda tarbiyachi simmetrik tuzilishga ega bo'lgan predmetlarni taklif etadi. Masalan: guldon, nok, kapalak, masxaraboz va hokazo.

Bolalar predmetli, dekorativ applikasiyadan tashqari mazmunli applikasiya ham bajaradi. Masalan: quyonning bo'g'irsoq bilan uch-rashuvi, qor bosgan uycha, bayroq ushlab turgan qizcha va h k. Katta guruhda bolalar o'z ixtiyori bilan ham applikasiya ishlarini bajaradilar. Bolalar olgan bilim, malaka asosida o'zlari mustaqil applikasiya ishlarini bajaradi. Applikasiya mashg'ulotlarida bolalar jamoa bo'lib ishlaydilar. O'rta guruhda applikasiya mashg'ulotida tasvirlash kerak bo'lgan predmetlarni tahlil qilishga ham vaqt ajratiladi va unda bolalarni savollar bilan aktivlashtirilsa, katta guruhlarda esa bolalar mustaqilligi ko'proq ta'minlanadi. Tahlil jarayonida bolalar predmetning shakliga, rangiga, turli xil xususiyatlariga e'tibor berishi lozim. Xalq amaliy san'ati asarlarini ko'rib tahlil qilishga, bolalarga ranglar uyg'unligini sezishga, ko'pincha kompozitsiya'ning mazmunini ochishga o'rgatiladi. Har bir qirqish usullarini ko'rsatib berish maqsadga muvofiq emas. Tarbiyachi ko'proq bolalarning o'zlariga mustaqil ravishda qirqish yo'llarini, yopishtirish tartibini qidirib topishga va faol bo'lishga undaydi. Agarda yangi qirqish usullari kiritiladigan bo'lsa, tarbiyachining o'zi qirqish yo'llarini ko'rsatib beradi. Masalan: bolalar qat-qat usulida va simmetrik figuralarni qirqishda ancha qiynaladilar. Shuningdek, tarbiyachi ayrim predmetning qog'ozdagi tasviridan foydalanishi mumkin (qo'l harakatlari bilan yurgizib chiqishi mumkin). Dastlab tarbiyachi «predmetning yarmi» deb tushuntirishi asosida bolalar bu usulni tushunib yetadilar. Bu guruhda bolalar qog'ozni qo'l bilan yirtib, mayda bo'lakchalardan foydalanib tasvirini hosil qilishga o'rganadilar. Tarbiyachi bolalarni mustaqil, ijodiy ishlashga o'rgatib, mazmunder applikasiya yaratishga, tayyorlov guruhga o'tgach, ularning applikasiya bo'limi ancha murakkablashadi. Ular qirqishning yangi usullarini egallay boshlaydilar. Bu usullar bir necha marta buklangan qog'ozdan qirqish va siluet qirqish hisoblanadi. Shu bilan bu guruh bolalari turli xil shakllarda dekorativ naqsh chizishga, bir necha qismdan tuzilgan predmetlarni yasashga hamda mazmunli applikasiya tuzishda predmetlarni joylashtirishni o'rganadilar. Shu bilan birga rang spektrining barcha ranglaridan foydalanishga o'rganadilar.

Siluet qirqish eng murakkab usullardan biridir. Siluet qirqish jarayonida bola doimo predmetning obrazini xotirasida tutib turishga va uning konstruksiyasi va proporsiyasini kuzatib turishga, qo'l harakatini hosil qilinayotgan shaklning yo'nalishiga moslashiga to'g'ri keladi. shuning uchun bolalarni siluet qirqishga o'rgatishni sodda shakllardan baliqlar, sabzavot, mevalardan boshlash lozim.

Katta guruhda bolalarni applikatsiya qilishga o'rgatishda quyidagilar muhim. Bular: Bolalarni to'g'ri harakat bo'ylab qirqish, dumaloq shakllarni va ikkiga buklangan qog'ozni qirqishga o'rgatiladi. Bir nechta qismdan iborat bo'lgan predmetlarni yasashga, geometrik va simli shakllardan chiroyli dekorativ naqsh hosil qilishni o'rganadilar. Demak, bu guruhda asosiy vazifa qirqishning xilma-xil usullarini egallashdan iborat. Oldin bu guruhda ham o'rta guruhdagi kabi mavzularda, faqat detallar soni ko'paytirilib boriladi. Masalan, qorbobo boshida qalpog'i yoki qo'lida xaltasi bilan, samolyot esa qanotlarida yulduzi bilan tasvirlanadi. Bu usullarning ishlatilishi vaqtini ancha tejaydi, natijada mukammal kompozitsiya'ni hosil bo'ladi. Qog'ozni ikkiga buklab qirqish, bir-biriga simmetrik shakllarni qirqishni osonlashtiradi. Bu usuldan foydalanib bolalar vaza, barglar, sabzavot va mevalarni shaklini qirqadilar. Katta guruhda bolalar shakllarni qog'ozning uchini qo'li bilan tekislab, barmoqlarda qirqishga o'rganadilar. Dekorativ applikatsiya ishlarida esa bu guruhda faqatgina tayyor geometrik shakllar berilmay, balki xilma-xil o'simlik shakllaridan barg gullar va boshqa elementlar kiritiladi.

Tayyorlov guruhga o'tgach, ularning applikatsiya bo'limi ancha murakkablashadi, ular qirqishning yangi usullarini egallay boshlaydilar.

Katta guruh bolalarini applikatsiya qilishga o'rgatishda qirqimning turli usullarini egallash muhim ahamiyatga egadir. Bolalarning tasavvuriga asoslangan holda tarbiyachi bolalar bilan predmetni, uning qismlari, tuzilishini tahlil qilib, alohida qismlarga ajratib ko'rsatadi. Namunada agar bolalar predmetni birinchi marta tasvirlayotgan bo'lsa foydalanish maqsadga muvofiq. Uni tahlil qilishni bolalarning o'ziga topshirish mumkin bo'ladi. Agar bolalar o'zlariga tanish predmetni bir necha detallari bilan tasvirlanayotgan bo'lsa, namuna o'rni nura bilan almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan: oddiy uyni emas, afsonaviy uyni yoki bayramga bezatilgan uyni katta va tayyorlov guruhlarda bir necha namunalardan foydalanib, ko'rsatish tavsiya etiladi. Chunki bu narsa

bolalarning ijodiy faolligini tarbiyalaydi. Bu guruhda bolalar qog'ozni ingichka buklab, undan simmetrik shakllar qirqishni o'rganadilar. Bu albatta qiyin usul, shuning uchun bolalarni bu usul bilan dastlab tanishtirishda qog'ozni buklab kontur bilan chizish tavsiya etiladi. Bolalar bu usulni egallab olgach, ular qunt bilan chamalab qirqishga o'rgatiladi. Katta guruhda jamoa bo'lib applikatsiyalar bajariladi. Masalan: «Akvariumdagi baliqlar», «O'tloqdagi gullar», «Ko'chadagi uy va mashinalar». Har bir bola ishning qaysidir qismini bajaradi. Keyin har bir qism umumiy fonga birlashtiriladi. Tarbiyachi ishni bolalarni xohishiga qarab taqsimlaydi. Ba'zi jamoa ishlarni bajarishda bolalar 4-5 ta bo'lib, guruhchalarga birlashishadi.

Tayyorlov guruhida applikatsiya qilishga o'rgatish.

Tayyorlov guruh bolalari bilan dasturda mazmunli applikatsiyalarni bajarish ko'zda tutilgan. Ular «Ko'cha», «Akvarium» kabi mavzularda, shuningdek, «Bo'g'irsoq» kabi ertaklarga illyustratsiyalar bajarishlari mumkin. Tayyor shakllarni yopishtirish tayyorlov guruhida ham davom ettiriladi. Simmetrik shakllardan naqshlar chizishda turli o'lcham va rangdagi tayyor shakllar beriladi va bu guruhda ham katta guruhdagi kabi qog'ozni qo'l bilan yirtish usulidan foydalanish davom etiladi. Ikkinchi kichik guruhda bolalarni applikatsiya qilishga o'rgatishga ish uchun beriladigan materiallar va mashg'ulotni tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Materialning rangi bolalarni diqqatini o'ziga tortib ularni chalg'itadi. Shuning uchun dastlab mashg'ulotlarda material alohida paketlarda tushuntirilib bo'lgandan so'ng tarqatiladi. Tarbiyachi mavzuni tushuntirib bo'lgandan so'ng material tarqatilib, bolalar materialni topshiriqqa mos ravishda qog'oz varag'ida terib chiqadilar. Tarbiyachi dastlab elementlarni qo'yib yig'ilganligini tekshiradi, shundan keyingina dastlab bolalarga yelim ishlatish uchun beriladi. Bu guruhda tarbiyachi bolalar bilan naturani kuzatishni namuna bilan birgalikda olib borishi kerak. Namunani kuzatish jarayonida tarbiyachi shaklning rangini aniq atashi va shaklning xususiyatlarini bolaga aniq tasvirlab berishi lozim. Tarbiyachi tomonidan ishni bajarilishining ko'rsatib berilishi bolalarda turli malaka va o'quvini vujudga kelishida muhimdir. Shuningdek, tarbiyachi ish tartibini ham boshidan ko'rsatib beradi. Qanday shaklni oldi, qanday qilib qo'yib yelim surtdi va boshqalar. Tarbiyachi o'zining har bir harakatini so'z bilan birgalikda olib boradi.

Tayyorlov guruhda ishning dastur materialiga siluet qirqish usuli kiritiladi. Shuning uchun o'rgatish usullarining xarakteri birmuncha o'zgaradi. Naturani tahlil qilishda tarbiyachi barmoq harakati orqali ularning diqqatini predmetni konturiga qaratadi. Bunda harakatni qirqish qaysi qismdan boshlansa o'sha qismdan boshlash lozim. Bu guruhda bolalar endi predmet konturi bo'ylab detal qirqishni o'rganadilar (tipratikan ignalari bilan). Albatta bolalarga bu qiyin. Shuning uchun bu ishda ikki etapdan foydalaniladi. Oldin tayyorlangan qog'ozdan umumiy kontur qirqiladi. So'ngra uning detallari, masalan: oyog'i yoki suzgichlari qirqiladi. Ba'zi vaqtlarda siluet oldindan chizilgan kontur asosida qirqiladi. Bu narsa ko'proq murakkab o'simlik elementlaridan dekorativ shakllar yasashda qo'llaniladi. Bu guruhda qog'ozni ikkiga buklab qirqishning murakkabroq usuli bilan tanishtiriladi. Masalan: archa, odam, hayvon shakllari. Bundan tashqari, bu guruhda qirqishning murakkab usuli qog'ozni bir necha marta buklash orqali qirqishga o'rgatiladi. Bu usul salfetka, qor parchalari hosil qilishda qo'llaniladi. Tarbiyachi bolalarga qog'ozni qanday buklash kerakligini, qirqish yo'llarini ko'rsatib beradi. Bu usuldan bolalar keyin dekorativ applikasiya mashg'ulotlarida foydalanadi. Bu guruhda hali syujetli applikasiya qilish davom ettiriladi. Bunda bolalar shakllarni to'g'ri joylashtirib, yopishtirishga o'rgatiladi. Oldin umumiy fon, keyin uzoqdan, o'rtada va oldinda joylashgan predmetlar yopishtiriladi. Tayyorlov guruhda applikasiya jamoaviy ish sifatida berilishi mumkin. Masalan: «Egri va to'g'ri» ertagida bolalar 4 tadan bo'lib, har bir guruh shu ertakdan ma'lum bir ko'rinishni bajarishlari mumkin. Bolalar shu ko'rinish elementlarini qirqib, joylashtirib qurganlaridan so'ng uni qanday ketma-ketlikda yopishtirish kerakligini aniqlaydilar. Biri yelim surtadi, ikkinchisi uni joylashtiradi, uchinchisi paxta bilan mahkam yopishtiradi. Bu ish bolalarni o'rtoqlik, jamoatchilik ruhida tarbiyalashda katta qimmatga egadir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining hamma guruhlarida ixtiyoriy applikasiya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Lekin o'rta guruh bolalariga o'ylagan mavzulari asosida tayyor shakllar beriladi. Katta guruhlarda esa o'zlari o'ylagan mavzu asosida qirqadilar. 6-7 yoshdagi bolalar oldindan qiladigan ishlari mavzu andozasini oddiy qalam bilan chizib olishi, keyin esa shu andozaning detallarini applikasiya qilishlari mumkin.

Geometrik shaklli applikasiyalar.

Applikatsiya qilishda asosiy e'tibor uning umumiy kompozitsiyasiga qaratilishi kerak. Yaxshi o'ylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo'lgan narsalarni joylashtirish – applikasiya muvaffaqiyatining garovidir. Eng oddiy applikasiya bu geometrik shakllardan qilinadigan naqshli applikasiyadir. ²⁴Avval naqshning xomaki nusxasi tuziladi, so'ngra kerakli detallar (geometrik shakllar) o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detaillar tayyorlanib ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl kvadratni olib, uning bir tekis almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib ko'ramiz. Agarda kvadrat boshqa elementlar, masalan uchburchak bilan to'ldirilsa, variant yanada ko'payadi. Ishni boshlash uchun markazni topish simmetriya o'qini o'tkazish va naqsh elementlarini shunga ko'ra joylashtirish lozim. Agarda geometrik shakllar kvadrat yoki aylanaga simmetrik joylashtirilsa, qiziqarli dekorativ naqsh hosil bo'ladi.

Dekorativ applikasiya – alohida-alohida tasvirlar (barg, shox, qo'ziqorin, qush, mashina, odam, uy va shu kabilardan tarkib topuvchi predmetli hodisa, harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi sujetdan iborat bo'lishi mumkin.

Mazmunli applikasiya.

Bu applikasiya kompozitsiyaga ko'ra oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Murakkab mazmunli applikasiya ertaklar, hikoyalar va shu kabilarga illyustratsiya sifatida yasaladi. Agarda sujet oddiy bo'lsa, tasvirlarni oldindan belgilamay qirqish mumkin. Bu applikasiyada ma'lum bir mazmunni ifodalasa bo'ladi. Bu badiiy asar uchun illyustratsiya bo'lishi mumkin. Applikasiyada manzara va narsalarning hajmini, rangini, soya va yorug'lik tushayotgan tomonini munosib rang berib ko'rsatish mumkin.

13-§. Pape-mashe usuli.

«Pape-mashe» kelib chiqish tarixiga ko'ra, Fransiyada ixtiro qilingan. «Pape-mashe» so'zi fransuz rassomining ism sharifidan olingan. Rassom qo'lda g'ijimlash orqali qog'oz va xamirni aralashtirib,

²⁴ Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. D.Azimova. "Ustaxonada amaliy mashg'ulot". "Cho'lpon", T. 2010y.52-bet

plastilinga o'xshash massa hosil qiladi va shu massadan turli xil shakllar yasaydi.

Pape-mashedan o'yinchoq yasash usuli uzoq vaqt davom etadigan jarayon hisoblanib, bu usulda jihozlar yasash davomida talabalar haykaltaroshlikning barcha usullaridan foydalanadi. Pape-mashe usulida massa tayyorlashning bir nechta turi bo'lib quyida ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Lagan yasash.

Kerakli jihozlar: suv shimadigan qog'oz; suv; massa tayyorlash uchun idish; vazelin yoki plyonka; PVA yelim; qum qog'oz kerak bo'ladi.

Suvli idishga qog'ozni ivitib, oldindan massa tayyorlab olamiz, lagan sirtiga vazelin sirtamiz yoki plyonka qo'yib chiqamiz. Oldindan tayyorlangan massani lagan sirtiga tekis qilib surtib chiqamiz, navbatdagi qog'oz qavati esa boshqa qog'oz bo'laklariga PVA yelim bilan yopishtiramiz. Bu holat 6 yoki 8 marotaba takrorlanadi. Bir kun mobaynida yaxshi quriganidan so'ng, lagan sirtidagi qog'oz qolip ajratib olinadi, qog'ozning ichki qismi qum qog'oz bilan tekislanib, unga xohlagan rasm nusxasini tushirish mumkin.²⁵

Konus shaklida qo'g'irchoq yasash usuli.

Kerakli jihozlar: Massa tayyorlash uchun idish; suv shimadigan qog'oz; PVA yelimi; qum qog'oz; bo'yoq (guash); maydalangan bo'r;

Avval qo'g'irchoqning boshi yasaladi, buning uchun pufakni shishirib dumaloq shakl hosil qilamiz. Sharning sirtiga suvda namlangan qog'oz bo'laklarini bir tekis joylashtirib chiqamiz, ustidan PVA yelimini surtib, qolgan qog'oz bo'laklarini ham yelimlaymiz. Bu holat 6 yoki 8 marotaba takrorlanadi. Ustki qavati tekis bo'lishi uchun oldindan maydalangan bo'r yelim bilan aralashtirilib surtib chiqiladi. Yasalgan shar bir kun mobaynida quriydi. Qurigandan so'ng qo'g'irchoqning yuzi kerakli bo'yoq bilan bo'yaladi. Bo'yoq qurigandan so'ng qo'g'irchoqning qosh, ko'z, burun, og'izlari chizib chiqiladi. Qo'g'irchoqning bosh qismi quruguncha uning tanasini tayyorlaymiz. Buning uchun bizga sirkul, karton qog'ozi, qo'g'irchoq ko'ylagi uchun mato, ozgina sintefon va yelim kerak bo'ladi.

Sirkul yoki trafaret yordamida qo'g'irchoq boshining diametriga mos doira qirqib olinadi, ikkiga buklanib, shu chiziqli bo'ylab qirqiladi, yarimdoiralardan esa konus yasaladi. Yasalgan konus sirtiga oldindan konus shaklida qirqib olingan qo'g'irchoqning ko'ylagi yopishtiriladi. Qo'g'irchoqning yengi va panjalari imatodan tikilib sintefon bilan to'ldiriladi hamda konusda mos teshiklar hosil qilinib, ularga qo'llar, tikib yoki yopishtirib qo'yiladi. Qo'g'irchoqning ko'ylagini to'r yoki munchoqlar bilan bezatish mumkin. Konusning teppa qismiga mato yopishtirib chiqiladi bu joyga qo'g'irchoqning bosh qismi yopishtiriladi. Qo'g'irchoq boshi konusda quriydi. Keyin ustiga chiziladi, detallar yopishtiriladi (sochlar, ro'mol va h.k.). Bir necha shunday konuslar bo'lsa, istalgan o'yinchoqni tezda yasash mumkin.

14-§. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar kichik yoshidan boshlab ona tabiatning go'zalligini his qilishga o'rgatilib, unga nisbatan muhabbat shakllantiriladi. Respublikamiz tabiiy boyliklar, flora va fauna olamiga boy o'lkadir.

Tabiiy materialni butun yil davomida yig'ish mumkin, chunki yilning har bir fasli ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tabiiy materiallarni to'plash va ular bilan ishlash jarayoni ilm-fan va tabiat faoliyat markazi bilan bevosita bog'liqdir.

MTT ijodiy faoliyat jarayonida ishlatish mumkin bo'lgan tabiiy mahsulotlar:

1. Poliz ekinlarining urug'lari.
2. Quritilgan barglar.
3. Mevalarning danagi va urug'lari.
4. Chig'anoqlar.
5. Yong'oq va yer-yong'oq po'sti.
6. Paxta chanog'i va chigiti.
7. Somon va o'simliklar poyasi.

Ishlatish mumkin bo'lmagan mahsulotlar:

1. Guruch.
2. Oqshoq.
3. No'xat.
4. Jo'xori.
5. Mosh.
6. Grechka.
7. Loviya.
8. Bug'doy.

Tabiiy materialni yig'ish tarbiyachining o'z oldiga qo'yan maqsadiga bog'liq. Tabiiy materiallar bilan ishlash faoliyatini bolalarni sayrga olib chiqish va tabiatni kuzatishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Sayr davomida tarbiyachi bolalarga tabiatdagi tabiiy mahsulotlar, daraxtlarning barglari, novdalari, toshlar va qumlar ularning

²⁵ Халезова Н.Б., Курочкина Н.А., Пантюхина Г.В., «Лепка в детском саду». Просвещение. М., 1986. С.102

xususiyatlari haqida ma'lumot beradi. Bolalarga tabiiy mahsulotlar bilan yaqindan tanishish uchun ularni ushlab ko'rishlariga imkon beriladi.

Barglar bilan ishlash.

Barglarni yig'ish va ular bilan ishlashni kuz faslining oktabr va noyabr oylariga rejalashtirgan ma'qul. Bu davrda daraxtlarning barglari turli rangda tovlanib, to'kila boshlaydi. Bolalar bilan bog'cha hovlisiga uyushtirilgan sayr paytida ularga daraxt barglarini to'plash taklif etiladi. Barglarni o'z qo'llari bilan yig'ish davomida bolalar ularning ranglari va shakllarini qiyoslashga o'rganadilar. Bunday sayrdan so'ng bolalarning o'zlari to'plagan materiallardan mustaqil applikatsiya ishlarini tayyorlasalar bu jarayonga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi.²⁶ Barglardan applikatsiya ishini bajarishda tarbiyachi oldindan tayyorlab qo'yan namunani bolalarga ko'rsatadi. Tarbiyachi baliq rasmi tasvirlangan plakatni ko'rsatib, bolalar bilan birgalikda baliq tanasi, uning boshi, qanotlari va dumini tahlil qiladi. Shundan so'ng ishini bajarish tartibi aniqlanadi. Applikatsiya ishini bajarish uchun kerakli jihozlarning nomlarini bolalar bilan birgalikda aniqlanadi, Barglardan applikatsiya ishlarini bajarishda, qaysi bargni qanday tartibda yelimlanishi va bargning joylarini to'g'ri aniqlash kerak bo'ladi. Ana shunda biz yasayotgan narsamizga mos bo'ladi va kutgan natijaga erishamiz.

Somon bilan ishlash.

Somon bilan ishlash uchun kerakli jihozlar:

Somon poyasi (30-40 sm); pichoq; suv qaynatishga idish; dazmol; oq qog'oz; yelim.

Somonni qaynoq suvda 15-20 daqiqa bo'ktirib olamiz so'ngra har birini ichini yorib orqa va oldi tomondan dazmollab chiqamiz. Keyingi ishimiz somonni oq qog'ozga zich qilib, yelimlab chiqishdir. Shundan so'ng hosil qilmoqchi bo'lgan buyumimiz tasviridan andoza olib, somon yopishtirilgan qog'ozga chizamiz va tasvirni qirqib olamiz. Qirqib olingan tasvirni to'q fonga joylashtirib, uni old va orqa tarafdin dazmollab chiqamiz. Ish tayyor.

15-§. Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi

Amaliy san'atning eng keng tarqalgan turlaridan biri, bu kashtachilik bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga

kelgan. Unda asosiy o'rin olgan so'zana qadim zamonlardan har bir oilaning ko'rki bo'lgan. Kashtachilik san'ati uzoq tarixga ega bo'lib, hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan. Shuning uchun har bir oila o'zi uchun dorpech, oynaxalta, choyxalta, do'ppi, dastro'mol va boshqalarni o'zi tayyorlagan. O'zbek xalq ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, joynamoz, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Germaniya, Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Afg'oniston kabi xorijiy davlatlar muzeylarida doimiy eksponat sifatida saqlanib keladi. O'zbek kashtachilik buyumlarining qadimiy turlari hozirgi kungacha saqlanmagan. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. Ushbu ma'lumotlar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganini ko'rish mumkin. 1467-yili Kamoliddin Behzod «Zafarnoma» ga ishlagan «Temur taxtda» miniatyurasida chodirga ishlagan kashtani ham aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi ularning badiiyligiga putur yetkazdi. Qo'l kashtalari unutila boshlandi, hozirgi kungacha ularning ayrim turlarigina saqlanib qolgan. Kashtado'zlik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaniladigan naqshlari bo'ladi.

«Naqsh»-arabcha «tasvir», «gul» degan ma'noni anglatadi. O'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi, qozoq va qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi. Naqsh bilan amaliy san'at buyumlari bezatiladi, shuning uchun o'sha buyumning shakliga, vazifasiga va qanday materialdan tikilishiga butunlay bog'liq bo'ladi. Kashtachilikda o'ziga xos ish qurollari mavjud bo'lib, bular mato, turli o'lchamdagi ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigiz, to'g'nag'ich, angishvona, qaychi, chamberak, turli rangdagi ipak (mulina, zar ip).

Arag'chin – sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmator, iroqi chok usullarida tikiladi.

²⁶ R.Mavlonova, M.Satbayeva. "O'quv ustaxonasida amaliy mashg'ulot". T. Ilm-ziyo. 2011y. 62-bet

Tus do'ppi – keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb ham yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, zanjira, to'g'ri chok, chita, kungura, Yetalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do'ppisining tepasi kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi sidirg'a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

Joynamoz – yerga solib ustida namoz o'qiydigan to'shama. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi. Undan masjid, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o'lchamda bo'ladi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatiladi.

16-§. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash

O'yinchoq bola hayotining quvonchi va hamrohidir, u bola o'yinlarining qiziqarli o'tishiga bir vosita. Yumshoq o'yinchoqlarni bolalar bilan birgalikda tayyorlash qiziq jarayon bo'lib, bolaning u bilan o'ynash ishtiyoqini oshiradi.

Yumshoq o'yinchoq tayyorlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

Mato tanlash, matoga andoza chizish, qismlarni bichish, tikish va ichini pahta yoki sintifon bilan to'ldirish. Oxirgi ish qo'g'irchoqning ustini pardoqlashdir.

Andoza kardondan tayyorlanadi. Bichishda mato ikkiga buklanadi, matoning chap tomoniga andoza qo'yilib bo'r bilan chizib olamiz. Chizib olingan mato har tomonidan 0,5 sm chok uchun qoldirilib qirgiladi, so'ng qo'lda yoki mashinada tikiladi. Shakl o'ngiga ag'darilib, ochiq qoldirilgan joyidan ichi paxta bilan to'ldiriladi va qismlar bir-biriga ko'rinmas chok bilan birlashtirib tikiladi. Bolalar texnik jarayon bilan tanishtirilgandan so'ng o'yinchoq tayyorlashga o'tiladi.²⁷

Ayiqcha o'yinchog'ini tikish.

Kerakli jihozlar:

²⁷ Кузнецова Л. Изготовление детьми игрушек для кукольных театров. // Дошкольное воспитание, 1990. №1. С.16

Mo'ynali gazlama (qo'ng'ir rangli), sintefon, qaychi, ip, andoza.

Tayyorlash: Rasmda ko'rsatilgan chizma asosida ayiqchani andozasi tayyorlanib, matodan quyidagi detallar qirqib olinadi: tana 2 ta; dum 1 ta; bosh 2 ta; tumshuq uchun 1 ta; quloq 4 ta va maxsus tayyor ko'zlardan foydalanamiz. Qirgilgan detallar juftlanib ko'klanadi, so'ng o'ngiga tekislab shaklga keltiriladi, ochiq qoldirilgan joyidan ichi to'ldiriladi va qismlar bir-biriga ko'rinmas chok bilan birlashtirib tikiladi. Oxirida ayiqchani ko'zlari yopishtirib qo'yiladi.

17-§. O'yinchoqlarni to'qish texnologiyasi


O'zbek xotin-qizlari qadimdan qo'l hunarmandchiligining sirlarini chuqur egallaganlar. Turli xomashyolardan foydalangan holda kashta, jiyak, gilam, so'zana kabilarni tikish va to'qish bilan shug'ullanganlar. To'qish xalq amaliy san'atining bir turi hisoblanib, qo'lda to'qiladigan buyum va o'yinchoqlar o'zining betakror va bejirimligi bilan ajralib turadi.

1. To'qish qurollari bu — spitsa va ilgakdir. Spitsalar — nikellangan, po'lat, temir, alyumin, plastmassa va yog'ochdan yasalgan bo'ladi. Eng foydalanihga qulay spitsa po'latdan yasalgan, ikki uchi uchli yoki bir uchi uchli spitsadir.

Buyumni junli, jun aralash, ipak, paxta, quyon va echki yunglaridan, yigirilgan iplardan to'qish mumkin. Har bir ip uchun o'ziga mos ilgak tanlanadi, ilgak ipdan ikki baravar yo'g'on bo'lishi kerak.²⁸

Ilgak yordamida to'qish qo'l mehnati turlaridan biridir.

To'qish paytida ilgakni o'ng qo'lining bosh va ko'rsatkich barmog'i bilan ushlash va uni o'rta barmog' bilan ishga solib turish kerak. Ilgakda to'qilgan buyumlar halqaning shakli va o'lchamiga qarab har xil bo'ladi. Buyumning tekis to'qilishi



²⁸ Смолякова Т. Технология изготовления театральных кукол. Т., Янги аср авлоди, 2007. С.27

uchun ipni bir tekis tortib turish, halqani bog'lash, ularning soni va shakliga rioya qilib turish kerak. Agar halqaning o'lchami va shakliga rioya qilinmasa, halqalar sanab to'qilmasa, buyumning ko'rinishi va shakli buziladi.


Havo halqasi — kalavadan ilgak uchi bilan ipni ilib halqa hosil qilishdir. Bunda ilgakning o'zida birinchi halqani hosil qilib olamiz. Havo halqasining bir nechitasi zanjir hosil qiladi. Zanjir har qanday to'ring asosi hisoblanadi. Havo halqasining soni buyum o'lchamiga bog'liq bo'ladi. Havo halqasini to'qishda ularning o'lchamlari bir xil bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Ayrim buyumlarni to'qigan vaqtda ularni kengaytirish yoki zichlash-tirish, ya'ni halqa sonini kamaytirish yoki ko'paytirish kerak bo'ladi. Halqa qo'shish uchun asosiy halqaga ustamali yoki ustamasiz bitta halqa emas, ikkita, uchta halqa to'qish kerak. Buyumni qo'shimcha havo halqalari bilan kengaytirish mumkin, bu halqalar ustamali yoki ustamasiz ustunchalar orasiga to'qiladi.

Buyumlarni zichlashtirish uchun halqalar sonini qisqartirish lozim.

Bolalar boshmoqchasini to'qish: Jun yoki oddiy ipdan bolalar uchun boshmoqcha to'qish mumkin. Boshmoqchanning uzunligini bilish uchun, qog'oz ustiga oyoqning tagi o'lchovini tushirish kerak. Ish boshmoqcha tumshug'ini to'qishdan boshlanadi. Oltita halqadan iborat zanjir to'qiyimiz. Zanjirni zichlashimiz kerak. Buning uchun yetakchi halqali ilgakni chetidan ikkinchi halqaga qadaymiz va ustamasiz ustuncha to'qiyimiz. Zanjir bo'ylab yana to'rtta ustuncha to'qib, oxiriga yetkazamiz. 2-3 ta havo halqasi to'qib, zanjir to'qishni qarama-qarshi tomondan davom ettiramiz. So'ngra ikkinchi qatorga o'tamiz va 2-3 ta havo halqasi bor joygacha to'qiyimiz. Avvalgi qatorga qaraganda, bu qatorda ham 2-3 ta halqa qo'shamiz. Boshmoqcha tumshug'idan boshlab uning yuza chizig'ini hosil qilish uchun shunday qilinadi. Halqa qo'shish boshmoqchanning yuza tomonidan 2-3 havo halqasi to'qish hisobiga bo'ladi. Bu halqalarga har bir qator bilan ikkitadan qo'shimcha ustamasiz ustuncha to'qiyimiz. Yuza qarshisidagi qismi oyoq kafti hisoblanadi. Bunda boshmoqcha paypoq singari, ya'ni boshmoqchanning tumshug'ini to'qigandagi doira bo'yicha to'qiladi. So'ngra ipni uzmasdan, boshmoqchanning orqasini to'qishga kirishamiz. Boshmoqchanning qo'ng'i chuqurroq bo'lishi uchun, avval 10 ta havo halqasi to'qib olish kerak, so'ngra ilgakni teskari tomonga aylantirib, uchinchi halqadan boshlab

ustamali ustuncha yordamida zanjir to'qiyimiz. So'ngra boshmoqchanning asosiy qismini ustuncha bilan to'qishni davom ettiramiz. Xaltachaning qismini to'qib bo'lib, yana 10 ta havo halqasi to'qiyimiz, u boshmoqchanning ikkinchi tomonidan orqasini to'qish uchun kerak bo'ladi. Ilgakni teskari tomonga aylantirib, ustuncha usulida zanjir to'qiyimiz va boshmoqchanning bu qismini butun uzunligi bo'yicha to'qiyimiz.



Shu usulda 12-14 qator to'qiyimiz, qator soni bolaning oyoq andozasining uzunligiga bog'liq. Tovonning chetlarini tikib yoki ilgakda to'qib biriktiramiz. Boshmoqchani bezash uchun uning ustki qismini ustamali yoki ustamasiz ustuncha bilan to'qiyimiz. Boshmoqchanning oyoqdan tushib qolmasligi uchun shnur to'qib to'piqdan yuqoriga o'tkazamiz

18-§. Chinni xamir bilan ishlash texnologiyasi

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlarda bir qancha afzalliklarga ega chinni xamirdan (polimer loy) keng foydalanilmoqda. Chinni xamir kelib chiqish tarixiga ko'ra Argentinada ixtiro qilingan bo'lib, undan ajoyib gullar, qo'g'irchoqlar, geometrik shakllar yasash mumkin. Chinni xamir qiymati bo'yicha arzon, yumshoq va sog'liq uchun xavfsiz bo'lib, u bilan ishlash zavqli. Chinni xamir bilan ishlash bolalarda tasavvur, estetik didni rivojlantirib, ulardagi ijodiy qobiliyatlarni shakllanishiga yordam beradi. Bu materialning yumshoq, ilashuvchan, yaxshi tekislanishi va istalgan shaklga kirishi u bilan ishlash bolalar uchun ayni muddaodir. Chinni xamir tayyorlashning bir necha usullari bo'lib, ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

1-usul: 3 osh qoshiq yelim (PVA); 2 osh qoshiq o'simlik yog'i; 1 osh qoshiq glitserin; 4 osh qoshiq jo'xori kraxmali; 3/1 choy qoshiq limon kislotasi; guash.

Tayyorlanishi:

Barcha ingrediyentlar aralashtiriladi va yaxshilab ishlov beriladi, xamir tayyor bo'ladi. Xamirni yog'langan stol ustiga qo'yib, tayyorlaydigan shaklimizga necha xil rang kerak bo'lsa shuncha bo'laklarga bo'linadi, va kerakli rang solinib aralashtiriladi. Xamir rang bilan oson aralashadi. Xamirni xona haroratida polietilen xaltaga 3 soatga qo'yib tindiriladi. Xamir ishlatishga tayyor.

2-usul: 200gramm jo'xori kraxmali; 200 gramm yelim (PVA); 2 osh qoshiq pista yog'i; 1 osh qoshiq glitserin; 3/1 qoshiq limon kislotasi; guash.

Tayyorlanishi:

Barcha ingrediyentlar aralashtiriladi. 7-10 daqiqaga bug'li hammomga qo'yiladi, xamir qo'yilib tayyor bo'ladi. Xamirni yog'langan stol ustida ishlov beriladi. Tayyorlamoqchi bo'lgan shaklimizga necha xil rang kerak bo'lsa, xamir shuncha bo'laklarga bo'linadi va rang (guash) bilan aralashtiriladi. Shundan so'ng xamir polietilen xaltaga solinib xona haroratida 3 soat tindiriladi. Ishlatishga tayyor bo'lgan xamirdan istagan shaklimizni yasashimiz mumkin. Xamir 2 haftagacha o'z sifatini yo'qotmaydi, uni saqlab ishlatishimiz mumkin.

Nazorat savollar:

1. Ijodiy faoliyatga o'rgatish fanining maqsad va vazifasi qanday?
2. «Origami» usulining kelib chiqish tarixi haqida ma'lumot bering.
3. Kuchukchani origami usulida yasash texnologiyasi qanday?
4. Applikatsiya xalq amaliy san'atining kelib chiqish tarixi qanday?
5. Turli yosh guruhlarida applikatsiya mashg'ulotlari qanday olib boriladi?
6. «Pape-mashe» usulining kelib chiqish tarixi va uning turlari haqida ma'lumot bering.
7. «Pape-mashe» usulida lagan yasash texnologiyasi qanday?
8. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash mashg'ulotlari qanday tashkil etiladi?
9. Somon bilan ishlash texnologiyasi haqida ma'lumot bering.

10. Kashtachilik san'ati tarixi haqida ma'lumot bering.
11. Kashta tikishda qanday asboblardan foydalaniladi?
12. Yumshoq o'yinchoq tikish texnologiyasi haqida ma'lumot bering.
13. Yumshoq o'yinchoqlar to'qish uchun qanday asboblardan va iplardan foydalanish mumkin?
14. Havo halqasini to'qish texnologiyasini tushuntiring.
15. Chinni xamir tayyorlashning qanday turlarini bilasiz?

BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLIYATGA O'RGATISH FANI BO'YICHA IZOHLI LUG'AT

1. **Atribut** (lot. attributum — baxsh etaman) — obyektning zarur, muhim, xos xususiyati (mas, falsafada materiya A. i — harakat).

2. **Arusak** — (eski o'zbek tili xalq qo'g'irchoq teatrida muomalada bo'lgan so'z) qo'g'irchoq o'yinchoq.

3. **Ijod** — insonning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi.

4. **Teatr** (yunoncha *θέατρον* - "tomoshagoh") cheklangan joyda bir yoki bir necha aktyorlar ifoda etadigan tomosha orqali fikr beruvchi san'at janridir. Ba'zan teatr tomoshalari o'tkaziladigan binolarni ham *teatr* deb atashadi (aslida ularni *teatr binosi* deb atash o'rinli).

5. **Spektakl** (lot. spectaculum — tomosha) — teatr san'ati asari. Postanovkachi rejissor boshchiligidagi teatr jamoasi (aktyorlar, rassom, kompozitor, baletmeyster va h.k.) tomonidan yaratiladi.

6. **Obraz**, badiiy obraz — voqelikni faqat san'atga xos usulda o'zlashtirib va o'zgartirib xarakterlovchi estetik kategoriya. Shuningdek, badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqea ham obraz deb yuritiladi.

7. **Personaj** (lot. persona — shaxs) — san'at va badiiy adabiyotda muallif tomonidan tasvir etilgan shaxs. P.lar asar voqealarida qatnashuvi, tasvirlanishi va umumlashtirilishi darajasiga ko'ra asosiy P.lar, yordamchi P.lar, epizodik P.larga bo'linadi.

8. **Dramaturgiya** (yun. dramaturgia) — 1) muayyan san'atkor, davr va xalqqa mansub dramatik asarlar majmui. Mas, Hamza, Fitrat D.si, antik davr D.si, Uyg'onish davri D.si, ingliz D.si, o'zbek D.si va b.; 2) kino va spektaklning obrazli talqini konsepsiyasi.

9. **Drama** (yun. drama — harakat) — 1) badiiy adabiyotning 3 asosiy turidan biri (epos, lirika bilan bir qatorda). Drama teatrga ham taalluqli. Sujetlilik, harakatlarning ziddiyatga asoslanishi va ularning sahna, epizodlarga bo'linishi, bayonning yo'qligi, personajlar munosabatlarining o'zaro so'zlashuvga asoslanishi D.ning o'ziga xos xususiyatidir.

10. **Sahna** — teatr binosining tomosha ko'rsatiladigan qismi.

11. **Sujet** (frans. — predmet, mazmun, narsa) — badiiy asar mazmunini tashkil etadigan, bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda kechadigan, qahramonlar o'rtasidagi aloqalardan tarkib topgan voqealar tizimi. Barcha epik, dramatik va liroepik turdagi badiiy asarlarda S. mavjud bo'ladi.

12. **Dekoratsiya** (lot. decoro — bezayman) — teatrdagi sahnani, kinoda film suratga olinadigan joy — maydon, pavilonni spektakl, film mazmuniga moslab bezash. D. yaratishda rassomlik, haykaltaroshlik, me'morlik, voqelik joyini loyihalash san'ati, yoritish va b. vositalardan foydalaniladi.

13. **Janr** (fransuzcha *genre* — „ko'rinish“) — shakli va tarkibiy xususiyatlar majmui bilan tavsiflanuvchi asar turi. San'at asarlarining Janr guruhlariga bo'linishi turli (tanlangan mavzu, badiiy-g'oyaviy mazmun, shakl jihatlari va boshqa) mezonlarga taya'nib amalga oshiriladi; har bir san'at turida Janr tasnifi o'ziga xos tizimni tashkil etadi.

14. **Folklor** (ing. folk — xalq, lore — bilim, donolik) — xalq ijodini ifodalovchi termin. O'zbekistonda dastlab, "og'zaki adabiyot", "og'iz adabiyoti" atamaları qo'llangan. "F." termini 30-yillarning o'rtalaridan ishlatila boshlagan.

15. **Ssenariy** (ital. scenario) — 1) pyesa mazmunining qisqa bayoni, improvizatsiya teatri, tomoshasi, balet spektakllari, ommaviy tomosha va boshqa o'yinlar yaratiladigan sujet tuzilishi;

16. **Koordinatsiya** (lot. so — hamkorlik va ordinato — tartibga solish) — odamlar yoki guruhlarining maqsadli va samarali ishlashini tashkillashtirish jarayoni.

17. **Mimika** (yun. — takdid) — yuz mushaklarining ifodali harakati. Insonning ma'yuslik, xursandlik, g'azab, xafalik kabi hissiyotlarini ifodalaydi. M. oddiy kishilarda tabiiy tarzda ro'y beradi. Teatr san'atida esa aktyorlarning doimiy mashklari asosida yuzaga keladi.

18. **Etyud** (frans. — aynan mashq, o'rganish) — 1) tasviriy san'atda borliq (natura)dan uni o'rganish maqsadida yaratilgan asar. Ijodkor badiiy asar (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) yaratish jarayonida E.dan yordamchi manba sifatida foydalanadi.

19. **Ertak** — xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan.

20. **Hikoya** — badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. O'tmishda H. folklor asarlari

tarkibida bayon unsuri bo'lib ishtirok etgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan. Yevropa adabiyotida H. novella deb ham ataladi.

21. **Marionetka** (frans. mariannette) — 1) qo'g'irchoqboz iplar yordamida harakatga keltiradigan qo'g'irchoq teatrining turli ko'rinishlari.

22. **Pyesa** (frans. piece) — 1) teatr (shuningdek, radio va televideniye)da qo'yish uchun mo'ljallangan dramatik asar (qarang **Drama**).

23. **Epizod** (yun. — qo'shimcha) — 1) voqea, hodisa; 2) epik, liroepik va dramatik asar sujetidagi asosiy harakatning ma'lum bir bo'lagi, yakunlangan muayyan qismi.

24. **Grim** (frans. grime, ital. grumo — ajinli) — 1) aktyorlik san'atida qiyofa (asosan yuz)ni ijro etiladigan rolga moslab (maxsus bo'yoq bilan bo'yab, sun'iy soch-soqol yopishtirib, sochni rolga moslab tarash va sh.k.) o'zgartirish san'ati. Obraz yaratishda muhim vositalardan biri.

25. **Premyera** (frans. premure — birinchi) — spektakl, estrada, sirk tomoshalari, yangi kinofilm (telefilm) ning birinchi bor ommaviy namoyish qilinishi.

26. **Muzey** (yunoncha "musion" — "muzalar"ga, ya'ni ilhom manbai, ilhom parisiga bag'ishlangan joy) — tarixiy-moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash va o'rganish, targ'ib qilish ishlari bilan shug'ullanuvchi muassasa.

27. **Etnologiya** — etnik jarayonlar, ya'ni etnoslar va boshqa etnik jamoalar hayot faoliyatining turli jihatlarini o'rganuvchi fan.

28. **Etnolog** — etnologiya bo'yicha mutaxassis.

29. **Empatiya** — odamning emosional holatini mimika, ifodali harakatlar va nutqi bo'yicha ilg'ab olishi. Boshqa odamning emotsional holatini ongli ravishda tushunish.

30. **Replika** — javob, e'tiroz, piching, gap qistirish, gap tashlamoq ma'nosida teatr sohasida ishlatiladigan termin.

31. **Korfarmon** — (eski o'zbek tili xalq qo'g'irchoq teatrida muomalada bo'lgan so'z) masxarabozlar to'dasining boshlig'i, rejissor, qo'g'irchoq teatrida tomoshabinlarga ko'ringan holda o'yinni boshqarib boruvchi usta.

32. **Lubat** — (eski o'zbek tili xalq qo'g'irchoq teatrida muomalada bo'lgan so'z) qo'g'irchoq.

33. **Lubatboz** — (eski o'zbek tili xalq qo'g'irchoq teatrida muomalada bo'lgan so'z) qo'g'irchoqchi, qo'g'irchoqboz.

34. **Kasabayi sozanda** — (eski o'zbek tili xalq qo'g'irchoq teatrida muomalada bo'lgan so'z) xalq san'atchilari qo'g'irchoqbozlarning professional uyushmasi.

35. **Jamol** — (eski o'zbek tili xalq qo'g'irchoq teatrida muomalada bo'lgan so'z) so'zi bir tomondan tomoshaning kunduzi yorug'likda ko'rsatilishiga, ikkinchi tomondan xayol emas, balki kundalik xayoldan olinganligiga ishora qiladi.

36. **Chodir** — (eski o'zbek tili xalq qo'g'irchoq teatrida muomalada bo'lgan so'z) ham sahna ham teatr ma'nosini beradi.

37. **Chodir jamol** — (eski o'zbek tili xalq qo'g'irchoq teatrida muomalada bo'lgan so'z) kishilarning kundalik hayotidan olingan voqealarni qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar yordamida kunduzi aks ettiruvchi o'ziga xos teatrdir.

38. **Chodir hayol** — (eski o'zbek tili xalq qo'g'irchoq teatrida muomalada bo'lgan so'z) teatr bino ichida joylashib, tegishli gazlamalan sahna yasaydi. Tomoshalar faqat kechqurun bo'lib teatr sahnasida qo'g'irchoqlar iplar yordamida harakatga keladi.

ADABIYOTLAR:

1. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-595-son 16.12.2019
2. "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. PQ-4312-son 08.05.2019
3. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. Toshkent – 2018-yil.
4. "Maktabgacha ta'limda o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning samaradorligi: muammolar va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Andijon davlat universiteti. Andijon – 2019.
5. Egamov N. "O'zingiz qirqing va yasang" Toshkent.
6. Mavlonova R., M.Saʼbayeva. "O'quv ustaxonasida amaliy mashg'ulot". T. Ilm-ziyo. 2011-y.
7. Murodova "O'yinchoqlar yasash san'ati" Toshkent 2008y.
8. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. Azimova D. "Ustaxonada amaliy mashg'ulot". "Cho'lpon", T. 2010y.
9. Qayumova N. "Maktabgacha Pedagogika" T.: TDPU 2013. O'quv qo'llanma
10. Qodirov M., S.Qodirova. "Qo'g'irchoq teatri tarixi". "Talqin" T., 2006
11. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. "Maktabgacha pedagogika" T. Ma'naviyat, 2013.
12. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Qayumova N.M., A'zamova M.N. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur". Toshkent – 2019
13. Shodmonova Sh. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" Fan va texnologiya. T. 2008.
14. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha Pedagogika T.: Tafakkur bo'stoni. 2013. Darslik.
15. Tursunboyev Sotimboy. "Xorijiy teatr tarixi". "Arnaprint". Toshkent-2003
16. Xasanboyeva O. va boshq. "Oila Pedagogikasi". T.: "Aloqachi", 2007
17. Xasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi T.: Ilm-ziyo. 2012. O'quv qo'llanma.
18. Антипина Е.А. «Театрализованная деятельность в детском саду». М., 2003.

19. Генов Г.В. «Театр для малышей». М.: Просвещение, 1968.
20. Генов Г.В. «Теневой театр для самых маленьких». М.: Учпедгиз, 1961
21. Караманенко Т. «Кукольный театр в детском саду». М.: Учпедгиз, 1960.
22. Кузнецова Л. «Изготовление детьми игрушек для кукольных театров». Дошкольное воспитание, 1990. №1.
23. Кудачова Л.В., Мерзлякова С.И. «Воспитание ребенка-дошкольника: развитого, образованного, самостоятельного, инициативного, неповторимого, культурного, активно творческого». Москва.: Владос, 2004.
24. Смолякова Т. «Технология изготовления театральных кукол». Т., Янги аср авлоди, 2007.
25. Сорокина Н.Ф. «Играем в кукольный театр: Программа «Театр-Творчество-Дети»: Пособие для воспитателей, педагогов дополнительного образования и музыкальных руководителей детских садов. Рекомендовано Министерством образования РФ. М.: АРКТИ 2002.
26. Чурилова Э.Г. «Методика и организация театрализованной деятельности дошкольников и младших школьников». М.: Владос. 2001.

Internet saytlari

1. www.pedagog.uz
2. www.ziynet.uz
3. www.edu.uz
4. www.lex.uz
5. www.moluch.ru
6. www.bilim.uz
7. www.gov.uz

MUNDARIJA

Kirish	3
I-BOB	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA	
SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	5
§ 1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyati.	5
§ 2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida turli yosh guruhlarida sahnalashtirish faoliyatining asosiy vazifalari	13
§ 3. Sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.....	19
II-BOB	
SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI JARAYONIDA	
BOLALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING	
O'ZIGA XOSLIGI	26
§ 4. Sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishda ota-onalar bilan hamkotlikda amalga oshiriladigan ishlar	26
§ 5. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish.	27
III-BOB	
SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI JARAYONIDA	
BOLALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING	
METODLARI	31
§ 6. Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi, tarixiy ildizlari va tarbiyaviy ahamiyati.	31
§ 7. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning metodlari.....	47
IV-BOB	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA	
QO'G'IRCHOQ TEATRI PERSONAJLARINI YASASH ORQALI	
BADIIY IJODIY QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH VA	
QO'G'IRCHOQ YASASH USULLARI	55
§ 8. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri qahramonlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish mazmuni.....	55
§ 9. Qo'g'irchoq teatridagi o'yin turlari. Teatr qo'g'irchoqlarini yasash. Qo'g'irchoq o'ynatish qoidalari.	57

V BOB

BOLALARNI IJODIY FAOLIYATGA O'RGATISHNING

MAQSAD VA VAZIFALARI	73
§ 10. Ijodiy faoliyatga o'rgatishning maqsad va vazifalari.....	73
§ 11. Qog'ozdan buklash yo'li bilan o'yinchoq yasash (Origami usuli)	74
§ 12. Applikasiya haqida umumiy tushuncha.....	75
§ 13. Pape-mashe usuli.....	87
§ 14. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash.	89
§ 15. Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi.	90
§ 16. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash.	92
§ 17. O'yinchoqlar to'qish texnologiyasi.	93
§ 18. Chinni xamir bilan ishlash texnologiyasi	95
BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLIYATGA	
O'RGATISH FANI BO'YICHA	98
IZOHLI LUG'AT	102
ADABIYOTLAR:	102

QAYDLAR UCHUN

Z.S.TESHABAYEVA

**BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA
IJODIY FAOLIYATGA O'RGATISH**

Toshkent – «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи» – 2021

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	A.Shushunov
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	M.Zoyirova

E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +998999209035
Nashr.lits. AL№009, 20.07.2018. Bosishga ruxsat etildi 18.01.2021.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garnituras. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 7,0. Nashriyot bosma tabog'i 6,5 .
Tiraji 100. Buyurtma № 6.

**«Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи»
bosmaxonasida chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.**

ISBN 978-9943-6735-1-9



9 789943 673519